O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
fanidan

O’QUV-USLUBIY MAJMUA

GULISTON-2022

Umumiy pedagogika va psixologiya fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmua. – Guliston 2022. - 165 b.

Ushbu o’quv-uslubiy majmua barcha bakalavriyat ta’lim yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo’ljallangan. O’quv-metodik majmua Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2020-yil 29-avgustda tasdiqlangan Umumiy pedagogika va psixologiya fani namunaviy dasturi talablari asosida tayyorlanib, unda pedagogika va psixologiya fanlarining mohiyati, rivojlanishi, bilish jarayonlari, ta’lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilishning yoshga bog’liq mexanizmlarini o’z ichiga qamrab oladi.

Tuzuvchilar: GulDU “Pedagogika” kafedrasi o’qituvchilari –
Xidirova M.Q., Suleymanova R.D.

Taqrizchilar: ped.f.n., professor Abdukarimov X.A.
psixol.f.n., professor Xolnazarova M.X.

Mazkur o’quv-uslubiy majmua OO‘MTVning 2017-yil 1-mart 107-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim o’quv rejalari fanlarining yangi o’quv majmualariini tayyorlash bo’yicha uslubiy ko’rsatma” asosida yaratilgan.

O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti “Pedagogika” kafedrasining 2022-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig’ilishida muhokama qilingan.

O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O’quv-metodik Kengashi tomonidan ko’rib chiqilgan va o’quv jarayonida qo’llashga tavsiya etilgan.
(2022-yil 29 avgust, №1 bayonnoma).

MUNDARIJA

Kirish.....4-6

O‘quv materiallar (ma’ruza mavzulari va mazmuni, amaliy, seminar va laboratoriya ishlarini bajarish b o’yicha uslubiy ko’rsatmalar).....7-101.

Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari….....…….....102-107

Glossariy.....…….....108-118

Ilovalar:

Fan dasturi.....……..... 119-131

Ishchi fan dasturi (syllabus)…….....…….....132-145

Tarqatma materiallar.....….....145-152

Test savollari.....……..... 153-164

Baholash mezonlari bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar……. 165

Qo’shimcha materiallar.....….....

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun, milliy istiqlol g’oyasi va mafkurasi talablari asosida oliy o’quv yurtlarida bo’lg’usi mutaxassislarni aqliy, ahloqiy, intelektual, estetik va jismoniy jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalashda «Umumiy pedagogika va psixologiya» fani ustuvor fanlardan biri hisoblanadi. Mazkur fanning dasturi oliy o’quv yurtining bo’lajak o’qituvchilarini pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy, amaliy va milliy asoslari, pedagogik va psixologik bilimlar majmuasi bilan qurollantirishga xizmat qiladi. «Umumiy pedagogika va psixologiya» fani predmeti yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etishga, boshqarishga va ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik fanlarni o’qitish jarayoni, mazmuni, metod, shakl va vositalarini keng miqiyosda yoritib beradi.

Ta’lim samaradorligini oshirish, davlat ta’lim standartlarining bajarilish sifatini ta’minlash, hozirda pedagogikaning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim oldida turgan vazifalarni hal etish bevosita o’qituvchi faoliyatiga bog’liqdir. O’qituvchi o’quvchilarni bilim egallashda faollashtiradigan, barcha uchun qulay bo’lgan yo’llarni, usul va uslublarni, ta’limning turli xil vositalarini va vaziyatlarini izlaydi. Ulardan foydalangan holda pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Talabalarni mustaqil fikrlashga o’rgatib, ijodiy izlanishga, egallayotgan kasbining sirlarini bilib olishga yo’naltiradi.

Pedagogika fani jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o’tish yo’lida amalga oshirilayotgan ishlar milliy ong kun sayin yuksalayotganidan dalolat beradi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o’zgarish sezilmaydi. Ushbu majmuada pedagogika fanidan o’tiladigan mavzular bo’yicha mustaqil ish topshiriqlari berilgan. Talaba har bir mavzu bo’yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lishi, kerakli ma’lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashi, axborot manbalaridan unumli foydalanishi, an’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlashi, internet tarmog’idan maqsadli foydalanishi va berilgan topshiriqlarning yechimini belgilashi, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshishlari zarur. Majmua talabalarning pedagogika fanidan oladigan bilimlarini ko’nikma va malakaga aylantirish uchun, pedagogik kasb xususiyatlaridan voqif bo’lishlari hamda kafolatlangan natijaga erishishlariga hissa qo’shishga yo’naltirilgan va oliy o’quv yurtining barcha yo’nalishdagi talabalari uchun mo’ljallangan.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – Talabalarga ta’lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatish, pedagogik faoliyat mazmuni bilan tanishtirish, umumpedagogik bilimlarni, pedagogik madaniyatni, kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish va innovatsion ta’lim jarayoniga tayyorlash orqali pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishish masalalarini hal qilishga o‘rgatish.

Fanning qonuniyatlari va psixologiyaning asosiy tushunchalari, prinsiplarini hamda psixik jarayonlarni nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan.

Shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlariga haqidagi bilim, ko‘nikma malakalarni shakllantirish, psixologiya fanining zamonaviy ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishni tashkil qilish.

Fanning vazifasi – Fanning ilmiy, amaliy va metodologik asoslarini o‘rgatish, ta’lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritish, pedagogik mahoratni egallash yo‘llari, ta’lim muassasasining ish hujjatlarini to‘g‘ri yuritish, pedagogik manbalar bilan ishlay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

• pedagogik jarayonning mohiyatini tushunadi, ta’lim va tarbiyaning metodlarini biladi, ta’lim tizimini boshqarish,ta’lim va tarbiya jarayonlarini pedagogik diagnostikasi,pedagogik faoliyat, psixikaning evolyutsiyon taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyatsiya,sezgi va idrok, diqqat va xotira, tafakkur va nutq haqida ***tasavvurga ega bo’lishi;***

• pedagogik jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil qilish, ta’lim va tarbiya metodlaridan,pedagogik va axborot texnologiyalaridan goydalanish,o’quv reja,o’quv dastur va uslubiy va o’quv qo’llanmalarni ishlab chiqish, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish psixologik jarayonlarni yuzaga kelish mexanizmlarini bilish, shaxs kamoloti yo’lida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish ***ko’nikmasiga ega bo’lishi***;

• Ta’lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritish,o’quvchilarni bilim olganlik, va tarbiyalanganligini tashxis qilish, pedagogik mahoratni egallash yo’llari,ta’lim muassasasining ish hujjatlarini to’g’ri yuritish,pedagogik manbalar bilan ishlay olish, ilg’or tajribalarni o’rganish va o’z faoliyatini singdirish,***malakalariga ega bo’lishi kerak.***

VI.Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

• faollashtiruvchi ma’ruzalar;
• seminar-konferensiya
• seminar-munozara,
• guruhlarda ishlash,
• individual va jamoaviy loyihalar,
• keys-stadilar.

Ma’ruza mashg’ulotining soatlarda taqsimlanishi

1 -jadval

T/r	Ma’ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
	1-qism. Pedagogika	
1.	Pedagogika fanining predmeti, tadqiqot metodlari	2
2.	Pedagogik ta’limotlar tarixi	2
3.	O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida modernizatsiya	2

	jarayonlari	
4.	Pedagogik jarayonda tarbiyaning mazmuni.	2
5.	Tarbiya jarayonining shakllari va metodlari	2
6.	Ijtimoiy pedagogika asoslari.	2
7.	Ta’lim jarayonining mohiyati	2
8.	Ta’limning tashkiliy shakllari va metodlari	2
9.	Ta’limda innovatsion jarayonlar “Innovatsion metod” tushunchasi.	2
10.	Elektron pedagogika asoslari	2
11.	Pedagogik diagnostika	2
12.	Korreksion pedagogika va inklyuziv ta’lim asoslari	2
13.	Ta’lim menejmenti asoslari	2
14.	Maktab – pedagogik tizim sifatida	2
15.	Pedagogik kompetentlik va kreativlik	2
	Jami	**30**

2-jadval

T/r	Seminar mashg’ulot mavzulari	Soatlar hajmi
	1-qism. Pedagogika	
1.	“Pedagogika”ning ijtimoiy fan sifatida jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	2
2.	Pedagogik fikrlar taraqqiyoti va tarixiyligi	2
3.	Ta’lim – O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida	2
4.	Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari	2
5.	Zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari va shakllari	2
6.	O‘quvchilar jamoasi – pedagogik jarayonning asosiy shakli	2
7.	Didaktik nazariyalar va ta’lim paradigmalari	2
8.	Ta’lim metodlari va shakllarini amaliyotida qo‘llanilishi	2
9.	Ilg‘or pedagogik texnologiyalar	2
10.	Ta’limda AKT va interaktiv texnologiyalardan foydalanish	2
11.	Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash	2
12.	Inklyuziv ta’lim modellari	2
13.	Ta’lim muassasasini boshqarish asoslari	2
14.	Maktabda boshqaruv organlari va ularning vazifalari	2
15.	Pedagogik kompetentlik va kreativlikni shakllantirish	2
	Jami	**30**

O’QUV MATERIALLARI

1-MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI VA TADQIQOT METODLARI

ASOSIY SAVOLLAR:

1.Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.
2.Pedagogik fanlar tizimi.
3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Darsning maqsadi. Pedagogika fani, predmeti haqida tushuncha berish, pedagogikaning ta’rifini izohlash, uni har bir talabaning o’zlashtirib olishiga erishish. Pedagogikaning maqsad va vazifalarini bayon etish .Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida bosqichlarini o’quvchilar ongiga etkazish dunyo olimlari orasida pedagogikaga hissa qo’shgan Markaziy Osiyo allomalarini ajratib ko’rsatish milliy g’urur hissini tuydirish.

Kalit so’zlar: ijtimoiy tarixiy tajriba, barkamol avlod, ta’lim-tarbiya, obyekt va predmet, pedagogika, pedagog; mazmun, maqsad, qonun-qoida, shakl va usullar, nazariya va amaliyot, kategoriya, tushuncha, ma’lumot, ta’lim, tarbiya, rivojlanish; metodologik asos, pedagogik fanlari tizimi; ilmiy-tadqiqot usullari va hakozo. Metod, ilmiy-tadqiqot metodi, metodologiya, ilmiy kashfiyot, ilmiy faraz, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, ijodiy ishlarni o’rganish, maktab va arxiv hujjatlarini o’rganish, anketa va testlar, matematika-kibernetika, statistika, ilmiy-tadqiqot natijasi.

1.Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.

Yer yuzida odam zoti paydo bo’libdiki, u ta’lim tarbiya bilan shug’ullanib keladi, komillikkka intiladi. Kattalar yosh avlodga o’zlarining tajribalarini, insoniy fazilatlarini, bilim ko’nikma va malakalarini singdirishga harakat qiladi. Bu vazifalar turli usullarda turlicha hal etilgan bo’lib, ularning natijasi sifatida, pedagogika fanining dastlabki ta’limotlari tarkib topib borgan. Inson tafakkuri, bilimi uning ijtimoiy tajribalarida aks etgan.

Qadimshunos olimlarning ta’kidlashlaricha, minglab yillar oldin kishilar yetuk onglilik asosida madaniy meros namunalarini yaratganlar. Ammo ularga berilgan ta’lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati. qanday amalga oshirilganligi mukammal tarzda bizgacha etib kelmagan. Ayniqsa ko’hna sharq mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Eron, Turkiya va boshqa joylarda o’ta mukammal ta’lim tarbiya tizimi mavjud bo’lganligi madaniy-me’moriy yodgorlikda turli sa’nat va muxandislik inshoatlarida uchratish mumkin.

Hozirgi kunda saqlanib qolgan eng eski pedagogik ta’limot qadimgi Yunoniston davlatlari: Sparta va Attikada amalga oshirilgan. Pedagogika tushunchasi ham o’sha zamonlarda qo’llanila boshlagan.

Avvalo «pais ageines» «ya’ni bola yetaklash» degan ma’noni anglatadi. Quldorlarning bolalarini qo’riqlab, himoya qilib yuradigan kishilarni shunday atagan. Keyinchalik maktablarning kuchayishi, ta’lim tarbiyaning takomillashib borishi natijasida ta’lim-tarbiya bilan shug’ullanuvchi kishilarni pedagoglar deb atashgan.

Pedagogika ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotlarni o’rganadigan soha sifatida falsafaning tarkibida shakllanib bordi.

Pedagogikaning predmeti sifatida ta’lim-tarbiya jarayoni va unda amalga oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik ko’rgan kishilarning faoliyati tushuniladi.

Turli manbalar va mualliflarning pedagogikaga bergan ta’riflaridan kelib chiqqan holda uni quyidagicha ifodalash mumkin:

Pedagogika jamiyatning barcha a’zolarini ijtimoiy ehtiyojga mos holda tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish, zamonaviy bilim ko’nikma va malakalar berishning yo’l-yo’riqlari qonuniyat hamda mazmun mohiyatini o’rganuvchi fandir.

Bu ta’rif ma’lum darajada «Ta’lim to’g’risida» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mazmuniga mos keladi. Faqat o’quvchi yoshlar emas, jamiyatning barcha a’zolari ta’lim va tarbiyadan baxramand bo’lishlari, uzluksiz ta’lim tizimi ta’sirida kamolot sari intilish zarur.

O’zbekistonning milliy istiqlolga erishishi pedagogika fanining maqsad va vazifalarini yangilanishiga olib keldi.

Sho’rolar tizimi davridagi komunistik mafkuraga asoslangan tarbiya ko’p jihatlari bilan barcha xalqlar va millatlarni bir qolipda «ulug’ og’a» ruhiga moslashtirib ulg’aytirishga mo’ljallangan edi. Bu illatdan voz kechib, birinchi navbatda milliy ruhda tarbiyalashga alohida e’tibor berildi. Birinchi Prezidentimmiz I.Karimov ta’kidlaganlaridek: «Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o’zining o’tmishi, ulug’ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonlarni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir».[1]

Xalqimiz boy milliy tarbiya an’analariga ega, unga suyagan holda komillikka intiluvchi shaxsni tarkib toptirish mumkin. Lekin pedagogika fani umuminsoniy tarbiyaning nodir namunalari ta’sirida milliy tarbiyani boyitib borishni ham maqsad qilib qo’ygan. Bu buyuk maqsadlar o’z navbatida ta’lim va tarbiyaning tajribada sinalgan shakllari bilan bir qatorda, jahondagi ilg’or pedagogik texnologiyalardan qo’llanish, etuk mutaxassislar tayyorlash, yoshlarning qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan vazifalarni hal etish ga qaratilgan.

Pedagogika insonlar tomonidan yaratilgan eng qadimgi fanlardan biri sanaladi. Odamlar o’zlarining dastlabki ongli xarakatlarini axloqiy fazilatlarini o’zlarining nasl-nasabidan bo’lgan yoshlarga o’rgatganlar. Shuning uchun ham olimlar pedagogik ta’limotlarning dastlabki ko’rinishlari ibtidoiy jamiyatda paydo bo’lganligini asoslashadilar. Oilaning kelib chiqishi pedagogik qarashlarning rivojiga katta hissa bo’lib qo’shildi. Hatto buyuk allomalar Suqrot (469-399y eraga qadar) Aflotun (427-347y). Arastu (384-322y) va boshqalar dunyo ilmiga ulkan hissa qo’shganlari holda qullarni odam o’rnida ko’rmaganlar. Qullar kundalik turmush tarzida jismoniy mehnatgagina o’rganganlar. Pedagogika fanining taraqqiyoti Sharq uyg’onish davri allomalarining qo’shgan hissalari barakali bo’lgan. Ayniqsa Muso Al-Xorazmiy, Axmad Al-Farg’oniy, Axmad-Yugnakiy, Imom Al-Buxoriy, Iso At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Burxoniddin Al-Marg’iloniy, Axmad Yassaviy va boshqalar o’zlarining buyuk ilmiy kashfiyotlari bilan birga pedagogikaning turli muammolarini ishlab chiqdilar. X1U-XU1 asrlarda Markaziy Osiyo xududida kuchli rivojlangan davlat tarkib topdi. Bu davlatning asoschisi ulug’ sohibqiron Amir Temur edi. U ilm-fanning taraqqiyotiga madaniyat va maorif ravnaqiga alohida e’tibor berdi. Yoshlar tarbiyasi keng ko’lamda olib borildi.Shu davrda o’zlarining pedagogik qarashlari bilan mashhur bo’lgan olimlar faoliyat yuritdilar. Ular qatorida Muhammad Tarag’ay, Ulug’bek, Abdurazzoq Samarqandiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalar edi. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti XIX-XX asrlarda o’zining eng yuqori taraqqiyot darajasiga erishdi. Jadidchilik xarakati ta’lim-tarbiyaning yangi shakl mazmun va usullarini ilgari surdi. Ismoilbek Gaspirali ta’limoti tarafdorlari sifatida Maxmudxo’ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon, o’g’li Isxoqxon Ibrat, Abdulqodir Shakuriy, X.X. Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va ko’plab o’zbek ziyolilari maktab maorif masallarini ilmiy asoslashga xarakat qildilar. Sho’rolar tizimi sharoitida pedagogika fani o’ziga xos rivojlandi. Ammo bunda rus milliy ustunligi barcha xalqlarning ilg’or g’oyalarini ruslashtirdi. Shunday bo’lsada bu davrdagi fan taraqqiyotini inkor etib bo’lmaydi. Jahon pedagogikasi ilg’or g’oyalar bilan boyib boradi. Evropada XV-XVI asrlarda ko’p pedagogik ta’limotlar ishlab chiqildi. Yan Amon Kamenskiy, J.Lokk, J.J.Russo, I.G. Pestolotstsi, R. Ouen, A. Disterveg, I.Gerbard va boshqalar o’z ta’limotlarini yaratdilar. Rossiyada pedagogika fanini rivojlantirishga M.Lomonosov, V.Belinskiy, A.Gertsen, N.Chernishevskiy, K.Ushinskiy, N. Pirogov, P.Lesgraft va boshqalar hissa qo’shganlar. Sho’rolar tuzumi sharoitida A. Makarenko, S.Shatskiy, P.Blonskiy, N.Krupskaya, V. Suxomlinskiy, M. Danilov, I.Ogorodnikov, N.Boldrev, M.Skatkin, Yubabanskiy, I.Lerner, V.Kraevskiy va ko’plab boshqa olimlar pedagogika sohasida ilmiy va amaliy faoliyat yuritdilar. Ta’lim uchun bo’lgan barcha harakatlarimizda – etarli izlanish va o’qish bilan ta’minlashda – biz hech qachon ta’limning ayni yuragini esdan chiqarmasligimiz lozim: Yahshi o’qitishning o’zini yahshi o’qituvchilar shunchaki tug’ilmaydilar, ular eng baland ilhomning natijasidir.[1]

O’zbek olimlaridan S.Rajabov, E.Qodirov, J.Umurboev, A.Boboxanov, I.Xusanxo’jaev, Z.Mirtursunov, M.Ochilov, K.Hoshimov, O.To’raeva, N.Shodiev, E.Choriev va boshqalar pedagogikaning dolzarb muammolarini ishlab chiqishdi va hayotga tadbiq etishda faollik ko’rsatdilar.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga “ta’lim”, “tarbiya”, “ma’lumot”, “rivojlantirish” kabi tushunchalar kiradi, ular bir-birini to’ldiradi. Bulardan tashqari, “o’quvchi”, “o’qituvchi”, “usul”, “qoida”, “jamoa”, “intizom”, “irsiyat”, “muhit”, “direktor” va hakozo kabi tushunchalar mavjudki, bular haqida alohida mavzularda so’z yuritamiz.

Ma’lumot – bu insoniyat to’plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o’zlashtirish natijasidir. U asosan rejali ta’lim-tarbiya va boshqa yo’llar bilan olinadi. Ma’lumot to’liq olib bo’lingach kishiga tegishli hujjat beriladi: guvohnoma, diplom, sertifikat va hakozo.

Ta’lim – bu maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida amalga oshiriladigan ma’lumot berish jarayonidir. Bu jarayonda o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalar shakllantiriladi, ularning qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Tarbiya – bu milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o’sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifat va insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

Rivojlanish – bu shaxsning jismoniy va ma’naviy kamolga etishida ketma-ket harakati, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o’tib borishidir.

2.Pedagogik fanlar tizimi.

Pedagogika fani falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan doim aloqadordir. O’qituvchi – tarbiyachi bu fanlarni bilmay turib ish ko’rishi mumkin emas. Falsafa pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi. Etika, estetika fanlari esa pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo’limi bo’yicha ma’lumot beradi.

Tarix, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarni ham o’qituvchi bilmasligi mumkin emas. Pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, maktab gigiyenasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada chambarchas bog’liq.

Pedagogika fani obyekti asta sekin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari bir necha guruhlarga ajratilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb ataladi.

Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo’lingan.

1. **Maktabgacha ta’lim pedagogikasi -** maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug’ullanadi;
2. **Maktab pedagogikasi -** maktab yoshdagi o’quvchilarni tarbiyalash va o’qitish haqida bahs yuritadi
3. **Kasb-hunar ta’limi** pedagogikasi
4. **Oliy ta’lim pedagogikasi -** talabalarga kasbiy ta’lim va tarbiya berish muammolari bilan shug’ullanadi
5. **Harbiy pedagogika**
6. **Pedagogika tarixi**
7. **Fanlarni o’qitish metodikasi**
8. **Oila pedagogikasi**
9. **Maxsus pedagogika.**

Pedagogika faqat sog’lom o’quvchilar ta’lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar ta’lim-tarbiyasini ham o’rganadi. Bunday tarmoqlarni **maxsus pedagogika** deb yuritiladi.

1. Maxsus pedagogika tuzilishiga: oligofreno-pedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish); “tiflo-pedagogika” (ko’r bolalarni tarbiyalash); surdo-pedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash)da gogopediya kabi fanlar kiradi.

3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo’lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo’lib, uning umumiy mohiyatini to’laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ko’rsatilgan fanlar pedagogik bilimlar rivojida qanday o’rin tutadi?

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g’oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisodiyot nazariyasi – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika (axloqshunoslik) – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etish ga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

12. Ma'naviyat asoslari – jamiyat, inson va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarni, ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson ongini rivojlanishidagi roli, fuqarolarni ma'naviy tarbiyalash omillarini o'rganadi.

1.Pedagogika fanining predmeti nima?
2.«Pedagogika» so'zining ilk manosi?
3.Bugungi kunda pedagogika nimalarni o'rganuvchi fan?
4.Dastlabki pedagogik g'oyalar nimalarda ifodalangan?
5.Kategoriya deganda nimani tushunasiz? Javobingizni izohlang.
6.Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
7.Fanning asosiy tushunchalari nimani ifodalaydi?
8.Pedagogik tushunchalarning ro'yxatini tuzing. Unga asoslanib o'qituvchilik kasbi haqidagi fikr-mulohazalaringizni yozma bayon eting.
9.Pedagogikaning qaysi fanlar bilan aloqasi borligini sanab o'tadilar.
10. Pedagogikaning metodologik asosini tashkil etuvchi fanga izoh beradilar.
11.Pedagogika fanini tarmoqlarga ajratadilar.
12.Pedagogika fanining mavzu bahslariga aniqlik kiritadilar.
13.Pedagogika qanday fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi?
14. Falsafa – pedagogikaning metodologik asosi ekanligini izohlab bering.
15. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?
16. Maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagogika haqida tushuncha bering.
17. Oligofreno pedagogikasi qanday qusuri bo'lgan o'quvchilar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadi?
18. Pedagogika fanlari tizimining yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyatini tavsiflang.
19. Pedagogika qanday fanlar bilan bog'langan? Javobingizni izohlang.
20. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?

21.Metod tushunchasining mohiyatini ochib bering.

22.Ilmiy-tadqiqot metodlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiling.

23.Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining ta'lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.

24.Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan metodlar tizimini so'zlab bering.

25.O'quvchi shaxsini o'rganish uchun so'rovnoma (anketa) tayyorlang va uni o'z maktabingizda to'ldirib natijalarini umumlashtiring.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.

3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.

Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.

5.Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.

6.Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

2-MAVZU: PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI

Asosiy savollar:

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari.
2. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Darsning maqsadi: Mavzu yuzasidan talabalarga pedagogika tarixi fanining maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolarini, pedagogic fikrlar tarixini yoritib berish.

Kalit so'zlar: tarbiy, ta'lim, pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogic fikr, davrlashtirish, yozma manbalar.

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari.

Pedagogika tarixi fani predmeti – mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'limtarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

Pedagogika tarixi fanining maqsadi – qadimgi O'rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Zero, boshqa ijtimoiy hodisalar singari ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi ham ma'lum ob'ektiv qonuniyatlar asosidi sodir bo'ladi.

Pedagogika tarixi fani vazifalaridan biri ana shu ob'ektiv qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Ma'lumki, ijtimoiy fanlarning qonuniyatlari ham ob'ektiv harakterga ega. Ular ma'lum joyda, mamlakatda ayrim kishilar tomonidan ochilishi, kashf etilishi mumkin. Lekin bu ob'ektiv qonuniyatlarning ta'sir doirasi juda keng bo'ladi, ayrim millat, mamlakat, mintaqa doirasi bilan cheklanmaydi. Bu fan erishgan yutuqlar ham butun insoniyatga foyda keltirishi lozim.

Pedagogika tarixi fanining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

–ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va milliy, ijtimoiy hodisa sifatida, shuningdek, jamiyatning o’zgaruvchan ehtiyojlari bilan bog’liq holda o’rganish;

–ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog’liq holda yoritish;

–o’tmishda pedagogika ilmi va ta’lim-tarbiya sohasi orttirilgan ijobiy tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish usullarini ko’rsatib berish;

–ijtimoiy-pedagogik fikrlar taraqqiyotining har bir bosqichida O’rta Osiyo hududida va jahonning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar rivojlanishini va ta’limtarbiya holatini tarixan haqqoniy tasvirlash;

–pedagogik-tarixiy bilimlar – bo’lajak iqtisodchi pedagoglarning milliy, tarixiy, ma’naviy-pedagogik ongini shakllantirishga faol ta’sir etishini nazarda tutish va h.k.

Pedagogika tarixi ham mustaqil fan sifatida o’ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari va manbalariga egadir. Odatda, pedagogik-tarixiy sohadagi izlanishlarda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlari qo’llaniladi: arxeologik va tarixiy yodgorliklarni, xalq og’zaki ijodi materiallarini, buyuk mutafakkirlar va ma’rifatparvarlarning ta’limiy-badiiy va pedagogik-tarixiy asarlarini, turli davrlarda yaratilgan qo’lyozmalar va nashr etilgan asarlarni, vaqtli matbuot materiallarini, o’quv rejalari, dasturlari, darslik, o’quv qo’llanmalarini, ta’lim muassasalarini nizomlari va ta’lim muassasalari faoliyatiga doir hujjatlarni, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning xotirasi va esdaliklarini, davlat va xalqaro tashkilotlarning maorif, madaniyat, ta’lim-tarbiyaga doir statistik ma’lumotlarini, turli mintaqadagi pedagogik jarayonlarni aks ettirgan pedagogik asarlarni o’rganish va h.k. Shuningdek, umumlashtirish uchun sotsiologik, matematik tadqiqot usullaridan ham, pedagogika nazariyasida qo’llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlaridan ham foydalanish mumkin.

Pedagogika tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi barcha pedagogik yo’nalishdagi bilimlarni o’z ichiga oladi. Pedagogika tarixi faqat pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilangina emas, balki jamiyat tarixi, falsafa, psixologiya va boshqa barcha fanlarni o’qitish metodikalari tarixi bilan ham bog’liqdir. Buni anglash, e’tiborga olish pedagogik hodisalarni u yoki bu jamiyat tarixi bilan uzviy bog’liq holda qarashga imkon beradi va pedagogik-tarixiy hodisalarni soxtalashtirishni bartaraf etadi.

O’zligini anglamagan, o’tmishini, umumbashariy va milliy qadriyatlarni, milliy g’urur, milliy ma’naviyatni bilmagan o’quvchi-talaba yoshlarimiz jamiyatda sodir bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy hodisalarning mohiyatini to’liq anglay olmaydi, kelajakni ham ko’z oldiga keltira olmaydi. Bu ob’ektiv qonuniyat ayniqsa yosh avlod tarbiyachilari – bo’lajak pedagoglarga hammadan ko’proq taalluqlidir. Bo’lajak pedagoglar ijtimoiy-gumanitar va ixtisoslik fanlari qatorida pedagogika va psixologiya fanlarini o’qitish metodikasini, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bir qatorda pedagogik fikrlar tarixini ham bilishlari talab etiladi.

Ma’lumki, pedagogik-tarixiy hodisalarni o’rganish masalasida **fanda turli xil yondashuvlar** vujudga kelgan. Ayrim olimlar tarbiyani biologik hodisalar qatoriga kiritadi va tarbiya tarixini inson zotining evolyutsion rivojlanishi nuqtai nazaridan talqin etadi. Ba’zilar pedagogika tarixi ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini falsafiy-axloqiy jihatdan bayon etadi. Ba’zi olimlar ta’lim-tarbiya nazariyasini inson madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tahlil etsalar, ko’pchilik olimlar pedagogik nazariyalar va amaliyotni ilohiy ta’limotlar asosida tahlil qilganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Evropada yashagan olimlar tarbiyaga jamiyatni, shaxsni o’zgartirish quroli sifatida qaraganlar.

Moddiy olamni (dunyoni) anglash, ilmiy bilishda tarixiylik tamoyiliga amal qilinadi va **ijtimoiy hodisalar atroflicha, yaxlit hamda rivojlanish jarayonida o’rganiladi.** Bunday yondashuv pedagogik hodisalarning mohiyati va aloqalarini u yoki bu tarixiy davr xususiyatlari bilan bog’liq holda o’rganishga, ta’lim-tarbiya tizimi va ta’lim-tarbiya an’analari bilan, o’tmishda (o’sha davrda) yashagan allomalar va pedagoglarning pedagogik qarashlarini falsafiy ta’limiy-axloqiy g’oyalari bilan bog’liq holda o’rganishga imkon beradi.

Pedagogika tarixi – ta’lim-tarbiyaning tarixiy tajribasini, jahon madaniyatini rivojlanishi (tsivilizatsiyasi, ya’ni tamadduni)ni hozirgi zamon bilan, har bir xalq madaniy va pedagogik fikrlari taraqqiyotini butun insoniyatning tsivilizatsiyasi

(tamadduni) bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Pedagogik-tarixiy hodisalar, g'oyalar, nazariyalar, qarashlarni bayon etish mantiqi va harakteri pedagogika tarixi fanini talabalar tomonidan oson o'zlashtirishiga imkon yaratadi.
Taniqli pedagog olim Malla Ochilovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda pedagogika tarixini yaxlit, yagona madaniy, pedagogik tarixiy jarayon sifatida yoritish uchun shartli ravishda quyidagicha beshta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Qadimgi zamonlardan arablar istilosigacha (VII asrgacha) bo'lgan davr.
2. VIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha – Turkistonni chor Rossiyasi tomonidan bosib olinguncha o'tgan davr.
3. XIX asrning 60-yillaridan XX asr boshlarigacha o'tgan davr.
4. 1917-20 yillardan (oktyabr inqilobidan) 1991 yilgacha o'tgan davr.
5. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan va hozirgi kunda pedagogik-tarixiy rivojlanish davri.[1]

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari

Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy (783850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi.
Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagoguslubiyotchi olim sifatida tarihda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), YUnoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi Hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan Hissasini qo'shdi. "Al-kitob al-muhtasar fi-Hisob al-jabr va-l muqobala" asarida ("aljabr va –l muqobala Hisobi Haqida qisqacha kitob") sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni echish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning ohirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi; ikkinchsi, geometrik qism-algebraik usul qo'llab o'lchashlar Haqida; uchinchi qism vasiyatlar Haqida bo'lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi.
Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraktsiya tushunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo'li bilan umumiy echish usullarini Hal etadi, deduktsiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida hususiy masalalarni echadi. "Aljabr va-lmuqobala" asari bilan Ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi Hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi. Mutafakkir ushbu tenglamalarni echish uchun "Al-jabr" va "al-muqobala" ("tiklash" va "qiyoslash") amallarini kiritdi. Bu amallarninng moHiyati tenglama Hadlarining ishorasini o'zgartirgan Holda ularni bir tomondan ikkinchi tomonga o'tkazish va yig'ishdan iboratdir. "Al-jabr" keyinchalik matematika fanining aloHida bo'limiga aylandi va "algebra" deb ataladigan bo'ldi. Mazkur amallar yordamida Har qanday tenglamani kononlik shakliga, ya'ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin echiladi. Bu usul fan olamida muHim aHamiyatga ega edi. SHu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomi lotincha transkriptsiyada "Algoritmi" shaklini oldi, keyin "Algoritmus" va niHoyat Hozirgi zamon Hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi "algoritm" ("algorifm") ga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo'llarini Ham berdi. Meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish Hamda mol taqsim etish uchun zarur bo'lgan Hisoblarni ta'lif etdi.

Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi "Hind arifmetikasi Haqida kitob" ("Hisob al-Hind")dir. Asar o'nlik tizim raqamlari (1,2.3,4,5,6.7,8,9)ga bag'ishlangan. Mutafakkir Hindlarning falakiyot va matematikaga oid "SindiHin" nomli qo'llanmasini o'qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta tikladi, uning mundarijasiga yangi boblarni qo'shdi va bu asarni

[1] Очилов М. Муаллим қалб меъмори. – Т.: "Ўқитувчи" 2001, 364-бет.

“qisqargan SindiHind” (“Algorizmi Hind Hisobi Haqida”) deb atadi. Mazkur asar faqat SHarqdagina emas, Evropada Ham qo’llanma sifatida shuHrat taratdi. U Hindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo’pol sanoq usullaridan foydalanib kelingan. O’nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o’zgarish deb ta’riflanadi. Evropaga 1,2.3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va nol yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko’rsatish H-H1 asrlarda arablardan kirib kelgan.

Muhammad al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo’lgan qo’shish, ayirish, bo’lish Hamda ko’paytirish qoidalarini yaratgan. SHuningdek, turli “jins”dagi sonlarni ko’paytirish algoritmini Ham bergan. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko’paytirish uchun, avvalo bir hil shaklga keltirish, ya’ni, sekund yoki minutga aylantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko’rsatgan. Mahsus bobda kasr va ildizdan chiqarish amallarining moHiyatini bayon etgan.

Muhammad al-Xorazmiy o’zining falakiyotga doir ishlarida Hindlarning falakiyot jadvallarini taHlil etib, “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

Ma’lumotlarga ko’ra VIII-XV asrlarda Hammasi bo’lib, yuztacha zij (trigonometriya va falakiyotga oid) jadvallar mavjud bo’lgan. Bu zijlar orasida boshqa olimlar bilan birga Muhammad al-Xorazmiy tuzgan zijlar Ham bor edi. Bu kitob Ham bir necha asrlar bu soha olimlariga qiziqish uyg’otadi va 1126 yilda latinchaga tarjima qilinadi. Arab tilida birinchi yozilgan sinuslar va tangenslar ziji Xorazmiyga taalluqli. Tadqiqotchilar fanda tekis, uchburchak trigonometriyasi va sferik uchburchak trigonometriyasini tadqiq qilish Ham Xorazmiydan boshlangan deyishadi. Uning sinus zijlari latin tiliga o’girilib, Evropa falakiyotchi va geodez olimlariga qo’llanma sifatida hizmat qildi. Allomaning bu asari XII asrda latin tiliga tarjima etilib, bir necha asr davomida undan foydalanib kelindi. Bundan tashqari “Kitob surati-l-ard” (“Evropa surati kitobi”) birinchi yozilgan geografiyaga oid kitob sanaladi. Bu asar xaritani tavsiflagan asardir. Asar Muhammad al-Xorazmiyning ko’p yillik olib borgan tekshirish-kuzatish ishlarining natijasi edi. Alloma sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaHarlarning xaritalarini chizadi, nomlar ro’parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko’rsatadi. U geografiyaga oid asarlarida erni etti iqlimga bo’ladi Hamda erning xaritasini chizadi. Olimning to’rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, YAqin va o’rta SHarq halqlari xaritasi) saqlanib qolgan[1]. Uning yuqoridagi asari Ham SHarq va g’arbda katta Hamiyatga egadir.

827 yilda Xorazmiy raHbarligida er kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida er meridianining bir gradusi o’lchab chiqildi. Bag’dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar Ham Xorazmiyga tegishli bo’lib, unda sinus, tangeneslarning o’zgarish qonuniyati ko’rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o’sha davr jadvalaridan farq qilgan.

Muhammad al-Xorazmiyning tarih va musiqaga oid, quyosh soatlari to’g’risida Ham asarlari bo’lib, “Tarih kitobi” (“Kitob at-tarih”) xalifalik tarihiga oid va xalifalikning birinchi tarihchilaridan sanaladi.

SHuni ta’kidlash joizki, alloma o’zigacha bo’lgan ilmiy bilimlarning asosiy g’oyalari, tamoyil va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o’rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e’tiborni qaratdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shahsiy kuzatishlariga Hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to’plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko’nikmalarini Hosil qilishga katta baHo berdi. Masalan, “Al-kitob al-muhtasar fi Hisob al-jabr va-l muqobala” asarida olimlarni uch guruHga bo’lib shunday yozadi: Ulardan biri o’zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o’zib ketadi va uni o’zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi.

Boshqasi o’zidan avvalgilarning asarlarini sharHlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo’lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. YOki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to’playdigan odam bo’lib, u o’zidan avvalgilar Haqida yahshi fikrda bo’ladi, takabburlik qilmaydi va o’zi qilgan ishidan mag’rurlanmaydi.

Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka hizmat qilishini yoritsa, ikkinchi tomondan, o’sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o’qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko’rsatadi.

Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy Ham ko'rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala Hisobi Haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va Har qanday bitimlarda, shuningdek, er o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'hshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir"[1].Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "sezgi" orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish esa Haqiqiy bilimning muHim tomonini namoyon etadi.Muhammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muHim Hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy ob'ektlarning Harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida echishni ishlab chiqdi). U matematik g'oyalar asosida odamlarning Hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asosladi. Masalan, er ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo'lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jiHatlariga katta apamiyat berdi.

XX asrning 70 - 90 yillarida xalq ta'limi va pedagogik fikrlar.

70 - 80 yillarda ham ta'lim tizimida muhim o`rinni egallagan umumiy ta'lim maktablari davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qilardi. 1972 yili hukumat tomonidan "Yoshlarni umumiy o`rta ta'limga o`tkazishni tugallash va umumiy ta'lim maktablarini yanada rivojlantirish to`g`risida". Yoshlarni umumiy o`rta ta'limga o`tkazish 1975 yilga kelib tugallandi.

1975 - 76 o`quv yilida O`zbekiston qishloq va shaharlariga 9642 ta umumta'lim maktabi bo`lib, ularda 38028 ming o`quvchiga 237,5 ming o`qituvchi saboq berdi.

Shu o`quv yilida 42 ta oliy o`quv yurtida 246,4 ming talaba ta'lim oldi, ularda 400 fan doktori va 5 mingdan ortiq fan nomzodlari mehnat qildilar.

Maktabgacha tarbiya muassalariga 900 mingdan ortiq bola jalb etilgan.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy muassalarga 440 mingdan ortiq bola tortildi.

80 yillarga kelib jamiyatning ko`p sohalardagi kamchiliklar ko`zga tashlanib, keng ko`lamda qayta qurish ishlari boshlab yuborildi.

Hukumatning "Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari" 1984 yil ma'qullandi.

O`zbek pedagogikasi butunlay o`sishdan to`xtab qolmadi.

Ko`plab olimlarimiz uni yuksalishi yo`lida tinmay mehnat qildilar. 70 yillarda o`zbek pedagogikasi ravnaqi uchun ayniqsa, Siddiq Rajabov (1910-1993) fidoyilik ko`rsatadi. Ilmiy tadqiqot va Nizomiy nomli TDPI da ishlaydi. "O`zbekiston maktablari tarixi" mavzusida doktorlik disertatsiyasini himoya qiladi. "Pedogogika fani taraqqiyotining ba'zi masalari", "Tarbiya va o`qitishda klassik ta'limot", "Oliy ta'lim didaktikasi" kabi o`nlab asarlari nashr etiladi.

Pedogigika fani rivojiga Malla Ochilov (1931) katta hissa qo`shdi. Uning "O`qituvchi odobi", "Studentlarning axloqiy tarbiya jarayoni", "Bo`lajak o`qituvchini axloqiy shakllantirish", Studentlarning ilmiy tadqiqot ishlari" kabi risolalari mashhurdir, u chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini 1- bo`lib o`zbek tiliga tarjima qilgan.

Nazorat savollar:

1. Pedagogika tarixi fani predmetini izohlab bering.?
2. Pedagogika tarixi fanining maqsadi nimadan iborat?
3. Pedagogika tarixi fanining vazifalari nimadan iborat?
4. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va qanday manbalarga ega?
5. Pedagogika tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini izoxlab bering?
6. Pedagogik fikr va g'oyalar rivojining tarixini izohlab bering?
7.IX-XI asrlar – Sharq Uyg'onish davri.
8.Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.
9.Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta'lim haqida. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiyaxloqiy fikrlar rivoji.
10.Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandnoma asar sifatida.
11.Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.
12.XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
13.Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi.
14.V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati.
15.Turkistonda rus maktablarining ochilishi.
16.Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. - T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki.- T.: TGPU, 2014.

3-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYA JARAYONLARI

Asosiy savollar

1.Ta'lim sohasidagi islohotlar, modernizatsiyalash va integratsiyalash jarayonlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

2.Uzluksiz ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati

Kalit so'zlar:ta'lim, islohot, modernizatsiya, integratsiya,uzluksiz ta'lim, "uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim shakllari, hayot davomida ta'lim olish, innovatsion jamiyat, "El-yurt umidi" jamg'armasi.

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

Sh.M.Mirziyoyev

1.Ta'lim sohasidagi islohotlar, modernizatsiyalash va integratsiyalash jarayonlari.

Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga extiyoj ortib boradi. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot soxalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan xolda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Ta'lim-tarbiyaning "sovetcha" modeli o'rnida yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya soxasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan xolda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim soxasiga yangi innovatsiyalarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmokda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmoqda. Masalan, ta'lim sohasida innovatsiyalarni joriy etishga bo'yicha O'zbekiston Respublikasini ikkinchi o'rinni olganligi ham bunga dalildir[1].

Mustaqillik yillarida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun[2], "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi[3], Kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilib, yangicha dunyoqarash, g'oya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo'lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta'lim-tarbiya soxasida muhim o'rin to'tadi. Bu borada e'tibor berilishi zarur bo'lgan vazifalar sifatida qo'yidagilarni aytib o'tish mumkin.

Birinchidan,mamlakatimizda demokratik jamiyat ko'rish vazifalarini amalga oshirishda ta'lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim rol uynaydi.

Ikkinchidan, globallashuv davrida o'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o'zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar quyiladi. Boshqarish - bu yo'naltirish, vazifa quyish, o'rganish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashni hamda maslaxat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish, ko'rsatma berishlari o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyada donishmand va mo'tafakkirlarning, xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyaiga ega.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar tinglovchilar yoshlar oldiga ham muhim vazifa kuyadi. Ular izlash, keraqli bilimlarni mustaqil kidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq.

Umuman olganda globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon kuyayotgan talablarga javob berishi, undan orqada kolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qo'rish vazifalarini amalga oshirishda xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim soxasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya soxasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” dasturidan yoshlarimizni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o‘rin egallashi tabiiydir. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun o‘y-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo‘yicha boshlangan ishlarimizni yangi yuksak bosqichga ko‘taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bug‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[4] deb alohida ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o‘zining “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli Tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Birinchi vazifa - maktabgacha ta'lim soxasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim soxadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu soxada bolalarni kamrab olish 27 foizni tashkil etadi.

Tasdiklangan dasturga ko‘ra, bu yo‘nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan xolda, o‘quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli soxalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi.

Ikkinchi vazifa - umumta'lim maktablari, litsey va kasb-xunar kollejlari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qitish sifati bilan bog‘liq.

Zamonaviy o‘quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas.

Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jaxon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari xali sifatli va to‘liq xolda yechilgani yo‘q.

Yana bir muammoni xal etish ham o‘ta muhim xisoblanadi: bu - pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy- ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol kumak beradigan muhitni yaratish zarur.

Uchinchi vazifa - ta'lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlarini oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soxa va har bir xududning zarur mutaxassislarga bo‘lgan talabini to‘g‘ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir.

To‘rtinchi vazifa - nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish.

Bu o‘rinda ikkita asosiy vazifani xal etish zarur: birinchi - ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofik sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning extiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart; ikkinchi - akademiklarni har taraflama qo‘llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Beshinchi vazifa - kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni xal qilishdir. Bu o‘rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jaxon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda.

Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur.

Ana shu vazifani xal etishda turli darsliklarni yaratish, ularni chop etish va moliyalashtirish masalalarida idoralar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik, afsuski, jiddiy tusik bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muxabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi[5].

Mamlakatimizda Ta’lim to’g’risidagi Qonun dastlab 1992 yilda qabul qilingan, 1997 yilda esa yangi tahrirdagisi qabul qilingan edi.

2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasida hozirgi davrdagi amalga oshirilgan islohotlar o‘z aksini topdi.

Qonun loyihasini takomillashtirish davomida 238 ta norma va qoida qayta ko‘rib chiqildi, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish imkoniyatidan foydalangan holda 123 ta norma loyiha tarkibidan chiqarildi hamda 54 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi modda bilan almashtirildi. Shuningdek, ma’muriy byurokratik mexanizmga doir 7 ta modda butunlay chiqarib tashlandi.

Mazkur Qonunda ushbu yangi norma va qoidalar o‘z aksini topishi natijasida qonun 11 bob va 75 moddadan iborat tartibda ishlab chiqildi.

1-bob. Umumiy qoidalar.

2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari.

3-bob. Ta’lim tizimini boshqarish

4-bob. Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish.

5-bob. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

6-bob. Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

7-bob. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.

8-bob. Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditasiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta’lim to’g’ridagi hujjatni tan olish, ta’lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo’yish.

9-bob. Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash.

10-bob. Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik.

11-bob. Yakunlovchi qoidalar.

2. Uzluksiz ta'lim tizimining o‘rni va ahamiyati

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ba'zi bir manbalarga ko‘ra, ta'limning uzluksizligi to‘g‘risidagi ilk g‘oyalarni ba'zi bir G‘arb tadqiqotchilari hatto Suqrot, Aflotun, Aristotel va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o‘xshash g‘oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim g‘oyasining paydo bo‘lishi o‘z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo‘lgan. Umuman, bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi XIX asrdagi sanoat inqilobi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar oqibati bilan bog‘liq.

“Uzluksiz ta'lim” konsepsiyasi birinchi marta YuNeSKOning 1965 yildagi forumida taniqli nazariyotchi P. Langrand tomonidan o‘rtaga tashlanib sezilarli darajada nazariy va amaliy rezonansga sabab bo‘ldi va natijada o‘tgan asrning 60 yillari oxiriga kelib mazkur ibora ilmiy tahlilning maxsus predmetiga aylandi. Uzluksiz ta'limni xalqaro darajada o‘rganishning ustuvorliklari o‘z ichiga ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlovchi uzluksiz kasbiy ta'lim, qo‘shimcha ta'lim, kattalar ta'limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta'limini va iqtisodiy modellarni qamraydi[6].

Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo‘shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovsiy, N.V.Vasilenko, S.M. Vishnyakova, V.I.Ilina, O.M. Nikandrov, V.I. Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o‘tish mumkin.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtai nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko‘p uchraydiganlari: “uzluksiz ta'lim-butun hayot davomida egallaydigan ta'lim”, “uzluksiz ta'lim - kattalar uchun ta'lim”, “uzluksiz ta'lim - bu uzluksiz kasbiy ta'lim” kabi iboralar qo‘llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida “davom etuvchi ta'lim”, “hayot davomida o‘qish”, “doimiy o‘qish” iboralari keng qo‘llaniladi.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o‘zaro boyitish usuli hisoblanadi.

Bu, eng avvalo, bilimlarni egallash va o‘rganib olishni talab etadi. Yuneskoning “Ta'lim – yashirin xazina” (“Learning: The Treasure Within”) deb nomlangan XXI asr uchun ta'lim bo‘yicha xalqaro komissiyasining ma'ruzasida ilmiy taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllari butun hayot davomida o‘qishni talab etayotgani alohida ta'kidlanadi.

1.Bilishga o‘rganish. Bu shaxsning keng umumiy madaniyatini fanlarning cheklangan sohasida bilimlarni chuqur egallashni nazarda tutadi. Shaxsning umumiy madaniyati ta'lim olishni rag‘batlantiradi, uning bilimini muttasil oshirib borishga o‘rgatadi. Bu, shuningdek, uzluksiz ta'lim tug‘dirgan imkoniyatlardan foydalangan holda o‘qishni o‘rganishni ham ko‘zda tutadi.

2.Ishlashni o‘rganish. Har bir shaxs faqat kasb malakasini egallabgina qolmasdan, ayni paytda turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va jamoa bilan birga ishlay olish ko‘nikmalarini

shakllantirgan kompetentlikka ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, shaxs hayoti davomida duch keladigan turli ijtimoiy yoki ishlab chiqarish muhitida mehnat faoliyatini amalga oshirishga ham o‘rganishi kerak.

3.Birgalikda yashashga o‘rganish. Umumiy loyihalarni amalga oshirish, hur fikrlilik, o‘zaro anglashuv, kelishish qadriyatlarini hurmat qilgan holda mojaroli vaziyatlarni hal qilishda bevosita ana shu fazilat asqotadi.

4.Yashashni o‘rganish. Bu o‘z shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrga ega bo‘lish, shaxsiy mas'uliyat demakdir. Shuning uchun ta'limda insonning ushbu fazilatlarini rivojlantiradigan barcha vositalardan: xotira, mushohada yurgizishga qodirlik, estetik did, jismoniy imkoniyatlar, aloqa qilishga qodirlik va hokazolardan samarali foydalanilishi lozim.

Umuman olganda, uzluksiz ta'lim shaxs va jamiyatning mos ehtiyojlari davlat va jamiyat institutlari va tashkiliy ta'minlovchi tizim orqali shaxsning butun hayoti davomidagi ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatining o‘sish jarayoni bilan kechadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi. Ta'limning turlariga o‘z navbatida maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar qayta tayyorlash va malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'limni kiritish mumkin.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin jahon hamjamiyatinining teng huquqli sub'ekti va ajralmas bir qismi sifatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, strategik rivojlanish, jahon hamjamiyatiga qo‘shilishni ta'minlaydigan demokratik kuchli huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda.

1997 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashning huquqiy asoslarini yaratdi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanish omillaridan biridir.

O‘tgan yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko‘maklashdi. Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari

darajasiga ko‘tarildi. Biroq, o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda[8]. Shu bilan birga, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko‘rsatdi[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 8 oktyabrdagi F4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o‘rganish natijalariga ko‘ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o‘quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Oliy ta'lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiyta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti[10].

Tahlillarning ko‘rsatishicha, oxirgi yillarda o‘qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko‘rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog‘lanmagan.

Aholi turli toifalarini “Hayot davomida ta'lim olish” prinsipi bo‘yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo‘lib qolishiga olib kelmoqda[11].

Shu bilan birga, islohotlar amalga oshirilgan yillarda umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o‘tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko‘rsatdi[12].

Umuman olganda, kasb-hunar ta'limining obro‘si hamda o‘qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi hozirgi zamon talablari darajasida emas.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida samarali o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Respublikamiz ta'lim tizimi amaliyotidagi mavjud muammolar hisobga olingan holda hamda ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o‘rta ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini belgilangan rejalar amalga oshirish maqsadida.

2018 yil 17 iyul kuni O‘zbekiston Prezidenti huzurida ta'lim tizimi rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda inson resurslarini rivojlantirish poydevori bo‘lgan, yoshlarda bilim, dunyoqarash va

ma'naviyat asoslarini shakllantiruvchi umumiy o‘rta ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalari muhokama qilindi.

Bugungi kunda respublikada 9,7 ming maktabda jami 5,2 million o‘quvchi ta'lim olmoqda. Bu aholining 16 foizini tashkil etadi, o‘quv-tarbiyaviy va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda. Biroq so‘nggi 20 yilda asosiy e'tibor kollej va litseylarga qaratilib, umumta'lim maktablari faoliyatini zamon talablariga javob beradigan yaxlit bir tizimga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarsiz bo‘lgan.

Yig‘ilishda maktablarni moliyalashtirishga ikkinchi darajali masala sifatida qaralib, ushbu tizimga byudjet mablag‘lari «qoldiq» usulida ajratib kelinganligi, ayniqsa xalq ta'limi tizimi xodimlari yillar davomida o‘z faoliyatiga xos bo‘lmagan boshqa ishlarga muntazam jalb qilinib, tom ma'noda «tekin xizmatkor» ga aylanib qolganligi keskin tanqid qilindi.

Bu kabi holatlar maktablarda erkak o‘qituvchilarning kamayishiga ham sabab bo‘lib, hozirgi kunda maktablarda erkak o‘qituvchilar 30 foizni, Toshkent shahrida esa 10 foizni tashkil qilishi qayd etildi.

Shuningdek, o‘qituvchilar o‘z ustida ishlab, bolalarni fanlarga qiziqishini oshirish o‘rniga, maktabning kam-ko‘stini yopish uchun o‘quvchilar ota-onalaridan pul yig‘ish, tinimsiz tekshirishga kelayotgan turli komissiyalarni «tinchitish» bilan ovora bo‘lib qolganligi, maktablarda davomat tushib ketishi, o‘quvchilarning ko‘cha-ko‘yda qarovsiz holda yurishi, hattoki bezorilarga va turli zararli oqimlarga qo‘shilishi holatlariga olib kelganligi tanqidiy muhokama qilinib, ta'sirchan chora-tadbirlar belgilash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlat rahbari Jahon banki rahbariyati bilan uchrashuvda «inson kapitali»ga sarmoya kiritishni ko‘paytirish masalasi muhokama qilinganligi hamda avvalgidek «arzon ishchi kuchi bo‘lsa, chet el sarmoyasi keladi» degan siyosat hozirgi zamon talabiga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligini alohida ta'kidlab, tegishli topshiriqlar berdi.

Prezident dunyoda ilmiy-texnik rivojlanish va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashish darajasi oshayotgani sababli past malakali ishchi kuchiga ehtiyoj kamayib borayotganligini, jumladan, Xitoy ham aynan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'limga qattiq e'tibor qaratib, katta sarmoyalarni yo‘naltirayotganligini alohida ta'kidladi.

Sababi jahon va mamlakatimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar va innovatsion o‘zgarishlarning rivojlanishi mos ravishda jamiyatda ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalashni talab etadi. Uzluksiz ta'lim butun ta'limdagi o‘zgarishlarni shakllantiruvchi tizim sifatida, mehnat bozorida mutaxassislarning malakasi va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishini belgilovchi va umuman iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish darajasini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta'limning rivojlanishi shuningdek, ilmiy-texnik jarayonlar, informatsion texnologiyalarni joriy etish va innovatsion o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Innovatsion jamiyatning o‘ziga xos xususiyati o‘zida har xil yosh kategoriyasidagi insonlar bilimini doimiy tizimli ravishda to‘ldirib borish va kengaytirishni ta'minlaydigan hayot davomida va bosqichma-bosqich jarayondan iborat bo‘lgan uzluksiz ta'lim hisoblanadi[13]. Uzluksiz ta'limning maqsadi bilimlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bo‘g‘inining ajralmas bo‘g‘ini sifatida insonning o‘zgarishlarga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, kasbiy hayot, madaniyat, jamiyat va hokazolarga moslashish qobiliyatini mustahkamlash sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Ta’limning qaysi turlari majburiy hisoblanadi?
2. Ta’limning qaysi turlari majburiy emas?

3. Mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadian tayanch oliy ta'lim bu qanday ta'lim hisoblanadi? Uning mohiyatini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidago Qonuni" 2020-yil
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
4. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
5. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 sonli Farmoni.
6. Pedagogika// M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

4-MAVZU: PEDAGOGIK JARAYONDA TARBIYANING MAZMUNI

Asosiy savollar:

1.Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.
2.Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Darsning maqsadi: Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning roli, uning mazmuni va turli shakllari haqida ma'lumot berish orqali yoshlarda aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiya tushunchalarini shakllantirish

Kalit so'zlar:maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, Ekologik , iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

1.Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.

Bundan o'n yil oldingi davrda yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan bugungi kundagi bu masalaga tegishli munosabat o'rtasida katta farq borligi hech kimga sir emas.

Shuning uchun ham tarbiyaning aniq maqsadini belgilab olish pedagogikaning birinchi masalalaridan hisoblanadi. Yosh avlodni qanday ruhda tarbiyalash, bunga erishish uchun qaysi yo'lni tanlash tarbiya maqsadi muammosini hal qilish bilan belgilanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayotning hayotiy va uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy xarakterga ega bo'lib kelgan.

Qadimgi Gretsiyada tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda yaxshi fazilatga ega fuqaroni, vatanparvarlikni, jasurlikni, sadoqatni, do'stlikni rivojlantirish bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib, ya'ni feodalizm davrlarida yosh avlod diniy e'tiqod, iymon, axloqqa ega bo'lishi kerak bo'lgan, Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirgan.

Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi.

Bizning hayotimizga qizil imperiya kirib kelishi bilan kommunistik mafkura yoshlarimizning tarbiyasida bosh maqsad bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunga qadar uning ruhiy asoratlaridan to'liq

qutildik deb bo'lmaydi. Chunki u 70 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bu davrda bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lsak-da, lekin juda ko'p narsadan ham judo bo'ldik. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimiz, diniy e'tiqod va iymonimiz kabi ko'plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan uzoqlashib ketdik.

Mustaqillik sharofati bilan Erkinlikka erishdik, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga erishdik. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta bugungi kun yoshlariga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama etuk, ma'naviyatli etib tarbiyalash lozim.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qancha asarlarida, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa manbalarda Respublikamiz yoshlarini qanday insonlar etib tarbiyalash lozimligi aniq belgilab berilgan. Pedagogika bugungi kun hayotimiz talablaridan kelib chiqqan holda o'z tarbiya maqsadi va vazifalarini belgilab olgan.

Tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining meroslari dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Al- Forobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, A.Temur, A.Navoiy, Bobur singari jahonga taniqli bir necha aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish – bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson emas. U ko'plab, oylab, yillab, sabr-toqat, chidam va qat'iyatlilik, iroda talab etadi.

Hozirgi paytda juda ko'plab iqtidorli yoshlarimiz oliy maqsadlarni ko'zlab chet ellardagi nufuzli o'qishlarda tahsil olmoqdalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh etib , Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlashni oliy maqsad qilib qo'ydi. Bunday inson, kasb-hunar egasi oilada, maktabda va boshqa ta'lim tizimi jabhalarida ta'lim-tarbiya oladi.

Tarbiyada oliy maqsadga erishish uchun, ma'lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo'ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin.

Aqliy tarbiya - bu barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirish uchun maqsad qilib qo'yadi.

Ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish dolzarb muammolardan sanaladi. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi.

Hadis kitoblarida, mutafakkirlarimiz ijodlarida ilmning har bir mo'min musulmon uchun naqadar zarurligi bayon etilgan. Bunga ko'plab Hadislarni misol etish mumkin: «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar...», «Ilm olmoqqa intilish ham har bir muslim-muslima uchun qarzu farz» deyiladi. Yusuf Xos Hojib, A.Navoiylar ham o'z asarlarida ilmni inson uchun o'ta qadrlaydilar. Demak, o'quvchilarni ilm olishga da'vat etishimiz lozim. Aqliy tarbiya o'quv rejasi asosidagi fanlarni o'qitish orqali ilmiy dunyoqarash negizida amalga oshiriladi.

O'quvchilarga aqliy tarbiya berishda birinchi navbatda uning fikrlash, his qilish, tasavvur, idrok, xayol, xotira qobiliyatlarini o'stirish, ichki dunyosini ma'naviy jihatdan boyitish haqida o'ylamoq lozim.

Axloqiy tarbiya – bu o'quvchilarda jamiyatga, Ona-yurtiga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish jarayonidir.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning jamiyatga, boshqalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob me'yorlari, qonun-qoidalari majmuasidir. Ana shu hulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deyiladi.

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda o'zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur'oni karimda va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma'naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi fikrlari bugunga qadar ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirish vositasidir.

Mehnat tarbiyasi – bu tarbiyaning oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib borish, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir.

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga, tEran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishlash madaniyati, barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishidan, axloqiy buzilishidan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zini, o'z qadrini biladi, uni el-yurt ulug'laydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdir.

Estetik tarbiya – o'quvchilarda san'atga, tabiatga, hayotga nisbatan estetik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir. Estetika lotincha «Esteticos» – his etaman degan ma'noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg'usiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni tabiat, jamiyat va san'atdagi go'zalliklarini idrok etish, uni to'g'ri tushunib etish, qadriga etishga, hayotga qayta go'zallik olib kira olishga o'rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.

Biz nafaqat narsa va hodisalar, balki insonning hulq-atvori, fazilatlarini ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. U insoniy go'zallik, aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo'stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hokazo sifatlarni o'zida namoyon qiladi.

Estetik tarbiya go'zallikdan zavqlalanishga, xunuklikdan nafratlanishiga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o'rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san'at voqeliklarda uchratish mumkin.

Huquqiy tarbiya – bu o'quvchilarni rivojlangan demokratik davlat qonun-qoidalari asosida shaxs haq-huquqlari me'yorlari bilan qurollantirishga qaratilgan jarayondir.

Biz demokratik davlat barpo etmoqdamiz. «demokratiya- bu adolat degani». Demak adolatli davlat qurmoqdamiz. Bunday mamlakatda har tomonlama etuk, o'z xaq-huquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan kishilar yashaydilar. Bugungi kundagi yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan siyosat va inson huquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qilayotgan, o'z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan qilib tarbiyalashiyalashimiz lozim.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda atrof-muhitga, tabiatga nisbatan Ekologik munosabatlarni shakllantirish jarayonidir. «Ekologiya » - yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir.

Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning Ekologiya madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudotlarning yashash sharoiti, muhiti, qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo'shadi. U atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog'lomlashtirishga hissa qo'shadi.

Iqtisodiy tarbiya – bu o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarda iqtisodiy tarbiya tejamkorlik, mehnatsevarlik,

tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.

Iqtisodiy tarbiya–maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o'quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko'plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, Vatan mudofasiga tayyorlashdir. Jismoniy tarbiya mazmuniga ko'ra bola organizmi ichki a'zolari funktsiyasi faoliyatini boshqarish, o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, gigiena qoidalariga ko'nikashini tarkib toptirish, mohirliklarini o'stirish, mehnat qilish qobiliyatlarini oshirish, ularda iroda, chidamlilik qat'iyan intizom, do'stlik his-tuyg'ularini kamol toptirish, jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Barkamol inson nafaqat ma'naviy jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham etuk bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yana bir tarkibiy qismidir.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va vatanimiz himoyasi uchun qo'rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol aslohatlardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi.

O'quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida amalga oshiriladi.

2.Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda ob'ektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab etakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan

bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etidi:

1. aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
2. ko'p qirrali jarayon;
3. uzoq muddatli jarayon;
4. yaxlit tizimlilik jarayon;
5. ikki tomonlama aloqa jarayoni;
6. qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Nazorat savollar

1.Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

2.Shaxsan Siz tarbiyaning vazifalarini qanday tushunasiz?

3. Tarbiyaning turlarini tasvirlab bering.

4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

5. Tarbiya mazmuni, maqsadi, usullari va shakllarining bog'liqligi qonuniyatini og'zaki sharhlab bering.

7.Turli sinf o'quvchilaridan bir qancha yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini tarbiya

qonuniyatlariga qanday darajada amal qilinganligini tahlil qiling.
8.Tarbiya qonuniyatlari bilan printsiplari orasidagi bog'lanishni izohlang.
9.Tarbiya qonuniyatlariga amal qilmasdan yashagan kishilarni bilasizmi? Ularning turmush tarzi, jamoatchilik orasidagi o'rni haqida misollar keltiring.

5-MAVZU: TARBIYA JARAYONINING SHAKLLARI VA METODLARI

Asosiy savollar:

1.Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2.Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.
.

Dars maqsadi: talabalarga tarbiya metodlari haqida tushuncha berish, inson faoliyatida metodlarning ahamiyatini uqtirish, shaxs kamolotida tarbiya metodlarining ta'sirini sezishga o'rgatish.

Kalit so'zlar: Tarbiya metodlari, tushuntirish, mashqlantirish, namuna, nasihat qilish, qoralash, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholash, izohlash, munozara, topshiriq, pedagogik talab, rag'batlantirish.

1.Tarbiya metodlari haqida tushuncha.

Tarbiya inson hayotida muntazam amalga oshib boradigan jarayondir. Tarbiyaning samarali bo'lishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining faoliyatiga hohish –irodasiga, qanday sharoit va vositalarning ta'sirida ruyobga chiqishga bog'liqdir. Ayniqsa tarbiya qanday usullar bilan amalga oshirilganligi, uni berishda qanday yo'l tutilganligi nihoyatda muhimdir.

Pedagogikada tarbiya berishning yo'li va usullari «metod» deb hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida «metxos» so'zi bizning tilimizda «usul», «yo'l» degan ma'noni anglatadi.

Inson har qanday faoliyat to'rini o'ziga xos metodlar orqali bajaradi. Tarbiya ham inson faoliyatining ko'p qirrali va murakkab turlaridan biridir. Shuning uchun pedagogika fanida xilma –xil tarbiya metodlari jamlangan va ilmiy asoslangan.

Tarbiya metodlarini ta'riflashda har –xil yondashuvlar mavjud.

«**Tarbiya metodlari** –tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yig'indisidir». Uning samarali ta'sir etishi uchun tarbiyachining yuksak mahoratidan tashqari, tarbiyalanuvchining yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirning muhimligi e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda tarbiyalanuvchining o'zi u yoki bu metodlardan foydalangan holda xulq –atvorini o'zgartiradi, yoki tarbiyaga soladi. Demak, tarbiya metodlari nafaqat tarbiyachi tomonidan, tarbiyalanuvchilarning o'zlari tomonidan ham mustaqil qo'llanishi mumkin ekan.

Tarbiya metodlari alohida, yoki bir necha metod bilan birgalikda qo'llanishi kuzatiladi. Bunda bir metod asosiy ta'sir usuli bo'lsa, boshqalari yordamchi usul vazifasini o'taydi. Yosh bolalar bilan ishlashda bu hol yaxshi natija berish isbotlangan. Tarbiya jarayonida metodlar almashtirib turilsa tarbiyalanuvchi uchun odatdagi holga aylanmasa uning natijasi samarali bo'ladi.

Tarbiya metodlaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun ularning ta'sirini orttiruvchi vositalar va shakllaridan ham ustalik bilan qo'llaniladi. Tarbiya vositasi sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy ijod, tasviriy san'at, me'morchilik, ma'naviy qadriyatlar va an'analar xizmat qiladi. Tarbiyaviy ta'sir shakli sifatida uchrashuvlar, munozaralar va muhokama, mehnat tarbiyalari, o'yinlar, marosimlar va boshqalarni hisoblash mumkin. Ayrim manbalarda bu vosita shakllarini tarbiya usuli deb ham sanashadilar.

Tarbiya metodlari juda ko'p xilma –xil bo'lib, yoshlarni tarbiyalashda ularni to'g'ri tanlash, mohirlik bilan foydalanish hamda almashtirib turish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya metodining kim tomonidan qo'llanishi ham ahamiyatlidir. Aynan bir metod ota –ona, aka –uka, o'qituvchi, sinf rahbari, maktab direktorlari tomonidan qo'llansa turlicha natija berish mumkin. Shuning uchun ham metodlar toifalashtirilishi, tasnif etilishi, ulardan foydalanishni qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

2.Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.

Pedagogika fani o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida juda ko'p tarbiya metodlarini ilmiy asoslari va amaliy faoliyatida qo'llashni ma'qul yo'llarini ishlab chiqadi.

Bunday tarbiya metodlarining tasnif etilishi. Tarbiya amaliyoti bilan shug'ullanuvchi kishilarning faoliyatini engillashtiribgina qolmasdan samaradorligini oshirishga barakali hissa qo'shib kelgan. Tarbiya metodlarining tasnifi deganda har bir metodning qanday maqsadda qaratilganligi qanday vazifalarni bajarishi, qanday natija berishi, ta'sir kuchi va mohiyatiga ko'ra toifalarga ajratish tushuniladi. Bir toifaga kirgan metodlar tarbiyalanuvchi shaxsda ma'lum bir yo'nalishdagi tarbiyaviy ta'sirni amalga oshiradi. Masalan, tarbiyalanuvchini ongida, tushuncha, ishonch, e'tiqod tarkib toptirish, yoki xulq – atvorini xatti- harakatini, odatlarini shakllantirish, yoki ijobiy fazilatlarini bajarishga yo'naltirish, sabab bo'lish va hakozo.

Pedagogika fanida har xil tasniflar mavjud bo'lib olimlar barcha metodlarni ichki toifaga, ya'ni ijtimoiy ongni tarkib toptirish va faoliyatni shakllantirish guruhlariga ajratgan yana bir guruh olimlar tarbiya metodlarini 3 toifaga bo'lgan. Ular yuqoridagi ikki guruhga uchinchi qilib, ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi metodlarni qo'shganlar. Bu tasnif keng tarqalgan tarbiya metodlarini nazariy hamda amaliy tadqiq etishda tegishli natijalarni ko'rsata olgandir. Ammo tarbiya metodlarini tugal qamrab olish uchun o'z - o'zini tarbiyalash metodlari etishmaydi. Bizningcha, mana shu metodlarni to'rtinchi guruhi qilib ko'rsatgan olimlarning ta'limotiga qo'shilish o'rinlidir.

Shunday qilib, tarbiya metodlarini tasnif qilganda quyidagi to'rt toifaga ajratish ma'qul ko'rinadi, ijtimoiy ongni shakllantirish tarbiyalanuvchi faoliyatini tarkib toptirish, ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi (sabab bo'luvchi) metodlar, o'z- o'zini tarbiyalash metodlari.

Nazorat savollar:

1.Tarbiya metodlarini o'rganib, amaliy tajribangizda sinab ko'ring.
2.Tarbiya metodlarining shaxs kamolotidagi o'rnini izohlang.
3.Tarbiya metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganing.
4.Har bir tarbiya metodini amalda tatbiq etib ko'rishni o'rganing.
5.Har bir tarbiya metodini boshqa metodlar bilan amalda taqqoslang.
6.Tarbiya metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini amalda aniqlang
7.Jamoa nima?
8.O'quvchilar jamoasining ishlab chiqarish jamoalaridan farqi nimada?
9.Jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflang.
10.Jamoani shakllantirish bosqichlarini sanang va ularning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtaling.
11.Jamoani tashkil etish metodikasi mazmunini so'zlang.
12.Jamoa an'analari deganda nimani tushunasiz?

6-MAVZU: IJTIMOIY PEDAGOGIKA ASOSLARI

Asosiy savollar

1.Ijtimoiy pedagogikaning predmeti. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari va prinsiplari
2.Oila - milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning muhim instiutlari sifatida.

Dars maqsadi: Talabalarga oila va uning mazmun mohiyatini tushuntirib berish, odobli, axloqli, xushfe'l, mehnatsevar bo'lib ulg'ayishga da'vat etish. Talabalarga oila tarbiyasining omillari va

uning mazmun mohiyatini tushuntirib berish, oilada beriladigan tarbiya maqsad va vazifalarini izohlash.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagog, ijtimoiy yordam, ijtimoiy reabilitatsion xizmat, ijtimoiy pedagogik ish metodlari, analitik, prognostik, loyiha, refleksiya, kasbiy status, empatiya, bilim, ko'nikma, sifat va fazilat, tashxis quyis, bashoratchilik, vositachilik, tugirlash va kayta tiklash, ximoyalash, ogoxlantirish va profilaktika, evristika (ijodiy fikrlash), kategoriya, mexanizm, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv, ijtimoiy adaptatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, pedagogika faoliyat, Individual yordam.oila, xushfe'l, qon-qarindoshlik, odobli, xushfe'l, mehnatsevar, jamiyat, ma'naviy, taraqqiyot, dunyoqarash, faoliyat

1.Ijtimoiy pedagogikaning predmeti. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari va prinsiplari

Har bir fanni shu fanning o`rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizkmi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida o`z aksini topadi. Tushuncha — real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o`zgaruvchanligi va ko`p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan tavsifga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog`lik, ravishda o`zgaradi.

Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar ana shu fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo`llaniladigan yanada kattaroq,, amaliy tushunchalardir.Hammamizga ma'lumki, pedagogika fanining asosiy kategoriyalariga "ta'lim", "tarbiya", "ma'lumot" singari tushunchalar kiradi. Shu kategoriyalar asosida "shaxs", "rivojlanish", "faoliyat", "jamiyat", "ijtimoiylashuv" singari ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun umumiy bo`lgan tushunchalar qo`llaniladi. So`nggi yillarda «pedagogik faoliyat" kategoriyasi ham keng qo`llanilmoqda. Ijtimoiy pedagogika fani pedagogikaning yo`nalishlaridan biri sifatida "Ijtimoiy pedagogik faoliyat", "Ijtimoiy ta'lim" va "Ijtimoiy tarbiya" singari kategoriyalarga ega. Pedagogika va ijtimoiy pedagogika fani kategoriyalarining bir-biridan farqli jihati quyidagi jadvalda aks etgan.

Pedagogika hamda ijtimoiy pedagogika fani kategoriyalari

Pedagogika	**Ijtimoiy pedagogika**
• ta'lim	• ijtimoiy ta'lim
• o`qitish	• o`qitishning ijtimoiy jihatlari
• tarbiya	• ijtimoiy tarbiya
• pedagogik faoliyat	• ijtimoiy pedagogik faoliyat
	• ijtimoiylashuv
	• ijtimoiy institut
	• ijtimoiy adaptatsiya
	• ijtimoiy reabilitatsiya

Pedagogika faoliyat- bu ta'lim-tarbiya vositasida o`quvchilarga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat- bu bolaning ijtimoiylashuviga, ularga ijtimoiy madaniyat tajribalarini singdirishga, jamiyatda o`z-o`zini boshqarishga sharoitlar yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. U ma'lum shaxsga qaratilgan bo`lib, aniq manzilga yo`naltirilgan faoliyatdir. Ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi xususiyatlarga ega.

▪ Ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat,

▪ bolalar tashkilotlaridagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat,

▪ bolalarning ijodkorligini oshirish va dam olishini tashkil etishga mas'ul tashkilotlardagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy yo`nalishlari qo`yidagilar hisoblanadi.

▪ dezadaptatsiyaga uchragan bolalarni profilaktika qilish,

▪ ijtimoiy me'yorlardan chekingan (o`qish) bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish .Bu ishlar ikki shaklda amalga oshiriladi:

1.Bevosita bolaning o`zi bilan olib boriladigan ishlar.

2.Bolaning ijtimoiy muhit bilan aloqasida vositachilik qilishi.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo`lgan ijtimoiy ta'lim kategoriyasi ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, ijtimoiy ta'lim-bu bolaning ijtimoiylashuviga yordam beruvchi ijtimoiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy ta'lim-bu ijtimoiy soqada ishlash uchun maxsus tayyorgarlik ko`rish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya esa bolaning ijtimoiylashuviga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya muammolari xususida A.V.Mudrik, V.D.Semyonova, G.N.Filova singari olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy makrm, ijtimoiy xulk.-atvorning me’yor va koidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga ko`nikishiga yordam beruvchi turli ko`nikma va malakalarni uuzlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur’atlar bilan amalga oshadi. Ma’lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o`z aksini topuvchi nihoyatda ko`p bilimlarni oladi.

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me’yorlariga baxo berishi va nazorat qilishining qiyinligidadir. U bularni faqat o`zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxasislarning (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta’siri katta bo`lib, bolalarni, hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq; va yaxshiroq; o`zlashtirishlari, ularni hayotda qo`llashga intilishlari aynan ularga bog`liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog`liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta’lim muassasida ta’lim olish jarayonida bola, avvalo, akademik bilimlarni o`zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda unda muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko`nikma va

malakalar shakllanadi. Bu bilim, ko`nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida — bolaga maxsus yordam kerak bo`lganda — juda zarur bo`ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni yetkazish, ijtimoiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta’lim deyiladi.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiya. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Shu bilan birga, “tarbiya” tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug`aviy ma’nosidan ancha kengdir. Shuni hisobga olib, ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, qadriyatlar, u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko’rib chiqish lozim. Boshqa so’zlar bilan ifodalaydigan bo’lsak ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo’naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruxiy sub’ektlarning uchta o’zaro bog’liq va shu paytning o’zida mazmuni, shakli va usuli jixatidan nisbatan mustaqil bo’lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o’smirlar, o’spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta’lim olishlarini ta’minlash hamda ularga individual yordam ko’rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish gurux (jamoa) larning maishiy va xayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruxdagi o’z- o’zini bopqarish faoliyatini rag’batlantirish va norasmiy mikroguruxlarga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tajriba keng ma’noda turli ko’nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me’yori va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o’z- o’zini anglash, o’ziga ishonch, o’z ijtimoiy xayot yo’lini belgilash va shu yo’ldan borish tushuniladi. Ta’lim o’z ichiga qo’yidagilarni oladi: uzliksiz tizimli ta’lim (rasmiy ta’lim), madaniyatni targ’ib qilish va tarqatish, o’z-o’zini shakllantirishga va mustaqil ta’lim olishga yo’naltirish. Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o’z- o’zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqeini, o’rnini yuksaltirishda namoyon bo’ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo’lgan bilim, malakalarni o’zlashtirishda insonga ongli yordam berish, uning o’z qadrini bilishi, o’z-o’zini anglashi hamda unda oila, gurux va jamiyatga mansublik hissini rivojlantirishdir. Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta’lim va individual yordamning usul, shakl, mazmun, tavsifi va jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi va ularning qaysi ijtimoiy madaniy soxaga mansubligiga bog’lik. Bu jihatlar turli ta’lim muassasalari va tashkilotlarida farqlanib, bu farq tashkilot turiga, unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning amalga oshirayotgan ishlariga bosg’iq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o’zaro munosabat shu jarayonning sub’ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari va qadriyatlar almashinuvidir. Bunday munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko`rinishga ega. Chunki o’zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo’la turib, o’z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruxlarga tegishli ijtimoiy xulqni amalga oshirishadi. - Umuman olganda, o’zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati, bu faoliyatning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, faoliyat ishtirokchilari va ular o’zlarini qay darajada shaxs deb xisoblashlariga bog’liq. O’zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma’naviy bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

“Ijtimoiy” tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog’liq bo’lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Ijtimoiy pedagogika - shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o’rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo’llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham obyekti- bu bola, biroq o’rganish

predmetlari turlicha. Pedagogikaning o’rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, Ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagog va uning kasbiy sifati. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash uzluksnz ta’lim tizimda amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagoglarni kasbiy tayyorlash ikki turdagi o`quv yurtlarida olib boriladi: o`rta kasbiy ta’lim muassasalari (litsey va kollejlar) va oliy kasbiy ta’lim maktablari (Institut va universitetlar).

O`rta kasbiy ta’lim muassasalarida kichik sinflar va maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalar bilan ishlovchi pedagoglar tayyorlanadi. O`rta ma’lumotli pedagoglarning asosiy vazifasi bolalarga kiyin vaziyatlarni yengib o`tishga yordam beradi, bolalarning ishonishiga ko`maklashuvchi faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Bolalarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning ota—onalari bilan xamkorlik qilish, o`z malakasini oshirish maqsadida mustaqil ravishda o`kib borishdan iboratdir. O`rta kasbiy ta’lim bilim yurtini tugatgach ular oliy ta’lim muassasida o`z o`kishini davom ettirishi mumkin.

Ijtimoiy pedagog - faqat o`qituvchigina emas, u bola kanday ukiyotganini va rivojlanayotganini tushunadigan va xis etadigan shaxsdir. U bola xayotini, kechinmalarini xuddi o`zinikidek tushunadigan va uning ma’naviy, madaniy, axlokiy rivojlanishiga yullanmalar bera oladigan mutaxassis bulmogi kerak.SHuning uchun xakikiy pedagog faqat o`z fanini bilibgina kolmay, ayni vaktda bolalar va kattalar bilan ijodiy mulokot kila oladigan, o`z ustida ishlaydigan inson bulishi muxim axamiyatga ega.

Ta’lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o`quvchi inson moxiyatini anglaydi. O`z xayoti dovomida inson to`grisida xosil qilingan tushunchalar asosida mukammal shaxs va xakikiy fuqaro bo`lib yetishadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta’lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funktsiyalarini kengaytiradi, ta’lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyokarashi yaxlitligini ta’minlaydi.

Ta’limni insonparvarlashtirishdan ko`zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, kunikma va malaka, ularning insoniy dunyokarashini shakllantirishdan iborat. U bulajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli soxalarida insonparvarlik g`oyasi va kadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo`lib xizmat kilsin.

Ta’limda xayot tajribasiga ega bulish ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy xayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon xisoblanadi;

- real vaziyatdan kelib chikib, ziddiyatli xolatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chikishni takozo etadi;

- mavjud amaldagi xolatga doim moslashish jarayoni xisoblanadi;

- shaxslararo alokalarni kamrab oladi;

- shaxsning shakllanish jarayonini yunaltiradi.

Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyatining xususiyatlari — "Ijtimoiy pedagog" mutaxassisi "pedagog" so`zidan olingan bo`lib, avvalo o`qituvchi ma’nosini anglatadi. SHu bois mazkur lavozimning joriy etilganidan so’ng aynan o`qituvchilarning birinchi ijtimoiy pedagoglar bo`lgani ajablanarli emas.

Ijtimoiy pedagoglarni kayta tayyorlash buyicha kurslar tinglovchilarining aksariyat kismini xam o`qituvchilar tashkil etadi.

O`z navbatida mazkur mutaxassiliklarning kasbiy faoliyati ularning o`ziga xos xususiyatlarini aniklashga imkon beruvchi bir kator tafovutlarga xam ega. O`qituvchi o`zining asosiy ta'lim berish vazifasini bajarar ekan, yosh avlodga bilim va jamiyat tomonidan orttirilgan ijtimoiy madaniyat tajribasini o`rgatadi. Ushbu jarayonda bola tarbiyalanadi va shakllantiriladi. Ijtimoiy pedagogning dikkat markazida esa bolani jamiyatga moslashib ketishiga yordam berish turadi.

Ijtimoiy pedagog kasbi va uning vazifalari.SHu kunga qadar ijtimoiy pedagogning vazifasini bir—biri bilan bog'liq bo'lgan tibbiyot, sport, mnlitsiya, madaniyat tashkilotlari xodimlariga yuklatilib kelindi. Natijada jamiyat a'zolari ongida bolalar tarbiyasi bilan faqat o'qituvchi va ota-onalar shug'ullanishi lozim degan fikr o'rnashib qoldi. YUrtimizda ijtimoiy ishni kasb darajasiga olib chiqish hamda bu borada mutaxassis kadrlarni tayyorlash jamiyatda tarbiyaviy muammolarni hal etishda insonlarning yashash sharoitini yaxshilashda, eng asosiysi- har bir jamiyat a'zosini ijtimoiy himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagog oldiga qo'yiladigan kasbiy talablar:

• ijtimony axborot berish, ya'ni bolalarga beriladigan ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatish spekgrlari haqida ma'lumot berish;

• ijtimoiy -huquqiy yordam, ya'ni bolalarga, jamiyat a'zolariga o'z haq - huquqlarini anglashga yordam berish;

• ijtimoiy - reabilitatsion xizmat, ya'ni insonldrning ma'naviy –axloqiy, emotsional, ruhiy holatlarinn taklashga yordam berish,

• ijtimoiy- iqtisodiy yordam, ya'ni posobiya, konpensatsiya, nafaqalarni olishda hamkorlik qilish bolalar uylari bitiruvchilariga, yetimlarga moddiy yordam berishni tashkillashtirish;

• ijtimoiy—tibbiy yordam berish, ya'ni bolalarni ijtimoiy patranaj qilish, voyaga yetmaganlar orasida kashandachilik, alkogolizm kabi holatlarni profilaktika va reabilitatsiya qilish;

▪ ijtimoiy-psixologik, ya'ni oilada, turli mikrojamiyatda sog`lom muhitni tashkil etishga yordam berish:

▪ ijtimoiy-pedagogik, ya'ni bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning o`z haq-huquqlarini anglash, ularga sharoitlar yaratish, o`qituvchi va o`quvchi orasidagi ziddiyatlarni hal etish kabilardan iborat.

Ijtimoiy pedagog bu vazifalarni amalga oshirish uchun, albatta quyidagi sohalarda o`z bilimlarini boyitib borishi shart.

▪ milliy istiqlol g`oyasi huquqiy-me'yoriy baza (qarorlar, aktlar, buyruqlar, ko`rsatmalar, tashkilot tuzulmalari va x.k.),

▪ ijtimoiy pedagogikaning tarixi va nazariyasi

▪ yosh davrlar psixologiyasi

▪ sotsiologiya

▪ ijtimoiy-pedagogik ishlarni olib borish hamda rejalashirish metodlari va h.k.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogdan quyidagi malaka va ko`nikmalarga ega bo`lishi talab etiladi:

▪ analitik, ya'ni sotsiumda ro`y berayotgan jarayonlarni nazariy tahlil etish, bolaning ruqiy olamini anglay bilish, ularning muammolarini hal etishga doir hamkorlik faoliyatini tashkil etish;

▪ prognostik, ya'ni tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bo`yicha bolaning muammolarini hal etish yo`llarini bashorat qilish;

▪ loyiqalash, ya'ni ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmunini aniqlash va rejalashtirish;

▪ refleksiv, ya'ni ijtimoiy pedagog o`zining faoliyatini tahlil etib borishi;• kommunikativ, ya'ni ijtimoiy pedagogning insonlararo muloqat madaniyatini egallashi. U boshqalar fikrini eshita bilish, muloqatga kirisha bilish, faktlar to`plash singari faoliyatlarni o`z ichiga oladi.

▪ Kasbiy status-bu kasb kodeksida ko`rsatilib, sub'ektning insonlararo munosabatlar tizimidagi kasbiy holati, huquqlari, majburiyatlaridir.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatlari. Ijtimoiy pedagog asosan xalq ommasi Bilan ishlaydigan shaxsdir. U o`z faoliyati jarayonida turli xarakterdagi insonlar bilan muloqatga kirishishiga to`qri keladi. Bu vaziyatda ular bilan turli xil ziddiyatlarga bormaslik, ularning har birining ko`ngliga, yuragiga kirib borish uchun sifat va fazilatlarga ega bo`lishi talab etiladi: empatiya (dunyoni boshqalarning ko`zi bilan ko`rish, tushuna bilish), xayrihoqlik, ezgulik, to`qrilik, ochiq ko`ngillik, aniq mo`ljal olish, samimiylik, kommunikabellik(boshqalar bilan chiqisha bilish)Ijtimoiy pedagogning ahloqiy majburiyatlari Ijtimoiy pedagog o`z mijozlarining qalbiga kirib borishida uning ahloqiy majburiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagogning aqloqiy majburiyatlari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bular: o`z mijozlariga nisbatan axloqiy muloqatda bo`lish, ya'ni ularning haq huquqlari va imtiyozlarini birinchi darajali deb bilish;

▪ ular bilan muloqatga kirishishda ahloq me'yorlarga amal qilish (hurmat, haqqoniyat. hushmuomilalik, alohida etibor va h.k.)

▪ rahbarlar yoki yetakchi tashkilotlarga nisbatan yetuk majburiyatlar

▪ o`z kasbi oldidagi axloq majburiyatlar, ya'ni o`z kasbining mazmuni va mohiyatini anglash, mas'uliyatni his etish, faollik ko`rsatish va h.k.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat-ta’lim va tarbiya orkali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yunaltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o`quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam kursatishga karatilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan ish olib borishi mumkin bulgan turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari uz ishlarini ijtimoiy pedagoglar orkali amalga oshiradilar.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat xar doim anik bir bolaga va uning ijtimoilashuviga, uni jamiyatga integratsiyalash jarayonida yuzaga keladigan muamolarini xal etishga yunaltirilgan bo`ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi — xar kanday faoliyat o`z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o`zaro boglikligini va o`zaro shartlarini aniklaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: sub’ekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), ob’ekt (faoliyat yunaltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orkali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orkali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat kaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muxim yunalish — bu BMT Konventsiyasida e’lon qilingan bolaning yashashga, soglom shakllanishiga, ta’lim olishiga, o`z karashlarini erkin ifoda etishiga, kamsitishning xar kanday turidan ximoyalashga karatilagan xukuklarini ximoya qilishdir.

Ijtimoii pedagog faoliyatidagi yana bir yunalish—bu bolani shakllanishiga kumaklashuvchi ijtimoii loyixalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chikishda ishtirok etishdir.

SHunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin: .

— tashxis quyish

— bashoratchilik

— vositachilik

— tugirlash va kayta tiklash

— ximoyalash

— ogoxlantirish va profilaktika

— evristika (ijodiy fikrlash)

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo`ladigan barcha xarakatlar, predmetlar, kurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy faoliyati sub’ekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorligi.

Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavfsifnomasi kurib chikiladigan bulsa, avvalo mazkur faoliyat sub’ektini — o`z soxasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo`ladi. U bola xaqidagi ijtimoiy va boshka kiyinchiliklarni chukur farklay biladi va unga yordamga kela oladi. U umum nazariy va maxsus bilimlarga, malaka va kunikmalarga, ma’lum darajadagi kobiliyatlarga ega bo`ladi.

Xush ijtimoiy pedagog kim? Uning ruxiy surati va shaxsiy tavsifnomasi kanday, kaysi soxalar uning faoliyat doirasiga tegishli? U boshka kasb egalaridan nimasi bilan fark kiladi?

Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xatti— xarakatlarida va dunyokarashida o`ziga xos iz koldirishiga guvox bulamiz. Psixologiyada bu narsa "kasbiy mentallik" deb ataladi. Mentallik — bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti —xarakatlarini aks ettiruvchi ma’lum ijtimoiy—ruxiy karashlar va kadriyatlar majmuidir. Mentallik o`zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo`lib, insonning kaysi ijtimoiy katlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniklanadi.

Psixologik tadqiqot larda kasbiy mentallik ma’lum bir kasb egalariga xos bo`lgan xususiyat sifatida e’tirof etiladi.

Hozirgi pedagogning muxim vazifalaridan biri milliy istiklol g`oyasini bolalar va o`quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chikib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: ‘‘Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiklol g`oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyoliylar, ilm – fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma’naviy – ma’rifiy soxa xodimlari milliy mafkurasini takomillashtirish,

uning asosiy tamoyillarini odamlar kalbiga va ongiga singdirishga karatilgan ishlarni yangi boskichga kutarish zarur''. Mana shuning uchun xam yaratiladigan ko`llanmalar mazmunida milliy istiklol g`oyasi asosiy o`rinni olishi lozim.

Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o`z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy—xuquqiy xujjatlar yordamida tartibga solinadi. Mazkur xujjatlar o`z ichiga mutaxassis- pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mexnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

IJTIMOIY ISH – axolining ijtimoiy ximoyalanmagan katlamlariga yordam kursatish xisoblanadi. Ijtimoiy ishlarning obekti inson xisoblanadi, lekin xamma emas, balki faqatgina muammolari bulganlari (ekalogik, ijtimoiy, texnogen, millatlararo keskin o`zgarishlar, buzilishlar natijasida) yoki soglom bulmagan, jismoniy yoki psixik nuksonlari bulganlar xisoblanadi.

MURUVVAT KO`RSATISH – muxtojlarga yordam, xayriya-saxovat – aloxida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan muxtojlarga yoki axoli guruxlariga beminnat yordam berish. Raxim-shavkat, marxamat, raximdillik – barchaga yordam berish, yoki o`zgalarni kechirish, gamxurlik qilish.

XAYRIYA – (muxtojlarga yordam, xayr-saxovat) – muxtoj odamlarga yoki axolining ijtimoiy guruxlariga xususiy shaxslar, yoki tashkilotlar tomonidan bepul yordam kursatish.

MEXRIBONLIK (MILOSERDIE) – raxmdillik, odamiylik, insonparvarlik yuzasidan kimgadir yordam kursatish, yoki kimnidir kechirish, avf etish.

"Kasbiy majburiyatlar" — Bolalarni ijtimoiy ximoya, kullab—kuvvatlash xamda bu borada xizmat kursatuvchi muassasalar to`grisida zarur axborotlar bilan ta'minlanadi.

— Inson va bola xukuklarini ximoya qilishga karatilgan, turli toifadagi bolalarning xak-xukuklarini ta'minlashga, bolalarni xuquqiy jixatdan tarbiyalashga yunaltirilgan ijtimoiy—xuquqiy yordamni kursatilishi

— Ruxiy va emotsional yordamga muxtoj bolalarga ijtimoiy—reabilitatsion yordam kursatish

— Kam ta'miilangan oilalarda yashovchi bolalarning maishiy xayotini yaxshilash maqsadida ularga ijtimoiy yordam kursatish.

— Bemor bolalarga zarur tibbiy—ijtimoiy yordamni kursatish. Alkogolizm, giyoxvandlik bilan shugullanuvchi voyaga yetmaganlarni davolash.

Ijtimoiy pedagogdan quyidgicha kasbiy bilimlar talab etiladi :

O`z faoliyatining me'eriy—xuquqiy asosini (konunlar, farmonlar, karorlar va yuriknomalar), ijtimoiy pedagogika nazariyasi va tarixini, turli muxitlarda turli toifa bolalari bilan ishlash metodikasi va texnologiyasini, bola shaxsini, uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini urganuvchi psixologiyani , odamlarning uyushma va guruxlari (Oila, maktab va mexnat jamoasi) ni urganuvchi sotsiologiyani; o`z kasbiy tadqiqot faoliyatini ijtimoiy boshkarish va rejalashtirish metodini bilish.

Ijtimoiy pedagogdan quyidagi kasbiy malakalar talab etiladi: Taxlil kila olish kobiliyati. Bolaning shakllanishida unga muxitning salbiy va ijobiy ta'sir kursatuvchi xarakatlarini aniklab taxlil kila bilish;

Bashoratchilik kobiliyati: faoliyat olib borish usullarini belgilab olib uni anik maqsad tomon yunaltirish, duch kelishi mukin bo`lgan muammolarni oldindan kura bilish va xisobga olib, vaktni to`gri taksimlash;

Loyixalashtira bilish—faoliyatni anik bir loyixa asosida, tarbiyalanuvchining shart—sharoitlari va mavjud muxit talablarini xisobga olib, anik bir tartibda olib borish, o`z faoliyatining xar bir boskichida ijobiy va salbiy natijalarini to`gri taxlil kila olish; kirishuvchanlik— ya'ni bolani eshitish va tinglay olish, bola bilan mulokot jarayonini osonlashtirish, bola muammosini to`gri tushunish uchuy zarur axborot va ma'lumotlarni tuplash.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining modeli.

Ijtimoiy ish bilan har kim ham shug`ullana olmaydi. Ijtimoiy pedagog turli xil harakterdagi insonlar bilan muloqatda bo`ladi. Bu insonlar o`zlarining muammolari bilan, albatta, ijtimoiy pedagog shaxsiga qarshi ta'sir ko`rsatadi. Mijozlarga yordam beruvchi mutaxassisdan esa ularga o`z ta'sirini o`tkaza bilishi talab etiladi. Bu muloqat negativ va pozitiv bo`lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning vazifasi birinchidan,negativ ta'sirga qarshi tura olishi, ikkinchidan madaniy empatiyani amalga oshirgan holda vaziyatdan chiqib ketish talab etiladi. Bunga mijozga ta'sir o`tkazish, ishontirish, singdirish, xissiy zararsizlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

Ijtimoiy pedagogga qo`yilayotgan barcha talablarni inobatga olib, ijtimoiy pedagog faoliyatining kasbiy modeli yaratilgan. U quyidagi jadvalda o`z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagog faoliyati soxalari. Ijtimoiy pedagog lavozimi bugungi kunda ikkita idorada — ta'lim muassalarida va yoshlar ishi buyicha muassasalarda joriy etilgan.

YOshlar ishi buyicha idoralarda mazkur lavozim 8 xil muassasada ruyxatga kiritilgan. Bular: bolalar klublari, bolalar ijodiy markazlari, yoshlar yotokxonasi, usmirlar dam olish maskanlari, yoshlar ta'lim markazlari, kasbiy yunaltirish markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mexnat birjalaridir.

Ta'lim soxasida esa pedagog 6 xil muassasada ruyxatiga kiritilgan. Bular: maktabgacha tarbiya tashkilotlari, umumta'lim muassalari, umumta'lim internatlari, bokuvchisini yukotgan bolalar uchun umumta'lim idoralari, maxsus ta'lim muassasalari, boshlangich kasbiy ta'lim muassasalaridir.

Nazorat uchun savollar:

1.Ijtimoiy pedagog kasbi va uning vazifalari nima?

2. Ijtimoiy pedagogning kasby sifatlari deganda nimani tushunasiz?

3. Ijtimoiy pedagogning etik majburiyatlari.

4. Ijtimoiy pedagog faoliyatinnng modellar?

5.Pedagogik va Ijtimoiy pedagogik kategoriyalarning o`xshashligi va farqi nimada?

6.Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo'lga qo'yish borasidagi qarashlarida qanday g'oyalar ilgari suriladi?
7.O'zbekiston Respublikasida oilalarning mustahkamligini ta'minlash, ularning moddiy farovonligini oshirish yo'lida qanday qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

8.Oila tarbiyasi borasidagi mavjud muammolar nimalardan iborat?
9.Oilada qanday tarbiya beriladi?
10. Ijtimoiy ta'lim va tarbiyaning fanda tutgan o`rni qanday?
11.Oilaviy munosabatlar haqida tushuncha bering.
12.Oilada bolaga jinsiy tarbiya necha yoshdan beriladi?
13.Oiladagi muammolarni to'g'ri hal qilishning yo'llarini ishlab chiqing.
14.Oilada kimning ta'siri kuchliroq bo'ladi?
15.Sog'lom oila deganda qanday oilani tushunasiz?
16.Nima uchun hozirgi kunda yosh oilalarda ajrimlar ko'plab uchrab turibdi? Sizning shaxsiy fikringiz?

7-MAVZU: TA'LIM JARAYONINING MOHIYATI.

Asosiy savollar:

1.Didaktika tushunchasi. Ta'limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ularning bog'liqligi.
2.Ta'lim jarayonining mohiyati. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari

Dars maqsadi: Didaktikaning mohiyatini talabalarga tushuntirish. Ularga ditaktika tushunchasini chuqur egallashiga yordam berib, o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otish.

Kalit so'zlar: O'qitish, o'qish, ta'lim ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyati turlari, ta'lim jarayonining falsafiy asosi, bilish nazariyasi, bilishning uch bosqichi, ta'lim jarayonining funksiyalari, ta'limda qarama-qarshiliklar, bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari, o'quv motivlari. Didaktika, bilim, ta'lim, bilish, faoliyat, o'qituvchi, o'quvchi, «buyuk didaktika»

1.Didaktika tushunchasi. Ta'limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ularning bog'liqligi.

"Didaktika " termini yunoncha " didaktikos " degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ta'lim beruvchi degan ma'noda tarjima qilinadi.

Ya. A. Komenskiy yashagan davrdan e'tiboran didaktika zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy tuzumi tushuniladi. Hozirgi vaqtda " didaktika" termini bilan birgalikda keng ma'noda o'qitish nazariyasi ta'lim berish nazariyasi ishlatiladi.

Didaktika quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitish prinsiplari, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkil etilish shakllari

Didaktika sistemasini izchil tarzda o'zlashtirish o'quv-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini tushunishga, ijodiy yondashishni va mahoratni ta'minlashga yordam beradi. Didaktika o'ziga xos tushunchalari va terminlariga ega. Ular asosan pedagogika fanining shu bo'limida qo'llaniladi. O'qitish, ta'lim olish, o'rganish mustaqil ravishda o'qish ilmiylik, sistemalik, ko'rgazmalilik, ta'lim olish, o'quvchilarning ongliligi va faolligi, ta'lim olishning individuallashtirish va differentsiyalashtirish, dars, sinf, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari,o'quv ekskursiyalari, o'zlashtirish va shu kabilar ancha ko'p qo'llanadigan terminlardir.

Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish», va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini echib boradi. Ayni vaqtda har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sharqu-G'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi. Buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino,

Alisher Navoiy kabilar tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini olg'a surdilar. Ular dunyoviy ta'limni keng rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi A.Avloniy, X.X.Niyoziy, M.Rasuliy, K. Niyoziy, O.Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatdagi formalizmning qat'iyan oldini olish, o'qitishdagi muqobil usul, shakl va vositalarini tanlash, pedagogika fani yutuqlarini amalga joriy qilish vaqti etdi. Uslubiy ishlarni jonlantirish, o'qituvchilarning tashabbuslarini, ijodiy izlanishlarini har tomonlama rivojlantirish, ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish lozim.

Lekin bu dasturni amalga oshirishda hech bir holda avvallari pedagogika hamda didaktikada yaratilgan asarlarni, xalq pedagogkasining nodir meroslarini chekkaga surib qo'yish mumkin emas. Pedagoglar bir qancha avlodlarning mehnati bilan qo'lga kiritilgan, pedagogika fani erishgan barcha qimmatli yutuqlar, zamon sinovidan o'tgan jamiki ilg'or qarashlarni avaylab asrashi va o'sha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak.

O'qitish to'g'risidagi fikrlarni o'tmishdagi faylasuflar va olimlar qadim-qadimlardayoq bildirishgan.O'qitish nazariyasini ilmiy bilimlar sistemasi sifatida pedagogika fani pedagogik tafakkur tarixini birinchi bo'lib Ya.A. Komenskiy XVII-asrda yaratdi, falsafiy fikrlarga, o'sha davrdagi maktablar ish tajribasini nazariy tahliliga tayanib u o'zining mashhur "Buyuk didaktika" (1658 y) degan asarini yozdi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki davrlarida o'qitish ishi tarbiya bilan bir butun holda,uzviy bog'langan edi. Ta'limning mazmuni u qadar murakkab bo'lmay ko'pincha bolaning katta yoshdagilarga taqlid qilishi, ular bilan birga ishlashi tarzida amalga oshirilar edi. Bola kattaga taqlid qilib, uning ishlaridan na'muna olib, tajribasini o'rganar va o'zlashtirar edi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida o'qitish ishi ma'lum darajada tus oldi. Bilimlar murakkablashdi va bilim faoliyatini maxsus ravishda tashkil etishni talab qildi. Ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi muloqot va taqsimot ayrim kasblarning mutaxassislarini tayyorlash vazifasini o'rtaga qo'ydi. O'qitish ishi ta'limning o'ziga xos maqsadlarining mazmunini va tashkil etilishini aks ettiruvchi mustaqil xarakterga ega bo'ldi.

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi. Bilish ikki pallaga-nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariyada g'oya shakllanadi. Amaliy bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish tajriba, o'zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakliga kiradi. Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Bu o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish, o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli, fikrli, madaniyatli, tarbiyali, chin inson bo'lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birlikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama xarakterga ega.

O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi. Chunki u o'qitadi, ta'lim beradi.

O'quvchi faoliyati ichki jarayonni tashkil etadi. Chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib tushunib oladi.

O'qitish jarayonining ichki tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'qitish bilishdan farqli o'laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning bilish faoliyati uchta bosqichda olib boriladi.

Bilimlarni o’zlashtirish, voqe’likdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilish bilish faoliyatining birinchi bosqichidir.

O’quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqichi- bilimlarni tushunish va umumlashtirish.

Uchinchi bosqich mustahkamlash va qo’llashdir**.**

Bilim, ko’nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o’zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo’llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to’ldirib boriladi. Ularni amalda qo’llanish ko’nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo’ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

O’quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashning, o’quv tarbiya jarayonini takomillashtirishning katta imkoniyatlari mavjuddir. Umumiy o’rta ta’lim va o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi ixlos qilishini asosiy yo’nalishlarida diqqat e’tibor hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish va fan texnika taraqqiyoti sharoitlarida yoshlarni kasb tanlashga yo’llash,yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlashdan iboratdir. 1997- yil 29-avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’g’risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash "Milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda hozirgi yashab turgan jamiyatimizga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hozirgi demokratik jamiyatda yoshlarni Erkin fikrga o’rgatish ,yoshlarni o’z qobiliyati, havasi, kiyinishiga mos, hayotda o’ziga munosib o’rnini topishini ta’minlash oldimizga qo’yilgan vazifamizdan biri hisoblanadi.

Bu borada etuk mutaxassislar o’z tajribalariga tayangan holda nazariy jihatdan asoslangan bu bilimlarni amalga tatbiq etishmoqdalar .

O’qitish jarayoni ikki faoliyat — o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini o’z ichiga oladi. O’qituvchinnng faoliyati o’quv materiallarini bayon qilishdan, o’quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o’quvchilarning mustaqil mashg’ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko’nikmalarini tekshirish, o’quv ishlariga moyilligini uyg’otish, rag’batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir.

O’qituvchnning faoliyati ta’lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o’qitadi, ta’lim beradi. O’quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, chunki u o’qituvchi bergan bilimni o’qib, tushunib oladi.

O’qitish jarayonining ikkinchi tomoni o’quvchining faoliyati bo’lib, u o’quv fani materiallarini o’zlashtirishdan iborat. O’qitish bilishdan farqli o’laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta’limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar,ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash — muayyan fanlar o’rtasidagi bog’lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o’quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o’sib boradi, ularda e’tiqod tarbiyalanadi.

Bunday o’qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o’rganish kerak, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Ta’lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari — asosi o’rganiladi. Buning uchun o’qituvchi o’quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga etaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda, ishlab chiqarishda qo’llay bilishga o’rgatadi. O’qituvchi o’z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo’lishi lozim.

Muallim bilimlarni o’rgatar ekan, o’sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o’rganadi, qiyinchiliklarini ko’radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o’qituvchi materialni o’zida ham, uni o’qitish usullarida ham yangi jihatlarini ochadi. Xuddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o’ziga xos usuli shakllanadi.

O’qituvchi maktab o’quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo’llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo’lmay, o’quv jarayonining mantiqi shuni taqozo etadi. O’quvchilarning o’qituvchi sabog’ini o’zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo’llash bosqichlaridan iborat bo’ladi.

Bilimlarni o’zlashtirish voqe’likdagi narsa va hodisalarni yozish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o’zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Idrok — borliqni odam ongida aks etishidir (biz daraxtni, odamni, hayvon va boshqalarni idrok qilamiz).

Idrok o'quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko'zlovchi jarayon bo'lmog'i kerak. O'qituvchi idrokni yoki bevosita kuzatishni yo'lga qo'yayotganida kuzatish manbalarini sinchiklab tanlaydi.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich — bilimlarni tushunish va umumlashtirish. Tushunchalarning hosil bo'lish jarayonida induktsiya va deduktsiya kabi fikrlash masalalari katta o'rin tutadi. Induktsiya — xususiy hollardan umumiy qoidaga boradigan, deduktsiya esa — umumiydan xususiyga boradigan fikr yuritish yo'lidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich — bilimlarni mustahkamlash va qo'llash.

Mustahkamlashning mohiyati yangi materialni idrok qilish vaqtida hosil bo'lgan muvaqqat bog'lanishlarni puxtalashdir. Mazkur jarayonda bo'sh va beqaror bog'lanishlar mustaxkamlanib boradi.

O'quvchilar faolligini oshirish uchun materialni dastlabki mustahkamlash vaqtida materialga oid savollar qo'yish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o'quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan, turli xil mashqlar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish, ko'rsatmali qurollar, kompyuterlar ustida ishlashlaridan ham foydalanish mumkin. Materialning keyingi mustahkamlanishi uy vazifalarini bajarish jarayonida davom etadi. Materialning har bir keyingi darsda takrorlanib borishi, mavzu yoki bo'limning oxirida umumlashtiruvchi takrorlash o'tkazilishi hamda o'quv yilining oxiridagi takrorlash mustahkamlashning zaruriy elementidir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo'llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi, ularni amalda qo'llanish ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

2.Ta'lim jarayonining mohiyati. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari

O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.

I.P.Podlaso'y ta'lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.

2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.

3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.

4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.

5. Ta'limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganliligi.

6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.

5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O'sha davrdayoq ta'lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan.

Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an'analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta'lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalar to'plami ko'rinishida amaliyotiy ta'lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.

Sharqdagi Uyg'onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha synkretismos – birlashish, yaxlitlik, qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug'ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda.

Quyidagi jadvaldan Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta'limning ilmiyligi, ongliligi, ko'rgazmaliligi, tushunarliligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarini ifoda etib berganlari anglanadi (93-betga qarang).

XVII asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi e'tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to'la qayta qurishni chex olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar.

Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko'ra guruhlaganlar:

1. Ijtimoiy-tarixiy.
2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologik.

Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagoglar umumiy tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko'ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:

1. "Ta'lim va oson o'qishning asosiy qoidalari" ("Buyuk didaktika" - XVII bob);
2. "Tabiiy o'qish va ta'limning asosiy qoidalari";
3. "Fanlarga o'qitish san'atining to'qqiz qoidasi" (XX bob) va boshqalar.

Disterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo'lib, ular muayyan loyihalarga taalluqli ekanligiga ko'ra guruhlarga ajratadi (birinchi guruh – o'qituvchiga nisbatan, ikkinchisi – dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, uchinchisi – o'quvchiga nisbatan va hokazolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.

Nazorat savollar:

1.Didaktika pedagogikaning boshqa tarkibiy qismidan alohida rivojlanish mumkinmi?
2.Nima uchun aynan XVII asrda didaktika ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan?

3.Ta’lim jarayonining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
4.Ta’lim jarayonining vazifalarini izohlang.
5.Ta’lim jarayoni qanday ziddiyatlarga ega ekanligini tushuntirib bering.
6.Bilimlarni o’zlashtirish nimadan boshlanadi?
7.Bilim olishga ruhiy tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz
8.Ta’limning asosiy didaktik qonuniyatlarini ifoda etib bering (I.P.Podlaso’y bo’yicha).
9.Ta’lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.
10.Sharq Uyg’onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino) ilgari surgan ta’limiy qoida va tamoyillarini ta’riflab bering.
11.Ta’lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?
12. Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta’riflab bering.
13. Hozirgi bosqichda ta’lim mazmunini belgilash asosiy g’oyalarini (asoslarini) aytib bering.
14. Mutaxassislik fani bo’yicha umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’limi davlat ta’lim standartini tahlil qilib bering.

8- MAVZU: TA’LIMNING TASHKILIY SHAKLLARI VA METODLARI

Asosiy savollar:

1.Ta’limni tashkil etish shakllari tushunchasi. Dars – o‘qitishning asosiy tashkiliy shakli
2.Darsning turlari va tuzilishi.

Darsning maqsadi: Talim oluvchilarga ta’limni tashkil etishning mazmun-mohiyatini, turlari va shakllari haqida bilim va ko’nikmalar berish

Kalit so’zlar: Dars, dogmatik o’qitish, muammoli ta’lim, mujasssamlashtirish, rivojlantiruvchi ta’lim, mustaqil ta’lim, hamkorlik ta’limi, individual ta’lim, faol o’qitish, kompyuter ta’limi, dasturiy ta’lim, modul ta’limi, faol o’qitish. zamonaviy texnologiya, ilg’or pedagogik texnologiya, axborot texnologiya, raqamli texnologiya, metod, vitual- stend, internet, xalqaro tajriba, kredit-modul tizimi.

1.Ta’limni tashkil etish shakllari tushunchasi. Dars – o‘qitishning asosiy tashkiliy shakli

Didaktik g’oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g’oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o’qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.

Ta’lim turlari (yunoncha «species» alohida, o’ziga xos xususiyatga ega) o’quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug’diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I asrlar);
- o’rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko’rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o’qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko’rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o’qitish, masofali, Internet yordamida o’qitish va shu kabilar).

Avesto g’oyalariga ko’ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylik muqaddas manbai bo’lib, u o’z davrining entsiklopediyasi hisoblagan. “Avesto” g’oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o’qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

1) diniy va ma’naviy tarbiyalash;

2) jismoniy tarbiya;
3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona erga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. "Avesto"da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Sukrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Evropada dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili etakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik kontseptsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. "Haqiqiy g'oyalar" (Abu Ali Ibn Sino. «Donishnoma» ,«Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur'onning arab tilida yod olinishi bilim eshallashning asosiy shart hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablar – boshlang'ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarining rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.

Ayni vaqtda respublika hududida faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi);
- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish.

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari – dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda. Tushuntiruvchi-namoyil etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differentsatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi..

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok

etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi etadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va etish mayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni echish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bu erda mumkin emas. Muammoli savolga misool: "Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kadi?".

Muammoli masala uni yechish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-o'rganish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: "2Q5*3q21 tengligi to'g'ri bo'lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?".

O'qish jarayonida muammoli vaziyat sub'ekt (o'quvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani echishni istashi, lekin unga ma'lumotlar etish masligi va u o'zi ularni izlashi zarurligini ko'zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: "6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang".

Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatini har bir o'quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiradi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlar portsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganida o'quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topganda o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi, kuchi etadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallanishi;
- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarning o'zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma'lum qilinadi);
- o'qituvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondoshuvning amalga oshirilishi;

- ta’lim jarayonida o’qitishning o’ziga xos vositalarining keng qo’llanilishi (dasturlashtirilgan o’quv qo’llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o’qitish mashinalari).

Kompyuterli ta’lim. O’qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi - shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (ShEHM) rivojlanishi kompyuterli (kompyuterlashtirilgan) ta’limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta’lim dasturlari bilan ta’minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o’qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o’quv jarayoni rivojlanishi haqida ma’lumotlarni to’plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

Rivojlangan mamalakatlarda kompyuterlardan ta’limdan foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo’nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

- alohida o’quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya va boshqalar) bo’yicha o’zlashtirish darajasini oshirishni ta’minlash;
- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo’yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to’plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko’nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e’tiborni kuchaytirish.

Bundan tashqari kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o’tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi, bu o’qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.

Dasturiy va kompyuterli ta’limlar o’qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algortm to’g’ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko’nikma va malakalarni to’la o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan o’quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o’quvchiga ko’rsatadi. O’quv dasturlari va kompyuterli ta’limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog’liq. Yomon tuzilgan algoritmlar kompyuterli o’qitishning sifatini keskin pasaytiradi.

Kompyuterli ta’limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

1) o’qitish dasturlarining sifati;
2) hisoblash texnikasining sifati.

Bu sohada ham muayyan muammolar mavjud, ya’ni, o’quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan ta’lim dasturlari hozircha juda kam, ularni tuzib ishlab chiqish ko’p vaqt va kuch talab etiladi, shu bois ularning narxi ham qimmat. Respublika ta’lim muassasalarida EHMlar soni va ulardan foydalanish ko’lami ortib va takomillashib bormoqda, biroq, bu sohada hali jahon tajribasidan ortda qolish holati bartaraf etilgani yo’q.

Ta’limni tashkil etish shakllari turli davrlarda turlicha bo’lgan. XVI-asrning oxiri va XVII-asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tarixda birinchi bo’lib maktab ta’limida sinf-dars tizimini yaratdi. **Ta’lim shakllarining rivojlanishi.** Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko’rsatiladi: **individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma’ruza, auditoriyadan tashqari va maktabdan tashqari.**

Ta’limning **individual-guruhli shakli**dan Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar

Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo’lmadi. Ularda oktyabr to’ntarishiga qadar o’rta asr maktablariga xos ta’lim tizimi davom etib keldi……..

Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo’lgan ma’lum miqdordagi o’quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o’qituvchining rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg’ulotlariga aytiladi.

Dars- o’quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli.

Dars- o’quv ishlarining markaziy qismi.

Hozir maktablarimizda qo’llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko’ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo’ladi.

2. Dars mashg’uloti asosan 45 daqiqaga mo’ljallangan bo’lib, qat’iy jadval asosida olib boriladi.

3. Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida albatta tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda:

1. Sinf-dars shaklidagi olib boriladigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni o'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba uchastkalari va maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

Didaktik (yoki ta'lim)iy talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.
Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbiyaviy talablar** o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.
Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan **rivojlantiruvchi talablarga** o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

2.Darsning turlari va tuzilishi.

1 soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi **dars turlari** deb yuritiladi. Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasi birga qo'llanilishi)

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining unsurlari bo'lishi mumkin.

Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) Yangi bilimlarni bayon qilish.

b) Yangi bilimlarni mustahkamlash.

v) Yangi bilimlar ustidan mashq qilish.
g) Yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustidan mashq o'tkazish uyga vazifa kabi boshqa unsurlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir unsurlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.

Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);
v) yangi mavzuni bayon qilish;
g) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
d) o'quvchilarni baholash;
e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) yangi mavzuni bayon qilish;
v) o'rganilgan materialni mustahkamlash;
d) uy vazifasini berish.

O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish;
v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;
g) o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);
v) nazorat ishini o'tkazish;
g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
v) laboratoriya ishini o'tkazish;
g) o'quvchilarni baholash;
d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:
a) tashkiliy qism;
b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
g) o'quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.
Hozirgi kunda darslarni modernizatsiyalash yo‘llari.
Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini uyg‘unlashtirish.
O‘qituvchining darsga tayyorgarligi.
O’qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi to’rtta bosqich ko’zga tashlanadi: **tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirish**.
Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni tashxislash bilan boshlanadi.

Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o’quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o’quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o’zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo’ladi.

Bashoratlash bo’lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish va rejalashtirish o’quvchilarning o’quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo’lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o’zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so’rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg’ulot keyingi bosqichiga qanday o’tish, oldindan ko’zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo’yicha qayta o’zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdi
Darsning reja- konspekti.
Darsning texnologik xaritasi.
Ta’limning boshqa tashkiliy shakllari: uy vazifasi, fan to‘garaklari, o‘quv sayohati, amaliyot va boshqalar.
Ta’limning yordamchi shakllari: to’garak, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg’ulot, o’quv ekskursiyalari, o’quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi. Maktabdan tashqari mashg’ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o’qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o’quvchilarning **mustaqil uy ishlari** kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o’quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to’garaklari yo’nalishi, mazmuni, ish metodi, o’qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o’quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o’qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi..

Ta’limning yordamchi shakllariga **ekskursiyalar** ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo’lishi mumkin. O’quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo’yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o’tkazish uchun o’qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob’ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to’la rejani ishlab chiqishi, o’quvchilarni bo’lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O’quv rejasi turli **fakultativ va tanlov bo’yicha kurslar**ni tashkil etishni ko’zda tutadi. Ular o’quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog’liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro’yxatini aniqlashda faqat o’quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo’yicha mashg’ulotlar majburiy va umumiy o’rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog’liqlikda o’tkazilishi kerak.
Maslahat (konsultatsiya - o’quv suhbati)ga talablar ko’pincha o’quvchilarning ma’lum o’quv materiali yoki topshirig’i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko’proq o’quvchi savol beradi. To’g’ri tashkil etilgan konsultatsiya o’quvchilarga o’quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o’qituvchi o’quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to’g’ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o’rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o’rganadigan qilib yo’naltiradi. Konsultatsiya o’qituvchiga o’quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e’tibor berishni

talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, komleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: tashhislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ultning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashhis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

9-MAVZU: TA'LIMDA INNOVATSION JARAYONLAR

Asosiy savollar:

1."Innovatsion metod" tushunchasi
2. Interaktiv metodlarni turkumlash

Darsning maqsadi: Ta'lim oluvchilarni ta'lim metlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari, ularga turlicha yondoshuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish

Kalit so'zlar: Ta'lim metodi, tadqiqot, usul, tarbiyaviy metod, hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, ekskursiya, mashq, grafikaviy ishlar, laboratoriya ishlari, didaktik o'yinlar, tashxislash, nazorat, baholash, dinamika, baho, holislik, tizimlilik.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

Talabalarni o’quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g’oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptsiyasini farqlaydilar. Bu konseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g’oya tuqilishi yoki yangilik konseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo’llaybilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg’otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig’indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob’ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub’ektiv yangilik ma'lum ob’ekt uchun ob’ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g’oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg’or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangjlikka, o’qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova **innovatsion jarayon tuzulmasi**ning uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi

konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl -metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;

sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathjari;

sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;

mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;

boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;

tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;

qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;

pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va himmatini keng yoyadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda

pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklaming amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;

shaxsiy faoliyat jihatidan (ta 'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;

ko'psub’ektli (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;

individual - ijodiy (o’qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub’ekti o’qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o’qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub’ekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o’qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o’quv - taibiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning vangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinichiliklarni a'lo darajada enga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yo'nalish talabalarning o’quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik ***aktsiologiya*** ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O’qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o’qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ananev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to’g’risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug’ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassis-ning uzoh ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub’ektiv va ob’ektiv omillarini asoslab berdi. Ob’ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub’ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

iste 'dod nishonalari;

uquvlilik;

qobiliyat;

iste'dod;

oila tarbiyasi sharoiti;

o’quv yurti;

o'z hatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

ijodiy individuallik;

o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;

o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O’qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

intellektual - ijodiy tashabbus;

bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;

ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;

axborotlarga tashnalik, muammolardagi g’ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg’u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N. V. Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;

pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;

samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;

shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta 'minlash.

Shu tariqa o’qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivoj-lanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to’g’risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklaming bir butunligi va uyg’unligi , ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o’qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O’qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsifiaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikrning ravonligi;

fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;

o'ziga xoslik (originallik);

qiziquvchanlik;

farazlar yaratish qobiliyati;

xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa sub’ekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;

intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;

intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

rag’batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

potensial kreativlik;

faoliyatdagi kreativlik.

Potentsial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka a ylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individiumning potentsial joylashishini anglatu vchi kreativ faoliyatdir. Potentsial kreativlik ijodning zaruriy sub’ektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik -
faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliy atning u yoki bu turi tavsifli potentsial kreativ individiumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim sub/ektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub’ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka tahlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik tahlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda tahlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O’qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g’oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o’qitish va tarbiyalashning o'z betakror konseptsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O’qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu reflektsiyadir.

Refleksiya o’qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob’ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruktsiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish reflektsiyasi.

Bu bilan bog’liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqilaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) subektning o'z (ichki) psixik tuyg’u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

Demak, o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

2.Interaktiv metodlarni turkumlash

Avvalo "interfaol (interaktiv)" tushunchani aniqlashtirib olaylik. "Interaktiv" degan so'z inglizcha "interact" so'zidan kelib chiqqan. "Inter" – o'zaro, "act" – ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. SHunday qilib, interfaol o'qitish – bu, avvalambor muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi.
Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Bilish jarayonida o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati deganda, ularni har birining o'ziga xos aloqada individual hissa qo'shishi, o'zaro bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushuniladi. SHu bilan birga, bularning hammasi o'zaro xayrixohlik va qo'llab – quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o'zini ham rivojlantiradi, uni yanada yuqoriroq koopertsiya va hamkorlik pog'onalariga olib chiqadi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi. Interfaol metod bitta so'zga chiquvchining, shuningdek, bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi.

Dialogli o'qitish jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqat qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo'llaniladi.

Interfaol o'qitishni tashkil qiluvchilar uchun, sof o'quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

guruhdagi o’quvchilarning o’zaro muloqotlari jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib yetish;
boshqalar bilan o’zaro muloqotda bo’lish va ular yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;
o’quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

SHuning uchun interfaol o’qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatish uchun zarur bo’lgan ikkita asosiy funktsiyalar amalga oshirilishi lozim:
o’qitishning pragmatik jihati qo’yilgan o’quv masalasini yechishlikning shartligi;
tarbiyaviy masalalarni yechish (hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a’zolariga yordam ko’rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish).

Ushbu faktni alohida qayd etish lozimki, o’qitishning barcha interfaol usullarini verbal (og’zaki) va noverbal usullarga ajratish mumkin.
Og’zakilarga quyidagilar kiradi:
vizual: yuz ifodasi, gavdaning holati, harakatlar, ko’zlar orqali aloqa;
akustik: intonatsiya, ovoz balandligi, tembr, nutq tempi, tovush balandligi, nutqiy pauzalar va hokazo.
Verbal usullar orasida quyidagilarni ajratib ko’rsatish mumkin:
"oxiri ochiq" bo’lgan savollar, ya’ni yagona "to’g’ri" javobga emas, balki muammo (savol) bo’yicha turli nuqtai nazarlarni bayon qila olishga yo’naltirilgan savollarni bera olish qobiliyati;
o’quvchilar bilan muloqotda o’qituvchi tomonidan o’zining nuqtai nazarini hal qiluvchi nuqtai nazar deb emas, balki neytral deb aniqlanishi. Bu narsa mashg’ulot paytida o’quvchilarga qo’rqmasdan "to’g’ri " va "noto’g’ri" nuqtai nazarlarini bayon etish imkoniyatini beradi;
mashg’ulotning tahlil va o’z-o’zini tahlil qilishga tayyorgarlik.
Ushbu holat mashg’ulotlarda nima?, qanday? va nima uchun? sodir bo’lganini, o’zaro faoliyat qaerda "osilib" qolganini, u nima bilan bog’liq ekanligini, keyinchalik bunday holatlarning ro’y bermasligi uchun nimalar qilish kerakligi va boshqalarni tushunib olishga yordam beradi;
mashg’ulotning borishini, uning kulminatsiyasini, natijaviyligini va boshqa kuzatish imkonini beruvchi yozma xotiralarni yozib borish.
Birinchi bo’limga alohida e’tibor qaratishni istar edik. O’qituvchining savoli – bu o’quvchining tafakkurini bostirish yoki rivojlantirish uchun kuchli vositadir. Savolning ikki hil turi mavjud (interfaol o’qitish nuqtai nazaridan).
o’quvchining fikr doirasini chegaralab, uni bilganlarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo’yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to’xtatib turishga xizmat qilib, o’quvchiga uning fikri hech kimni qiziqtirmasligini tushunib yetishiga olib keladi;
fikr yuritish, o’ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi savollar. Bunday savollar fikrlash darajasini ko’tarish bilan birga, o’quvchilarda ularning ham fikri qimmatga ega ekanligiga ishonch uyg’otadi.
Quyida savolni to’g’ri ifoda qilish bo’yicha bir qancha tavsiyalar keltiriladi.
Savollarni aniq va qisqa qo’yish lozim.
Bitta savol orqali faqat bir narsani so’rash.
Savol mavzu bilan bevosita bog’liq bo’lishi kerak.

Savoldagi barcha so’zlar o’quvchiga tushunarli bo’lishi kerak.
Har bir savolga bir nechta javob bo’lishiga harakat qiling.

Aniq narsalardan umumiyga borishga harakat qiling. Bu holat o’quvchilarni o’ylashi va savolga javob berishida yengillik tug’diradi.

Faqatgina "ha" yoki "yo’q", "to’g’ri" yoki "noto’g’ri" degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlaning.

O’quvchilarga o’z tajribalariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.
O’zining nuqtai nazarini bildiradigan savollarni bering.
Qo’yilgan savolga javob berilganda, o’quvchilardan "Nima uchun shunday deb o’ylaysiz?" deb so’rab turing.

Interfaol metodlar bo’yicha o’qish jarayonini tashkil etilganda e’tibor berilishi kerak bo’lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni. Vazifaning mazmuni o’qitishning an’anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq bo’lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma’lum bir paragraf konspektini olish vazifa sifatida berilishi maqsadiga muvofiq emas, chunki har bir o’quvchi bu ishni o’zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, muammoni nostandart qo’yilishigina, o’quvchilarni bir-biridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiy fikrini shakllantirishga undaydi. Masalan, dasturlashga oid masala yechilganda, uni kichik masalalarga bo’lish mumkin. O’quvchilarni ham kichik guruhlarga bo’lish va har biriga kichik masalani yechishni va dasturini tuzishni tavsiya etish mumkin.

Dars oxirida guruhlarning kichik masalalarini yechimlari asosida berilgan masala yechishini tashkil qilish lozim. Buning natijasida bitta dars davomida murakkab masalani yechish va unga ko’proq o’quvchilarni jalb qilish mumkin bo’ladi.

An’anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

№	Asosiy tushunchalar	An’anaviy dars	Interfaol dars
1	qo’llanish darajasi	Barcha mavzular bo’yicha ular uchun qulay bo’lgan dars turlari shaklida qo’llaniladi.	Ayrim mavzular bo’yicha interfaol darsning qulay bo’lgan turlari shaklida qo’llaniladi. Boshqa mavzular uchun an’anaviy dars qo’llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo’yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o’rgatish.
3	O’qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O’quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.

4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.
10	Bilimlarni	Muloqot, muhokama,	Muloqot, mutolaa, mushohada,

	o’zlashtirishning asosiy usullari	muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
11	Mashg’ulot shakllari	Ma’ruza, seminar, amaliy mashg’ulot, laboratoriya mashg’uloti, davra suhbati, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar.	Ma’ruza, guruh yoki juft bo’lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbati, amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo’yicha o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarini o’zlashtirishlari.	Mavzu bo’yicha o’quvchilarning o’z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o’rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg’ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko’rsatib turibdi.

Interfaol mashg’ulotning ushbu jadvalda ko’rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O’quv rejadagi fanlarni o’qitishda qaysi mavzular bo’yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo’yicha mashg’ulotning maqsadiga to’liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg’ulot turlaridan foydalanish ko’zda tutiladi.

Interfaol mashg’ulotning samarali bo’lishi uchun o’quvchilar yangi mashg’ulotdan oldin uning mavzusi bo’yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur.

Interfaol mashg’ulotda o’quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg’ulotga nisbatan ko’p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o’xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta’siri to’g’risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o’zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o’qig’uvchilar diqqat va e’tibor ko’zi bila nazar solg’aylar va har qaysisi o’z fahmu idroklariga ko’ra bahra olg’aylar...". Bunda shu asarni har kim turlicha, ya’ni o’z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o’zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo’llay bilishi ko’rsatib o’tilgan bo’lib, bundan biz interfaol ta’lim usullarining an’anaviy usullardan asosiy farqlari to’g’risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o’quvchilarning fahmu idroklarini o’stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta’kidlash lozimki, interfaol ta’lim usullari O’zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o’rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo’llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste’dod, zakovatlarini o’stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo’lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg’ulotlarni olib borishda ma’lumki, asosan interfaol usullar qo’llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o’sib o’tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o’zaro farqini bizningcha, shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o’qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o’z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o’quvchi o’z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o’zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi - har bir o’qituvchi barcha o’quvchilar ko’zda tutilgandek o’zlashtiradigan mashg’ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir o’quvchi o’z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg’ulotni oldindan ko’zda tutilgan darajada o’zlashtiradi.

Interfaol mashg’ulotlarni amalda qo’llash bo’yicha ayrim tajribalarni o’rganish asosida bu mashg’ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko’rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o’qituvchiga, o’quvchilarga, ta’lim vositalariga bog’liq omillar deb atash mumkin. Ular o’z mohiyatiga ko’ra ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o’qituvchilardan interfaol mashg’ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

-o’qituvchilarga interfaol usullarni o’rgatishni tashkil qilish;

-o’quv xonasida interfaol mashg’ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-ma’ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo’lishini ta’minlash;

-sanitariya-gigiena me’yorlari buzilishining oldini olish;

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash;

-davomatni va intizomni saqlash;

nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

-interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

-o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

-ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-o'quvchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.
o'quvchilarga tegishli omillar:

-davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;

-zarur tayyorgarliksiz kelishi;

-ilmiy atamalarni bilmasligi;

-diqqatni jamlay olmasligi;

-eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;

-qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;

-dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;

-manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

10-MAVZU: ELEKTRON PEDAGOGIKA VA UNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Asosiy savollar

1.Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

2.Pedagogik dasturiy vositalar.

1.Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproyektor, diaproyektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o'z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi.

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz.

- Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin.
- Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o‘zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik haritalar, ekran protsessorlari va x.k.;
- axborotlar majmui-ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylar va x.k.;
- texnik ko‘nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdanma’lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o‘zlashtirish va x.k.).

Hozirgi kunda kompyuterlar ta’lim tizimida asosan to‘rt yo‘nalishda:

-o‘rganish obyekti sifatida;

-o‘qitishning texnik vositalari sifatida;

-ta’limni boshqarishda;

-ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda
Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. **O‘quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to‘rt tartibda:**
passiv qo‘llash – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;

reaktiv muloqat – kompyuter imtihon oluvchi sifatida;
faol muloqat – kompyuter talabaga yo‘l – yo‘riq berish va imtihon olishda;
interfaol muloqat – kompyuter sun’iy intellekt sifatida, ya’ni talaba bilan muloqat qilishda foydalaniladi.

Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

fan sohalarini axborotlashtirishni;

o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni;

integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

- Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish ва педагогик фаолиятнинг самарадорлигини мониторинг этишни тақозо этади.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;

o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;

axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Portal – bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko‘lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog‘i tuguni bo‘lib, u:

- ko‘p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishi;
- axborotlar ko‘lamining kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarini qo‘llashi;
- oson va samarali qidirish tizimining joriy etilishi;
- axborot resurslari integratsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta’minlashi;
- axborotlarni tabaqalashtirishi;

bilimlarni boshqarish-tahlil etishi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasi.

Pedagogik dasturiy vositalar kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin: **o‘rgatuvchi dasturлар-** o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi **bilimlarni o‘zlashtirishga**

yo‘naltiradi;
- **test dasturlari** – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- **mashq qildiruvchi (trenejyor)lar** - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- **o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari)**.

Virtual borliq (Virtualnaya realnost) *tushunchasini* Jaron Lanier (Lanye) taklif etgan. Virtual borliq **immersivlik** va **interfaollik** tushunchalari bilan bog‘liq.

Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalar deb qabul qilamiz. Interfaollikni ta’minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko‘pmodallikga, ya’ni ko‘z bilan ko‘radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo‘lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta xajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o‘rnatiladigan shlem va ko‘zoynak displeylar, “hid sezadigan” sichqonchalar, boshqaruvchi qo‘lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi. Yuqoridagilar ekzotik qurilmalarga tegishli.

11-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Asosiy savollar:

1.Pedagogik diagnostikaning predmeti, mohiyati, asosiy vazifa va kategoriyalari.
2.O’quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi

Darsning maqsadi: O'quvchilar bilimini tashhis etishning mohiyati. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari.Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini o’rganish.

Kalit so’zlar: pedagogik diagnostika. pedagogik jarayon, o qitishni jadallashtirish. o 'z-o zini diagnostikalash, diagnostikaning fimksiyalari, pedagogik faoliyat. pedagogik diagnostikaning ob ekiivligi, qiyinchiliklami o 'rganish.

1.Pedagogik diagnostikaning predmeti, mohiyati, asosiy vazifa va kategoriyalari

Diagnostika - {yunon tilida: «dia» — «shaffof», «gnozifi»-«bilim» degan ma'noni bildiradi) o’rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon togrisida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo’lib xizmat qiladi.

«**Pedagogik diagnostika»** atamasi birinchi bor 1968 yili nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi. Pedagogik diagnostika yordamida jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy jarayon

tahlil qilinadi va ta'lim-tarbiyaning kafolatlangan natijalari aniqlanadi. Tashxislashda nafaqat ta'linv-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ulaming ozgarish dinamikasi xam kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o'quvchi materialni qanday o'zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolaming yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quv - tarbiyaviy jarayonda tug'iladigan qiyinchiliklar o'rganiladi, ulami bartaraf etish yo'llari tashkil etiladi.

Agar diagnostika (tashxis)ning ahamiyatini tibbiyot sohasi nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik, uning belgilari va uni kelib chiqish sabablari to'g'ri aniqlansa, davolanish natijasida bemoming tuzalib ketishiga imkon yaratiladi Xato diagnoz esa faqat shifokorlaming harakatini yo'qqa chiqarib qolmay, kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana salomatligi to'g'risida aytilgan shu fikrlar ruhiy sog'liqqa ham xuddi shunday aloqadordir. Shuning uchun diagnostika yuksak malaka va javobgarlikni talab qiladigan faoliyatdir.

Pedagogik diagnostikaning mohiyati va funktsiyalari. O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlaming muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi va madaniyatining qay darajada shakllanganligiga bog'liqdir.

O'quv-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi o'mi nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy: " Ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat"1 - degan fikmi "Fozil odamlar shahri asarida alohida ta'kidlagan. Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti- harakatini sekin - asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyami tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta - sekin takomillashib, komillikka erishib boradi, ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda o'qituvchi yoshlaming shaxs sifatida rivojlanishining xususiyatlarini e'tiborga olishi zarur. Mustaqil, ma'rifiy-madamy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir. Mustaqil respublikamizning «Ta'lim to g risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari bilan hamohang ravishda barkamol insonni voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlami shakllantirish lozim. -ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini to'g'ri tushunish hamda tahlil qilib, munosabat bildira olish; -jamoada qabul qilingan normalarga amal gilish, mehnat qilish malakalarini egallsh; 1 Абу Наср Фаробий. Фот ил одамлар ша^ри.-Ташкент: Укитувчи, 2004,-87-бет. 27 -barkamol inson siymosini idrok etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash. Mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlardan qat'i nazar o'quv jarayonini qulaylashtirishga xizmat qiluvchi diagnostika quyidagi maqsadlargayo'naltiriladi: - ta'lim natijasi noto'g'ri baholanganda ichki vatashqi tahrirga; - ta'limdagi kamchiliklarni aniqlashga; -ta'limning muvaffaqqiyatli natijalarini tasdiqlaShga; -o'quv jarayonining keyingi bosqichlarini rejalshtirishga; - ta'lim-tarbiyadagi muvaffaqiyatlami rag batlantirish orqali motivatsiya paydo qilishga va keyingi murakkab qadamlami yonaltirishga; - o'quv-tarbiyaviy sharoitlami yaxshilashga. Nufuzli amerika ma'lumotnomalarining (Lindguist) birida pedagogik tashxislash vazifalari (Edicational Measurement) ga yirik boblar uchun o'rin ajratilgan: o'qitish jarayonida uslubiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, maktabdagi ijtimoiy pedagog maslahati, tarbiyaviy jarayonda ta'limning o'mi (Plaziering). Bu yana bir karra ilmiy asoslangan pedagogik diagnostika o'quv-tarbiyaviy jarayonning mazmunini boyitishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Pedagogik diagnostikada o4quvchi shaxsi pedagogik diagnostika obyekti sifatida qaraiadi.

Ta'lim muassasadagi ta'lim - tarbiya sifati, moddiy - texnika bazasining mustahkamligi, o'quv jarayonida axborot - kommunikatsiya vositalari va o'qitishning zamonaviy metodlaridan, innovatsiyalardan samarali foydalanilayotgani o'quvchi shaxsini kamol toptirishga qaratiladi va o'quv dargohining bilim o'chog'i degan maqomga munosibligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda pedagogik diagnostikaning shuriday tamoyillarini amaliyotda qo'llash lozimki, bu tamoyillar tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlaming shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ulaming

pedagogik dahlsizligini ta’minlashi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar orqali ularga ijobiy ta'sir ko rsatishi va korreksiyalash metodikalarini oqilona tatbiq etishi zarur.

Tashxislashning natijalari kadrlar tayyorlash va ulaming kasbiy malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tashxislashda mavjud pedagogik muammolar ravshanlashadi, ulaming yechimini topish zarurati amqlanadi. Muammolar yechimi faoliyatning tarkibiy qismlarida, vazifalami oqilona taqsimlashda o'z aksini topadi. Pedagogik diagnostika funktsiyalari (vazifalari) aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqadi:

-teskari aloqa funktsiyasi-ko'zlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishish shakllari vayo'llarini tahlil qilish;

-maqsad va vazifalami belgilash funktsiyasi- jamoaning taraqqiy qilish istiqbollarini, istiqboliy rejalarini aniqlash;

-taqsimot funktsiyasi-jamoa a'zolari ortasida burchlami, vazifalami taqsimlash;

-yaratish funktsiyasi- kattalaming yoshlar bilan muloqot qilishining sog'lom muhitini tarkib toptirish; **-pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish funktsiyasi**; -pedagogik korreksiyalash funktsiyasi- yoshlar xulqidagi, ta’limiy faoliyati, tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlami bartaraf etish vazifasini o'taydi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilami attestatsiyalashda qo l keladi;

-motivatsiya va rag'batlantirish funktsiyasi-o'quvchi-yoshlaming hamda tarbiyachi-o'qituvchilaming ta'lim olish va ta'lim berish faoliyatini rag batlantirishni, tashqi stimullami adekvat qabul qilishni nazarda tutadi.

Tarbiyaviy jarayonda komillikka intilishni kuchaytiradi;

-nazorat funktsiyasi-ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma’aviy-ma'rifiy jarayon holati to g risidagi axborotga ega bo lishni bildiradi.

2.O’quv jarayonini tashkil etishning umumiy diagnostikasi

Pedagogik diagnostika o’quvchi shaxsidagi o’ziga xos xususiyatlami, individuallikm saqlagan holda intellektual, ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

• bola shaxsini rivojlantirishda majburiy ta’limga o’rin bo’lmasligi kerak, ya’ni bola o’zida o ’qishga qiziqish, motivatsiya hosil qilishi lozim

• o’quv materialini to’liq idrok etish uchun taqdim qilinayotgan ma’lumotga oid tayanch iboralar, diizma va tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

• o’quv materialini idrok etishda tanlash xususiyatining mavjudligi dialog shaklida tashkil qilingan darslar g’oyasi

• intellektual rivojlanishi deyarli bir xil bo’lgan guruh, sinf jamoalarini tashkil qilish

• o’qituvchi va o ’quvchi hamkorligini rivojlantirish g’oyasi

• o’qishdan bo’sh vaqtni mazmunli rejalashtirish g’oyasi.

0 ‘quv jarayonini tashxis etish tamoyillari. O 'z mazmun-mohiyatiga qarab pedagogik diagnostika quyidagi tamoyillarga asoslanib o'tkaziladi:

Maqsadga qaratilganlik tamoyili kuzatishni ma’lum maqsadga qaratilgan bo'Hshini talab qiladi. Ilmiy tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan kishi kuzatuv davomida tekshirish uchun bir qator farazlami ilgari surishi kerak.

Konstantlik tamoyili kuzatuv davomida yuzaki, dastlabki hisssiyotlar bilan cheklanmaslikni, tasodifiy, qisqa muddatli ayrim hodisalaming ahamiyatini oshirib yubormaslikni talab qiladi. Kuzatuvchi turli vaziyatlarda o'sha hodisani tekshirib kurishi yokibir nechta kuzatuvchi hodisani kuzatishi lozim. Bu kuzatuvchilaming xulosalari yoki natijalari qanchalik bir-biriga to'g'ri kelishi kuzatuvning konstant yoki bunday emasligini ko'rsatadi.

Nazorat tamoyili kuzatuvchining bir necha bor kuzatuvi yoki bir qator kuzatuvchilaming ma’lum guruh yuzasidan chiqargan natijalari, xulosalarinazorat kuzatuvi davomida boshqa guruxlarda tekshirib ko'rilishini talab qiladi. Bu kuzatuv natijasida olingan ma’lumotlar faqat shu sinaluvchi guruhning o'zigagina xos xususiyatlar emasligini aniqlash uchun lozim bo'ladi. Natijaning aniqligini, barchaga xosligini tekshirish uchun shu tadqiqotni boshqa sinf, guruh, jamoa yoki o'quv maskanida ham o'tkazib ko'rish kerak. 0 ‘qituvchining diagnostik faoliyati.

O’qituvchining diagnostik faoliyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:
-O’quvchilarga bilim, ko’nikma, malakalami (BKM) rivojlantirishga yordam beradi;
- Turli xil yo’nalishdagi reja (strategiya)lami qanday qo’llash kerakligi bo’yicha maslahat beradi;
- Faol qayta aloqani ta’minlaydi;
- Noan’anaviy usullar bilan o’quvchi laming harakatlarini qo’llaydi va mustahkamlaydi;
- O’quv faoliyatidagi qiyinchiliklami yengishga yordam beradi;
- O’quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;
- O’quvchilaming o ’quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

Kasbiy faoliyatni diagnostika qilish bosqichlari:
1. O’z-o’zmi tahlil qilish va zarur narsalami anglash;
2. O’zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O’zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

O’qituvchining diagnostik faoliyatidagi maxsus kompetensiyalar:
Faniga doir maxsus metodlami bilish;
- Ta’limni tabaqalashtirish;
- O’quvchilar ehtiyojini bilish;
- Turli yosh xususiyatlarini bilish;

Nazorat savollari

1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar.
2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoiiyatini baholash-ning uyg'unligi.

3.Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli.
4.Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar.

5. O’quvchilar bilimini tashxis qilish didaktik tushuncha sifatida

6. O’quv faoliyatini nazorat qilish va baholashda o’quvchilarning ruhiy holatini hisobga olish

12-MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA VA INKLYUZIV TA’LIM ASOSLARI

Asosiy savollar:

1.Korrektsion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog’i sifatida.
2.Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.

Darsning maqsadi: Ta’lim oluvchilarda defektologiya fanining maqsad va vazifalarini, shuningdek, shuningdek, defektologiya fanining tarmoqlari, hozirda mustaqil fan sifatida surdopedagogika, tiflopedagogika, oligafrenopedagogika va logopediya fanlarining mazmun-mohiyatini ochish

Kalit so’zlar: Korreksiya, nuqson, kamchilik, defektologiya, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya, insonparvarlik, anomal bolalar, ijtimoiy adaptatsiya, bolani dinamik o’rganish, ijtimoiy reablitatsiya

1.Korrektsion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog’i sifatida.
Korrektsion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo’lgan o’quvchilarni korrektsion o’qitish va tarbiyalash bilan korrektsion pedagogika (defektologiya) shug’ullanadi. Korrektsion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta’limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega,

maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korrektsion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Pedagogik lug'atda «korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «correctiio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi[1].

Ana shu lug'atda «korrektsion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korrektsion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korrektsion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korrektsion, korrektsion-rivojlantiruvchi, korrektsion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korrektsion-o'qitish, psixokorrektsion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korrektsion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korrektsion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korrektsion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrektsion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
2) differentsatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korrektsion pedagogikaning kategoriyalari. Korrektsion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi, psixik funktsiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda

[1] Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь. – Москва, Педагогика, 1999.

qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korrektsion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korrektsiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korrektsion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korrektsion–tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korrektsion –tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korrektsion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

5. Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korrektsion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funktsiyalarning o'rni to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

2.Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korrektsion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korrektsion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.
4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korrektsion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan korektsion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasi yaratish.

Korrektsion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korrektsion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korrektsion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korrektsion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differentsial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korrektsion o'qitish. Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunktsiyalari ekaniligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

PROQni bolalar rivojlanishini ko'rsatuvchi anomaliya sifatida o'rganish XX asrning 50-yillarning oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi.

Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi to'rt variantini keltiradilar:

1) konstitutsional kelib chiqish;
2) somatogen kelib chiqish;
3) psixogen kelib chiqish;
4) tserebral–organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati etarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'liB, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQli bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korrektsion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korrektsion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korrektsion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korrektsion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati – 4-5 yil).
2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati - 5 yil).

Bolalarni korrektsion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta'lim (V-IX sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korrektsion-rivojlantiruvchi sinflarda ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korrektsion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'quv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sabablari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korrektsion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korrektsion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. "Oligofreniya" (yunoncha olygos – kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infektsion kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.
2. Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994 yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korrektsiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqqiqotlarda maxsus (korrektsion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Nazorat savollar

1. O'quvchilar nutqiy buzilishi qanday psixologik-pedagogik xususiyatlariga ega?
2. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korrektsion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
3. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korrektsion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
4. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilar bilan korrektsion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

Asosiy adabiyotlar

13-MAVZU : TA'LIM MENEJMENTI ASOSLARI

Asosiy savollar:

1.Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.
2. Ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquqlari

Darsning maqsadi: Xalq ta'limi tizimini boshqarish haqida talabalarga tushuncha beradi. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanish xususiyatlarini tushuntiradi. Boshqarishga qiziqish hosil qildiradi.

Kalit so'zlar: Boshqarish, rahbarlik qilish, vakolatli tashkilotlar, boshqarish omillari, ichki boshqarish, nazorat qilish, maslahatli boshqarish**.**

1.Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha.

Ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham tEranroqdir. Masalan, «ta'sir etish» tushunchasining o'rniga «o'zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib etganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;
- barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;
- ta'limning normativ-huquiy bazasi rivojlantiriladi;
- moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;
- ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;
- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;
- ta'lim menejmenti – bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);
- menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;
- ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, endilikda ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o'tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar hamda ota-onalarga ta'lim dasturlarini, turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining (1997 yil) 3-moddasida belgilangan ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Xalq ta'limi Vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi O'zbekiston Respublikasida ta'limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o'zini vakolatlik doirasida:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqaradi; ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;
- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;
- o'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etadi, o'quv va o'quv-usulbiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;
- ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to'g'risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;
- davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Xalq ta'limi bo'limlari, shuningdek, mahalliy hokimlik organlari tasarrufiga kiradi va unga bo'ysunadi.

Yuqorida qayd etilgan organlar maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlash ham ikradi.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspektsiyasi, ya'ni, vazirliklar va xalq ta'limi bo'limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o'rganadi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg'or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi, maktab direktori va o'qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko'rsatadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o'quv-ta'lim va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, pedagog kadrlar bilan ta'minlsh, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi (O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o’tkaziladigan maktab konferentsiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferentsiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi.

Davlat ta’lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta’lim muassasalarining faoliyat ko’rsatishi ham ta’limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

2. Ta'limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquqlari

Ta'limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish;

ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;

o‘quv va o‘quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta'lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Nazorat savollari

1. Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarishga ta’rif berish?
2. Menejment, ta’lim muassasasi menejmenti deganda nimani tushunasiz?
3. Ta’lim sohasini boshqarish qaysi sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladi? Ularning vakolatlariga nimalar kiradi?
4. Ta’lim muassasasida jamoatchilik boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?
5. Ta’lim muassasasida jamoatchilik boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?
6. «Umumiy o’rta ta’lim to’g’risida»gi Nizomga ta’rif bering.
7. Ta’lim muassasasi Ustaviga ta’rif bering

14-MAVZU: MAKTAB-PEDAGOGIK TIZIM SIFATIDA

Asosiy savollar

1.Pedagogik tizimni boshqarishning predmeti, prinsiplari va vazifalari
2.Pedagogik Kengash va uning vazifalari

Kalit so'zlar: Iqtisodiy boshqarish, ijtimoiy-siyosiy boshqarish, madaniy-marifiy boshqarish, rejalashtirish, tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, tekshirish, nazorat qilish, hisob-kitob va yakunlash.

1.Pedagogik tizimni boshqarishning predmeti, prinsiplari va vazifalari

Maktabga rahbarlik qilish va uni boshqarish O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston respublikasining xalq ta'limi to'g'risidagi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi..

Maktabni davlat jamoatchilik asosida boshqarish, xalqchillik, oshkoralik, o'z-o'zini boshqarish prinsiplari mintaqa xususiyatlarini hisobga olib boshqariladi. O'quvchilar, matab xodimlarini birlashtiruvchi maktab jamoasi o'z vazifasini ota-onalar, mahalla qo'mmitalari, keng jamoatchilik bilan mustahkam hamkorlikda amalga oshiradi.

Maktabni boshqarish maktab pedagoglar kengashi tomonidan jamoani o'z-o'zini boshqarish va bevosita rahbar tomonidan tasdiqlangan maktab Nizomiga muvofiq amalga oshiradi.

Maktab konferensiyasi maktabning o'z-o'zini boshqarish asosiy bo'g'inidir. Konferensiyalar oralig'ida esa maktab kengashi oliy organ hisoblanadi.

Maktabning o'quv tarbiya jarayonini va uning joriy faoliyatini maktab Nizomida belgilab berilgan direktor boshqaradi.

O'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasb mahorati va ijodkorligini o'stirish maqsadida maktab pedagoglar kengashi, pedagog xodimlarni birlashtiruvchi jamoa tuziladi.

Pedagoglar kengashi raisi pedagog xodimlar jamoasi tomonidan saylanadi. Uning ish tartibi maktab Nizomida belgilab beriladi.

Bolalar, o'smirlar va yoshlar jamoat tashkilotlari matabda o'z Nizomlari asosida amaldagi qonunchilikka muvofiq faoliyat ko'rsatadilar.

Pedagoglar jamoasi, maktab rahbariyati va bolalar, o'smirlar hamda yoshlar jamoat tashkilotlarining munosabati o'zaro hurmat, ishonch, ma'muriy va hamkorlik asosida quriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoida, yo'l-yo'riq va talablar asosida maktabni ilmiy asosda to'g'ri boshqarish – maktab rahbarlari, maktab o'qituvchilarining mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan metod birlashmalarning rahbarlari, maktab kengashi va konferensiyasining rahbarlari, o'qituvchilar va sinf rahbarlarining maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslarini, boshqarish bobidagi ilg'or pedagogik tajribalarni qanchalik darajada egallab olganliklariga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Maktabni boshqarish ijodiy jarayon bo'lib, o'ziga xos bir san'atdir. Bu pedagogik jarayon maktab rahbarlarining xilma-xil ish usullarida namoyon bo'ladi. Bu usullar esa har bir rahbarga maktabshunoslikning dolzarb masalalarini nazariy va amaliy jihatdan bilib olish maktab maorif sohasidagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish hamda bu sohadagi omilkor kishilarning (xalq ta'limi organlarining xodimlari, maktab o'qituvchilari va tarbiyachilarining) maktabni boshqarish borasidagi fikr va mulohazalarni o'rganish hamda mazkur fikr, mulohazalardan maktab ishini boshqarish jarayonida ijodiy foydalanishni taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida maktab ishini boshqarishda va rahbarlik uslubini yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir maktab rahbari ta‘lim-tarbiya ishining u yoki bu masalasi yuzasidan qaror qabul qilganida, uning bajarilishini tashkil qilganida, qo‘l ostidagi (o‘qituvchi, sinf rahbari, tarbiyachi kabilar) xodimlar ishini nazorat qilganida u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Lekin har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayoni o‘zi uchun xos bo‘lgan, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan turli samarali usullar bilan ish ko‘radi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilar bilan bevosita aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi. Rahbarlik uslubi uchun demokratizm, jamoatchilik, yuksak javobgarlik va siyosiy onglilik, tashabbuskorlik kabi aqidalar xosdir.

Uslub jamoadagi ijtimoiy munosabatlarning butun yig‘indisi bilan shakllanadi, biroq uslub asosan rahbarga bog‘liq. Xuddi shu rahbar maktabning ta‘lim-tarbiyaviy va xo‘jalik ishlarining bir-biriga chambarchas bog‘liqligini amalga oshiradi. Uning faoliyatidagi muvaffaqiyat juda ko‘p omillar bilan belgilanadi.

Har bir rahbar - tarbiyachidir. U pedagogik jamoani tarbiyalash uchun yuksak javobgarlikni his etish tuyg‘usiga to‘liq ega bo‘lmog‘i lozim. Rahbar qo‘l ostidagilar shaxsiga shu qadar pedagogik madaniyatlilik bilan ta‘sir ko‘rsata bilishi kerakki, bu ta‘sir natijasida mazkur maktab pedagoglar jamoasining har bir a‘zosida onglilik shakllansin, u pedagogik mehnatga nisbatan ijodiy yondoshadigan, ijtimoiy hayotda faol qatnashadigan bo‘lsin. Maktab direktorining jamoaga tayanib rahbarlik qilish san‘ati qo‘l ostidagilarning, maktabdagi jamoat tashkilotlari vakillarining fikrlarini anglab olishi va tezda to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyati boshqaruv ishini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabning ta‘lim-tarbiya va xo‘jalik masalalari kengashib muhokama qilinishi lozim, qabul qilingan qarorlarni bajarishda maktab pedagoglar jamoasining har bir a‘zosi tashabbus ko‘rsatishi zarur. Rahbarning maktabni boshqarish bo‘yicha mehnatini qaror qabul qilish uchun sarflangan vaqtga qarab emas, balki uning faoliyatidagi pirovard natijani hisobga olish bilan baholash maqsadga muvofiq ishdir.

Maktab rahbari pedagoglar jamoasida o‘rtoqlarcha hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarini rivojlantirish uchun javobgardir. Maktab jamoasida yaxshi ijtimoiy psixologik muhit va vaziyatning bo‘lishi ko‘p jihatdan rahbar bilan o‘qituvchi va tarbiyachilar o‘rtasidagi munosabatlarga ham bog‘liqdir. Mustahkam intizom bo‘lgan taqdirdagina normal pedagogik ish vaziyatini va jamoada to‘g‘ri o‘zaro munosabatlarni vujudga keltirishi mumkin. Mustahkam pedagogik intizomga esa maktab rahbarining talabchanligi, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid hamda oshkoralikni rivojlantirish yo‘li bilan erishiladi.

Maktab ishini boshqarish tizimidagi ana shu masalaning mohiyatiga to‘g‘ri tushunib, maktabning ta‘lim-tarbiya ishiga rahbarlik uslubini to‘g‘ri qo‘llayotgan va bu borada yaxshi natijalarga erishayotgan maktab rahbarlari respublikamiza ko‘plab topiladi.

Rahbar o‘qituvchi yoki tarbiyachining pedagogik mehnatiga yuzaki baho berganida, kishida mehnatga nisbatan qiziqish kamayadi. Shuning uchun maktab rahbari o‘qituvchi yoki tarbiyachining ta‘lim-tarbiya sohasidagi har bir yutug‘ini, u ko‘rsatgan yoki ko‘rsatayotgan tashabbus va epchillikni darhol alohida u yoki bu shaklda qayd qilishi katta ahamiyatga egadir. Har bir maktab rahbari xodimlar bilan ishlashning ana shu qismini hech qachon esdan chiqarmasligi lozim. Chunki, o‘qituvchi xodimlarning mehnatiga to‘g‘ri baho berish va ularni rag‘batlantirib borish maktabning o‘quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir.

Boshqarish madaniyatining elementlari tegishli mezonlar bilan belgilanadigan axloq qoidalarini (huquq va etikani) o‘z ichiga oladi. Huquq mezonlari xalq maorifi to‘g‘risidagi qonunshunoslikni va davlat huquq-normativ aktlarida, xalq maorifi qonun asoslarida hamda o‘rta umumiy ta‘lim maktabi Nizomiga aks ettirilgan. Ularda boshqarish xodimlariga nisbatan umumiy talablar bayon qilingan. Etika (axloq to‘g‘risidagi fan) axloq mezonlarini va kundalik axloq qoidalarini ishlab chiqadi.

Maktab ishini boshqarishda etika mezonlariga to‘liq rioya qilish katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu mezonlar huquq mezonlarini aniqlashtiradi va u bilan birgalikda rahbarning xulq-atvori yo‘lini belgilaydi.

Maktab rahbarlari bu mezonlarga to‘liq amal qilishlari lozim. Ular o‘z rahbarlik ishlarida etikaning gumanizm, muloyimlik, o‘zaro yordam kabi mezonlariga tayanadilar. Shuning bilan birga, maktab rahbarining ijtimoiy ahvoli, uning o‘ziga xos etikalarini ham belgilaydi. Masalan- maktab rahbari yuqori bo‘g‘inlarga yolg‘on axborotlar (ko‘zbo‘yamachilik) berishga, statistik hisobot mezonlarini buzishga aslo yo‘l qo‘ymasligi kerak. Boshqarish madaniyatida so‘zning ustidan chiqish alohida ahamiyatga egadir. So‘z berdingmi, va‘da qildingmi, tadbir belgilandimi-aniq mo‘ljallangan muddatda bajar. Qo‘l ostingdagilar bilan bo‘lgan munosabatda ularga nisbatan odilona teng qarash, ularning o‘quv-tarbiya ishlarini to‘g‘ri baholash, muvaffaqiyatlari uchun ularni o‘z vaqtida maqtash va rag‘batlantirish boshqarish madaniyatining muhim shartlaridan biridir.

2.Pedagogik Kengash va uning vazifalari

Pedagogik Kengash – ta’lim muassasasining jamoatchilik boshqaruv organi. Ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog’liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o’qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o’stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko’rsatadi. Pedagogik Kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta’lim muassasasi (umumiy o’rta ta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o’tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;
- ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo’nalishlarini belgilaydi;
- ta’lim muassasasida o’quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;
- ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo’yicha yo’l-yo’riqlarni ishlab chiqadi;
- pedagogik jamoaning ma’lum yo’nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;
- ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o’z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta’lim muassasasini rivojlantirish yo’nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;
- ta’lim muassasasi jamoasi oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;
- o’quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;
- o’quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;
- ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga oid barcha masalalarni o’z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;
- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo’yicha o’z takliflarini berish;
- o’quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo’yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o’tkazish shakli va vaqtini belgilash;
- ta’lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko’chirish va bituvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo’yish bo’yicha qaror qabul qilish;
- ta’lim darayonini tashkil qilish hamda ta’lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo’yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta’lim maqsadiga muvofiq holda o’quvchilarni rag’batlantirish va jazolash bo’yicha masalalarni hal etish;
- chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;
- pedagogik Kengash a’zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko’rsatgan ta’lim muassasasi xodimlarini rag’batlantirishga tavsiya qilish;
- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o’tgan o’quvchilarga o’rnatilgan tartibda hujjatlar berish to’g’risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig’ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o’z akini topadi:

Direktor va uning o’rinbosarlari vazifalari. Ta’lim muassasasining o’quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni ta’lim muassasasi direktori olib boradi.

Ta’lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:
- davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta’lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;
- o’quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta’min etish;
- o’quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablarining rioya qilinishi, shuningdek, ta’lim muassasasidan tashqarida ma’naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo’yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustoxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko’rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo’shatish;
- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o’tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;
- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta’lim-tarbiyaning ilg’or shakl va usullarini qo’llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- ta’lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag’lar, sarf-xarajat hisobini yuritish;
- ta’lim muassasasi me’yoriy hujjatlarining to’g’ri yuritilishini ta’minlash;
- ta’lim muassasasi pedagogik Kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o’z faoliyati to’g’risida hisob berib turish.

Ta’lim muassasasi direktorining o’quv-tarbiya ishlari bo’yicha o’rinbosarining vazifalari:
- o’quv haftasi va o’quv mashg’ulotlarining davomiyligini ta’minlash;
- dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o’z vaqtida samarali o’tkazilishini ta’minlash;
- har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta’lim muassasasi pedagogik Kengashi a’zolariga o’quv jarayonining borishi xususida va saqlanishiga javob berish;
- o’quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;
- o’quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo’yicha direktor o’rinbosarining vazifalari:
- ta’lim muassasasida o’quvchilarning o’z-o’zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta’minlash;
- ta’lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o’tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;
- ta’lim muassasasi o’quvchilarining sinf, guruh yoki ta’lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg’ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;
- ta’lim muassasasidagi «Yosh etakchi»ning ishini nazorat qilish va unga yo’l-yo’riq ko’rsatish.
-

Nazorat savollar

1.Ta’lim muassasasida jamoatchilik boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?
1. «Umumiy o’rta ta’lim to’g’risida»gi Nizomga ta’rif bering.
2. «O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to’g’risida»gi Nizom haqida gapirib bering.

3. Ta’lim muassasasi Ustaviga ta’rif bering
4. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillarini aytib bering.
5. Ta’lim muassasasida ichki boshqaruvning vazifalarini ko’rsating.
6. Ta’lim muassasasida ichki boshqaruvning vazifalarini ko’rsating.
7. Pedagogik Kengashning vazifalari nimalardan iborat?
8. Direktor va uning o’rinbosarlari vazifalarini ayting.
9. Ta’lim muassasasida metodik ishlar qay tarzda amalga oshiriladi?
10. Metodik Kengash va metodik birlashmalarning faoliyati haqida gapirib bering.
16. Metodik Kengash va metodik birlashmalarning faoliyati haqida gapirib bering.
17. Pedagog kadrlar malakasini oshirishdan maqsad nima? U qanday amalga oshiriladi?
18. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish mahsadini bayon eting.
19. Yosh o’qituvchilar bilan olib boriladigan metodik ishlar nimalardan iborat bo’lishi zarur?

15-MAVZU: PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK

Asosiy savollar:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni asosida o‘qituvchi faoliyati mazmuniga qo‘yiladigan talablar.

2.Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari.

Dars maqsadi: Pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlik fanining maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish

Kalit so’zlar: mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik deontologiya, pedagogning kommunikativ komptentligi, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik nazokat (takt), nizo, pedagogik nizo, pedagogik nizo turlari, pedagogik nizolarni hal qilish yo‘llari.kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik kasbiy kompetentlik, Individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash.

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni asosida o‘qituvchi faoliyati mazmuniga qo‘yiladigan talablar

Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo’lishiga erishish, ularning o’z qobiliyati va iste’dodini ro’yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda Ta’lim to’g’risidagi Qonun dastlab 1992 yilda qabul qilingan, 1997 yilda esa yangi tahrirdagisi qabul qilingan edi.

2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasida hozirgi davrdagi amalga oshirilgan islohotlar o‘z aksini topdi.

Qonun loyihasini takomillashtirish davomida 238 ta norma va qoida qayta ko‘rib chiqildi, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish imkoniyatidan foydalangan holda 123 ta norma loyiha tarkibidan chiqarildi hamda 54 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi modda bilan almashtirildi. Shuningdek, ma’muriy byurokratik mexanizmga doir 7 ta modda butunlay chiqarib tashlandi.

Mazkur Qonunda ushbu yangi norma va qoidalar o‘z aksini topishi natijasida qonun 11 bob va 75 moddadan iborat tartibda ishlab chiqildi.

1-bob. Umumiy qoidalar.
2-bob. Ta’lim tizimi, turlari va shakllari.
3-bob. Ta’lim tizimini boshqarish
4-bob. Ta’lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish.
5-bob. Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi
6-bob. Ta’lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari
7-bob. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.
8-bob. Nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditasiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta’lim to’g’ridagi hujjatni tan olish, ta’lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo’yish.
9-bob. Ta’limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash.
10-bob. Ta’lim sohasidagi xalqaro hamkorlik.
11-bob. Yakunlovchi qoidalar.

Yangi qonunning asosiy farqlari haqida qisqacha:

birinchidan, ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan (*kunduzgi*) va ajralmagan holda (*sirtqi, kechki, masofaviy*);
- nazariy - ta’lim tashkiloti negizida, amaliy - ta’lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim - o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirishni o‘z ichiga olib, uning yakunlari bo‘yicha ta’lim oluvchilardan davlat ta’lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o‘tish;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta’lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.

uchinchidan, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko‘proq etibor qaratilgan:

- ta’lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, ustavga talablar;
- pedagogik xodimlar, ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo‘yicha. Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan.

to‘rtinchidan, davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalari va dasturlarini, ta’lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni joriy etish bilan bog‘liq masalalar tartibga solingan. O‘qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan;

beshinchidan, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan:

a) birinchilarga quyidagilar kiradi:

- nodavlat ta’lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash – litsenziyalar Ta’lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta’lim turi uchun alohida beriladi;
- ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish – Ta’lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta’lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e’tiboran 5 yil davomida akkreditatsiyadan o‘tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan tashkilotlar maxsus reyestrga kiritiladi, bu haqdagi ma’lumotlar Ta’lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi;

- xorijiy davlatda 1992 yil 1 yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish, shuningdek ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish. Tan olish va apostil qo'yish ham Ta'lim inspeksiyasi vakolatiga kiradi;

b) Ta'lim inspeksiyasi quyidagilarga haqli:

- nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va monitoringini amalga oshirish – biznes-ombudsmanni xabardor qilgan holda;
- ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligini aniqlagan hollarda – ularni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnomalar kiritish. Taqdimnoma bajarilmagan taqdirda - ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatini bekor qilish.

2.Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. "Pedagogik mahorat" tushunchasi o'tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. "Pedagogik texnologiya" fani o'qitila boshlagach esa "Pedagogik mahorat" fanining asoslari uning mazmuniga singdirib yuborildi.

Pedagogik mahorat deganda pedagogik faoliyat yuritishda murabbiyning qobiliyatlarini oliy darajada namoyon etishi, butun borlig'ini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirish tushiniladi. Pedagogik mahorat uzoq vaqt davomida o'qish-o'rganish, mashq qilish, tajribalar asosida hosil qilinadi. Pedagogik mahoratning boshqa kasb mahoratlaridan farqi shundaki, u bir qancha qirralarga bo'linadi.

Xulosa kilib aytganda, pedagogik mahorat - yuksak darajada pedagogik faoliyat yuritishga o'zini yo'naltira bilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir.

Pedagogik **mahoratni** quyidagi tarkibiy **qismlar** tashkil etadi:

- **insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi;**
- **kasb bilimdonligi;**
- **pedagogik qobiliyatlar (didaktik, tashkilotchilik, pertseptiv, sugestiv, akademik);**
- **pedagogik texnika.**



1. O'qituvchi shaxsining insonparvarlik (gumanistik) yo'nalishi - g'oyalari, qiziqishi, qadriy yo'nalishlari.

Har bir o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'nalishi turlicha, ko'p qirrali. Uning qadriy yo'nalishini**:** 1) o'z-o'zida bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishga; 2) pedagogik ta'sir

etish vositalariga (o'quv materiali va hakozo); 3) o'quvchiga, bolalar jamoasiga; 4) pedagogik **faoliyat** maqsadiga - faoliyat ob'ekti, vositalarini - o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin, ya'ni gumanistik strategiya.



2. Kasbiy bilimdonlik.

Pedagogik mahoratning asosiy poydevori - kasbiy bilimlardir. O'qituvchining bilimlari, bir tomondan, o'zi o'qitadigan predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmuni o'zi o'qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi.

Pedagogning mahorati - bilimlarni "insoniylashtirish" dadir, ularni auditoriyaga oddiy kitobdangina emas, balki o'zining dunyoqarashi sifatida bayon etadi.

Pedagogning kasbiy bilimlari asosida pedagogik ong shakllanadi, uning harakatlari asosida yotuvchi printsiplar va qoidalarga amal qilinadi.

3. Pedagogik qobiliyatlar.

Bu psixologik jarayonda kechadigan xususiyat bo'lib, pedagogik faoliyat samarasiga ta'sir etadi. Pedagogik qobiliyatlarni bir qancha yirik olimlar (Gonobolin F.N.,Kuzmina N.V., Krutetsskiy V.N. kabi) tadqiq etganlar.

Qayd etilgan mualliflarga suyangan holda shaxsning pedagogik faoliyatiga tegishli asosiy oltita qobiliyatini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Muloqot qila olish, bu o'z ishiga, kishilarga bo'lgan munosabat, xayrixohliq, yaxshilikni ravo ko'rish.
2) Idrok eta olish qobiliyati - kasbiy hushyorlik, sezgirlik, pedagogik zehn.
3) Shaxs jo'shqinligi - irodaviy ta'sir ko'rsata olish va mantiqan ishontira olish qobiliyati.
4) Hissiy turg'unlik - o'zini qo'lga olish qobiliyati.
5) Optimistik faraz, baholash qobiliyati.
6) Ijodiy qobiliyat.

4. Pedagogik texnika

Bu pedagogik mahoratning to'rtinchi tarkibiy qismi - o'qituvchi xatti-harakatini tashkil etish shakli. Faqat bilish, yo'nalish va qobiliyatlargina ko'nikmalarsiz yaxshi natijalar garovi emas.

Pedagogik texnika o'z ichiga ikki guruhdagi ko'nikmalarni oladi: o'z-o'zini boshkara olish ko'nikmalari va pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida o'zaro ta'sir etish ko'nikmalari. Birinchi guruh. ko'nikmalari - bu o'z tanasi, hissiy holati, nutq texnikasini boshqarishiga qaratilgan. Ikkinchisi – didaktik, tashkilotchilik ko'nikmalari, aloqali o'zaro ta'sir texnikasiga ega bo'lish. (bu haqda keyinchalik alohida to'xtaymiz).



Pedagogik mahoratni egallash vositalari. Pedagogik mahoratni shakllantirish mumkin. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida birinchi kunlardan kasb tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy o'rinni psixologik-pedagogik fanlar tizimi egallaydi (pedagogika nazariyasi va tarixi, yangi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, psixologiya). Mutaxassislik fanlar fundamental bilim berish bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchini dunyoqarashini, metodologik bilimlarini shakllantiradi.

Pedagogik mahorat amaliyot davrida yanada rivojlanadi va talabalarda amaliy ko'nikma, malakalar tekshiriladi. Pedagogik mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bo'lajak o'qituvchini ijtimoiy -

pedagogik faoliyati bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta'lim muassasasi tayyor holdaga mahoratli pedagogni etkazib bera olmaydi. Mahoratga erishishning eng samarali va to'g'ri yo'li o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko'p, qolaversa o'qituvchilikning o'zi ijodiy soha hisoblanadi, izlanishni talab etadi.

Nazorat uchun savollar:

1.“Mahorat” tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?

2.Pedagogik mahorat nima?

3.Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan

4.Pedagogik nazokat (takt) nima?

5.Pedagogik nizo nima va unga xos belgilar qaysilar?

6.Pedagogik nizo qanday yo‘llar bilan hal etiladi?

7.“Imidj” va “pedagogik imidj” deganda nimani tushanasiz?

8. pedagogning imidji qanday bo‘lishi zarur?

9.Pedagogik kreativlik nima?

10.Kasbiy kreativli nima?

SEMINAR MAShG'ULOTLAR UChUN MATERIALLAR

I. UMUMIY QOIDALAR

“Umumiy pedagogika va psixologiya” fanini chuqur o'zlashtirishda seminar mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Seminar mashg'ulot – o'quv materialini jamoa bo'lib o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Shuningdek, amaliy mashg'ulot – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini fanning ishchi o'quv dasturida ko'zda tutilgan hajmdagi amaliy mashg'ulot soatlarida talaba tomonidan fan o'qituvchisining bevosita rahbarligi asosida auditoriyada o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Seminar mashg'ulotning asosiy maqsadi pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini auditoriya sharoitida bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdir. Seminar mashg'ulotga talaba darsliklar, o'quv adabiyotlari, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalari, Internet

resurslari, ZiyoNET materiallari va fanning o’quv-uslubiy majmualaridan foydalangan holda tayyorgarlik ko’rib kelishi nazarda tutiladi.

№ 1- SEMINAR MASHG’ULOTI

Mavzu: Pedagogika fanining predmeti, tadqiqot metodlari

Maqsad: Talabalarga pedagogika predmeti, vazifalari va ijtimoiy tarbiya bosqichlari va asosiy kategoriyalari haqida tushuncha hosil qilish, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, tizimi to’g’risida ma’lumotlar ini aniqlash, ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarni tashkil etish yo’llarini o’rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston”, 2017.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3. Alex Moore.Teaching and Learning Pedagogy,Curiculum and Culture UZA, 2012 Routletge
4.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
5. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

ELEKTRON TA‟LIM RESURSLARI

6. www. tdpu. uz

7. www. pedagog. uz

8. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 2-SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Pedagogik ta'limotlar tarixi
Maqsad: *Pedagogika tarixi fanini o'rganish va tahlil qilishda qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy me'rosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o'quv qullanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar orqali o'rganadilar va talabalarga kengroq ma'lumot berish.*

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-son Farmoni. G'G' O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-Toshkent, 2017.-№ 6. –B. 25-28.
2. Abdukarimov H. Kasbiy pedagogik faoliyat.-T.: "O'qituvchi" NMIU, 2010.-160 b.
3.Pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishlari uchun darslik.U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva.-Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
4.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
5. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

6. www. pedagog. uz

7. www. Ziyonet. uz

№ 3 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida modernizatsiya jarayonlari
Maqsad: Talabalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, va uning asosiy tarkibiy qismlari haqida tushuncha hosil qilish, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoillarini, ta'lim tizimi va uning turlarni iyoritish, pedagogik mahoratni egallash yo'llari o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.-76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. G'G' Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773) - son.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi G' M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

5. Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

7. www. pedagog. uz

8 www. Ziyonet. uz

№ 4 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Pedagogik jarayonda tarbiyaning mazmuni.

Maqsad: "Tarbiya" tushunchasining mohiyatini yoritish, talabalarga tarbiya maqsadi, vazifalari, mazmuni, ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari va tarbiya qonuniyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish, ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari hamda tarbiya jarayonining o'ziga xosligini ifodalovchi bilimlarni berish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.Karimov I.A. O'zbekistonninng o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2.Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3.O'zRning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni G'G' Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
4.Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Pedagogika G' A.Q.Munavvarovaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.
6.Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 2. – Moskva: Vlados, 1999.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

7. www. tdpu. uz
8. www. pedagog. uz
9. www. Ziyonet. uz
10. www. edu. uz
11. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 5 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Tarbiya jarayonining shakllari va metodlari

Maqsad : Talabalarga tarbiya metodlari, ularning maqsad va vazifalari hamda o'z-o'zini tarbiyalash metodlari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish orqali ularda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish

1.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz."O'zbekiston" 2016

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston”, 2017.
7.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
10. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
16 .Azizxo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.

ELEKTRON TA‟LIM RESURSLARI

1. www. tdpu. uz

2. www. pedagog. uz

3. www. Ziyonet. uz

4. www. edu. uz

5. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 6 - SEMINAR MASHG’ULOTI

Mavzu. Ijtimoiy pedagogika asoslari.

Maqsad : Talabalarga oila tarbiyasi mazmunini, oila oila tarbiyaning tarkibiy qismlarini, shakl va metodlari oila tarbiyaning rolini, oila tarbiyasining asosi ekankigi to’g’risidagi nazariy bilimlarni berish orqali ularda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko’nikmalarini hosil qilish

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 1992.
2. Mahkamov U. O’quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – Toshkent: O’zbekiston, 1993.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998.
4. O’zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat. – Toshkent: Adolat, 1995.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi G’ M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 1996.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. –T.: Fan va texnologiya. 2008.

ELEKTRON TA‟LIM RESURSLARI

7. www. tdpu. uz

8. www. pedagog. uz

9. www. Ziyonet. uz

№ 7- SEMINAR MASHG’ULOTI

Mavzu: Ta’lim jarayoning mohiyati

Maqsad: Talabalar tomonidan mavzu mohiyatini o’rganilish holatini tahlil qilish, ularning didaktikaning predmeti, funktsiyasi, vazifalari, didaktikaning tashkil topishi, rivojlanishi, didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi borasidagi bilimlarga ega bo’ishi va ularda ko’nikma va malakalarni hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
3.Alex Moore.Teaching and Learning Pedagogy,Curiculum and Culture UZA, 2012 Routletge
4. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.
5.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

7. www. tdpu. uz

8. www. pedagog. uz

9. www. Ziyonet. uz

10. www. edu. uz

№ 8 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Ta'limning tashkiliy shakllari va metodlari
Maqsad: Talabalar ta'lim turlari, shakllari,sinf-dars tizimining o'iga xos xususiyatlari,dars, darsning asosiy shakli, darslarning asosiy turlari,darsning yordamchi turlari va darsga tayorgarligini o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-son Farmoni. G'G' O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-Toshkent, 2017.-№ 6. –B. 25-28.
3.Alex Moore.Teaching and Learning Pedagogy,Curiculum and Culture UZA, 2012 Routletge
4.Neil Selwyn.Education and Technology:Key Issues and Debates.Australia,2011 Continuum
5.Pedagogika.Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishlari uchun darslik.U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva.-Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
6.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 9 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Ta'limda innovatsion jarayonlar

Maqsad : Talabalar tomonidan mavzu mohiyatining o'rganilish holatini tahlil qilish, ularning ta'lim metodlari, ularning turlari, funktsiyasi va tavsifi, ta'lim vositalari, ta'lim usullari va ta'limni tashxis etish borasidagi bilimlarga egaliklarini baholash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.-76 b.
2.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. G'G' Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
5.Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
6. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

7. www. tdpu. uz

8. www. pedagog. uz

9. www. Ziyonet. uz

10. www. edu. uz

11. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 10- SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Elektron pedagogika asoslari

Maqsad: Talabalarga Elektron pedagogika asoslarini o'ziga xos jihatlari, tamoyillari hamda ushbu bosqich ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Mirziyoev Sh.M.Erkin va faravon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz."O'zbekiston" 2016
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
3.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

4. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

5. www. pedagog. uz

6. www. Ziyonet. uz

7. www. edu. uz

8. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 11 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Pedagogik diagnostika
Maqsad: Talabalar tomonidan pedagogik diagnostika mohiyatining o'rganilish holatini tahlil qilish, ularningo'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi, ta'lim jarayononi boshqarish bosqichlari, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati,bilimlarni o'zlashtirish jarayoninig tuzilishi, bilimlarni egallash bosqichlari,bilimlarni egallashning dinamik xarakteri va ta'limni tashxis etish borasidagi bilimlarga egaliklarini baholash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
2.O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral PF-4947-son Farmoni. G'G' O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-Toshkent, 2017.-№ 6. –B. 25-28.
3.Alex Moore.Teaching and Learning Pedagogy,Curiculum and Culture UZA, 2012 Routletge
4.Neil Selwyn.Education and Technology:Key Issues and Debates.Australia,2011 Continuum
5.Pedagogika.Nopedagogik oliy ta'lim yo'nalishlari uchun darslik.U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva.-Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
6.Pedagogika. M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O„zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz

№ 12 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Korreksion pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari
Maqsad : Talabalarga korrektsion pedagogikaning predmeti va mohiyatini, korrektsion pedagogikaning asosiy vazifa va kategoriyalarini, anomal bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlar yo'nalishlarini, bola rivojlanishidagi nuqsonlarning turlarini, bola rivojlanishidagi nuqsonlarni tashxislash tamoyillari va metodlari, ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishni asosi ekankigi to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish orqali ularda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.-76 b.
2.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. G'G' Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773) - son.
4. Novotortseva N.V. Korrektsionnaya pedagogika i spetsialnaya psixologiya. Slovar. – Moskva: Pedagogika, 1999.
5. Usanova O.N. Ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar. –Moskva: Pedagogika, 1995.
6. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi G' M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

№ 13 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Ta'lim muassasasi menejmenti.

Maqsad: Talabalarga ta'lim sohasidagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, uzluksiz ta'lim tizimi va turlari, xorijiy mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Frantsiya) ta'lim tizimi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish asosi ekankigi to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish orqali ularda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.-76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773) - son.
4. "Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan Metodika birlashmalari to'g'risida"gi Nizom G'G' Ta'lim taraqqiyoti j. – Toshkent: 2002. № 3.
5. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimi boshqaruv organlari va o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlari attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom G'G' Ma'rifat g. – Toshkent: 2004 yil, 16 oktyabr.
6. "O merax po organizatsii srednego spetsialnogo professionalnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistane" (ot 13 maya 1998 goda) G'G' Uchitel Uzbekistana. – Tashkent: 1998 god, 16 maya.
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi G' M.X.Toxtaxodjaeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

8. www. tdpu. uz

9. www. pedagog. uz

10. www. Ziyonet. uz

11. www. edu. uz

12. tdpu-INTRANET. Ped.

№ 14 - SEMINAR MASHG'ULOTI

Mavzu: Maktab – pedagogik tizim sifatida
Maqsad : Talabalarga ta'lim sohasidagi ta'lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari, ta'lim muassasalarining Nizom va Ustavlari, ta'lim muassasasini boshqarishning tamoyillari va vazifalari, ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni, ta'lim muassasasining boshqaruv organlari, ta'lim muassasalari rahbarlarining vazifalari, to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish orqali ularda tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.-76 2.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020 yil 19 may
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. G'G' Xalq so'zi. 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773) - son.
4."Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodika Kengashi to'g'risida"gi Nizom G'G' Ta'lim taraqqiyoti j. – Toshkent: 2002. № 3.
5."Umumiy o'rta ta'lim maktabi fan Metodika birlashmalari to'g'risida"gi Nizom G'G' Ta'lim taraqqiyoti j. – Toshkent: 2002. № 3.
6."O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimi boshqaruv organlari va o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlari attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom G'G' Ma'rifat g. – Toshkent: 2004 yil, 16 oktyabr.
7."O merax po organizatsii srednego spetsialnogo professionalnogo obrazovaniya v Respublike Uzbekistane" (ot 13 maya 1998 goda) G'G' Uchitel Uzbekistana. – Tashkent: 1998 god, 16 maya.
8.Ahliddinov R. Uzluksiz ta'limda pedagogik boshqaruv masalalari G'G' Uzluksiz ta'lim j. – Toshkent: 2002. № 3.

ELEKTRON TA"LIM RESURSLARI

9. www. tdpu. uz

10. www. pedagog. uz

11. www. Ziyonet. uz

12. www. edu. uz

13. tdpu-INTRANET. Ped.

MUSTAQIL TA'LIM MAShG'ULOTLARI

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahatlari va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi pedagog-xodimning rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Mustaqil ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

-kerakli ma’lumotlarni izlab topish, bilim olish va uni mustahkamlashning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
-axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
-an’anaviy o’quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;
-elektron o’quv adabiyotlar va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
-yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lish;
-Internet tarmog’idan maqsadli foydalanish, berilgan topshiriqningratsional echimini belgilash;
-ma’lumotlar bazasini tahlil etish;
-ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
-ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g’oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Talabalarning mustaqil ishi (TMI) – bu talabaning o‘ziga xos o‘quv faoliyati bo‘lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, ularning o‘qishga bo’lgan motivatsiyasini oshirish va muayyan fan sohasiga doir bilim, ko’nikma va malakalarini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan.TMI mazmuni ma’ruza, seminar va amaliy mashg’ulotlar mavzulari asosida shakllantirilgan. Mustaqil ish topshiriqlari ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida o’rganilmagan mavzularni ham o’z ichiga oladi.

Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:
- darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha mang’ulotlarga tayyorgarlik ko’rish, mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida esselar yozish;
- kitob va maqollalarga annotatsiya yozish;
- mavzular bo’yicha taqdimotlar tayyorlash, test tuzish va ularni echish;
- Internet tarmog’idan axborotlar izlash va tahlil etish va h.k.

Talabalarning mustaqil ish topshiriqlari o’quv fanining tarkibiy qismlari yoki modullari bo’yicha tavsiya etiladigan mustaqil ish mavzulari asosida tashkil etiladi.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Mavzu	Ko‘riladigan masalalar	Vaqt soat
1	Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari.	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar tayyorlash.	10
2	O‘qitishda interfaol metodlar.	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar tayyorlash.	10
3	O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar	10

	himoyasi.	tayyorlash.	
4	O‘qituvchining pedagogik mahorati.	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar tayyorlash.	10
5	Ta’lim muassasasi rahbarining shaxsiy sifatlari	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar tayyorlash.	10
6	Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi	Referat tayyorlash, Taqdimot qilish, Savol-javob tayyorlash, Test tuzish, Boshqotirma tuzish, Ko’zgazmali materiallar tayyorlash.	10
	Jami		60

MUSTAQIL ISHLARNING BAJARISH SHAKLI

1-Referat – (Wordda) Mavzuga doir kamida 4ta adabiyot va internet saytlardan foydalangan holda kamida 12ta varoq, 14 shriftda (The News Roman) 1 intervalda yoziladi. Kamida 1ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy.

2-Taqdimot – (power pointda), Kamida 3ta adabiyot va internet saytlardan foydalangan holda kamida 15ta varoq, ichida mavzuga doir kamida 10ta rasm. Kamida 1ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy.

3-Savol-javob – (Wordda) Mavzuga doir kamida 25ta savol tuzish (shundan 30%i oson, 40%i o’rtacha, 30%i qiyin darajadagi savollar). Kamida 2ta asosiy adabiyotlardan foydalanish majburiy. Savol-javoblar jadvalga joylashtiriladi: savol va javob bir qatorda joylashgani tavsiya etiladi

Tavsiyaviy na’muna:

№	Savol	Javob
1	**“Pedagogika”- bu?**	
2	**.....**	**.....**
...	**.....**	**.....**

4-Test tuzish – (Wordda yoki Telagram Quiz Botda).) Mavzuga doir kamida 20ta test tuzish (shundan 30%i oson, 40%i o’rtacha, 30%i qiyin darajadagi savollar). Kamida 2ta asosiy

adabiyotlardan foydalanish majburiy

5-Boshqotirma tuzish – (Wordda) Mavzuga doir kamida 5ta rebus, krasvord, kazus muammoli vaziyat, sirli quti, ssenariy, topshiriq va boshqa ko'rinishlarda

6-Ko'zgazmali materiallar tayyorlash – (Paintda) Mavzuga doir kanida 4 dona rasm, chizma, klaster, solishtirma jadvallar, partret va boshqa ko'rinishda

7-Itimoiy tarmoqlardan videorolik topish – (You Tubeda) Mavzuga doir videorolik topish yoki tayyorlash

MUSTAQIL ISHLARNI TOPSHIRISH TARTIBI

Mustaqil ishlarni quyidagi manzillarga yuborishingiz talab qilinadi

1. elekron pochtasiga
2. telegrami bor.
3. Maxsus ochilgan telegram guruhlariga

Man etiladi:

~~**Qo'yozma**~~

~~**Qog'ozga chiqarilgan shakllar**~~

~~**Mustaqil ishlarni bajarganlikni isbotlovchi boshqa dalillar. (videotasvir, audioyozishlar, skrinshotlar va hakazo)**~~

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH TARTIBI:

Bir semestr uchun berilgan 15ta mavzuning hammasini o'zlashtirish talab etiladi. Chunki oraliq va yakuniy nazorat ishlaridagi savollarning tahminan 50-60%ini ***Mustaqil ta'limning mavzulari*** tashkil etadi. Shulardan ayrimlarini turli ko'rinishlarda o'qituvchiga topshirish ham ko'zda tutilgan. Topshirishingiz kerak bo'lgan mustaqil ta'lim ishlarini guruh jurnalida egallagan raqamingizni bilgan holda ***Mustaqil ishlarni taqsimlash jadvali***dan bilishingiz mumkin.

MUSTAQIL ISHLARNI TOPSHIRISH MUDDATI

Berilgan topshriqlarning dastlabki 3tasi 1-oraliq nazorat ishidan 3 kun oldingi kungacha;
Keyingi 3tasi 2-oraliq nazorat ishidan 3 kun oldingi kungacha.
Topshriqlarni kechiktirmas ijobiy baho yo'lidagi dadil qadam ekanligini unutmang!!!

Mustaqil ishlarni taqsimlash jadvali

	S.	*Mavzular raqami*

		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1.		1	2	3	4	5										
2.			3	4	5	6	7									
3.				5	6	7	1	2								
4.					7	1	2	3	4							
5.						2	3	4	5	6						
6.							4	5	6	7	1					
7.								6	7	1	2	3				
8.									1	2	3	4	5			
9.										3	4	5	6	7		
10.											5	6	7	1	2	
11.												7	1	2	3	4
12.		2											2	3	4	5
13.		3	4											4	5	6
14.		4	5	6											6	7
15.		5	6	7	1											1
16.		6	7	1	2	3										
17.			1	2	3	4	5									
18.				3	4	5	6	7								
19.					5	6	7	1	2							
20.						7	1	2	3	4						
21.							2	3	4	5	6					
22.								4	5	6	7	1				
23.									6	7	1	2	3			
24.										1	2	3	4	5		
25.											3	4	5	6	7	
26.												5	6	7	1	2
27.		4											7	1	2	3
28.		5	6											2	3	4
29.		6	7	1											4	5
30.		7	1	2	3											6

MUSTAQIL ISH UCHUN REYTING ISHLANMA

№	Nazorat turlari	1-topshriq	2-topshriq	3-topshriq	O‘rtacha
1	Mustaqil o‘rganish	5	5	5	5

Metodik tavsiyalar: Siz ushbu savollarga javobni universitet o‘quv zalidagi barcha talabalari uchun Umumiy pedagogika fanidan yaratilgan o‘quv uslubiy majmuadan fodalanishingiz mumkin. Kutubxona, axborot resurs markazlari, internet saytlari, kitob, gazeta, jurnallardan foydalanish tavsiya etiladi

FOYDALANISH UCHUN ADABIYOTLAR VA ELEKTRON MANBALAR:

Asosiy adabiyotlar

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik - T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik.-T.: 1QT1SODIYOT DUNYOS1, 2018.
3. Ro’ziyeva D.I., Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. — T.: TDPU, 2015.
5. Yuzlikayeva E.. Madyarova S., Yanbarisova E,, Morxova I. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. Uchebnik. — T.: TGPU, 2014.
6. Kaldo’bekova A.S. Jalpo’ pedagogika teoriya s o’ jene praktikaso’. I. Pedagogika teoriyaso’. - T.: TDPU, 2013.
7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. — T.: TDPU, 2013.
8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: TDPU, 2012.
9. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahrid ostida. Darslik. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
10. Slastetin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.H. Obshaya pedagogika.

M.: VLADOS, 2003.

11. Podlasiy I.P. Pedagogika. Novo’y kurs: Uchebnik dlya stud. ped. vizov: V 2 kn. - M.: Tumanit, izd. tsentr VLADOS, 2006.
12. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: Ukituvchi, 1996.
13. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika larixi. - T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
14. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent, Iqtisod moliya, 2012.
15. Yakusheva S.D. Osnovo’ pedagogicheskogo masterstva. Uchebnik. - Moskva.: Akademiya, 2012.

16. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya, 2009.

17. Mahmudov H. M. Ukituvchi nutq madaniyati. Darslik. - Toshkent, Uzbekistan milliy entsiklopediyasi, 2007.

18. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006.

19. Ochilov M., Ochilova N. Ukituvchi odobi. Saylanma. -T.: Ukituvchi, 1997.

20. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.

21. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.

22. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

Qo’shimcha adabiyotlar

1.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston

2.Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. G’G’ Xalq so’zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O’zbekiston”, 2017.

4.O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi. 5.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to’plami, 2017yil, 6-son,70-modda.

6.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O’zbekiston”, 2017.

GLOSSARY

Adaptasiya - (lotincha “adaptation) moslashuv ma’nosini ahglatadi.Adaptasiya ilmiy izlanish olib borishda qo’lga kiritilgan natijani tadqiq etilayotgan o’bektni yoki predmetni ifodalay olishligi nazarda tutiladi.

Akademik litsey – o’quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo’naltirilgan ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlariga muvofiq o’rta maxsus ta’lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Akademiya - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo’yicha oliy va oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha "anomal") – me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – korrektsion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq (lotincha "moralis" xulq-atvor) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong – shaxga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik ("inter" orasida, o'rtasida, aro, "natio" xalq) – o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bashoratlash – bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish – ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim – o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Vatanparvarlik (lotincha "patriotes" vatandosh, "patris" vatan, yurt) – shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) etkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunonchadan "gnosis" bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Davlat ramzlari – muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha "didaktikos" o'rgatuvchi, "didasko" o'rganuvchi) – ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotinchadan "principium" har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashhis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha "systema" yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash **– tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.**

Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha "kollektivus" – yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) – bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari – jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Jamoaning norasmiy tuzilmasi – jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashqil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

Jamoaning rasmiy tuzilishi – turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

Jinsiy tarbiya – o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha "adapto" moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar – **o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.**

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g'oyalarning tutgan o'rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" layoqat, qobiliyatni tiklash) – anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash – uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash **(yunoncha "idea" g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) – muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya.**

Individ (lotincha "individium" bo'linmas, yagona, alohida) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Institut – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya **– o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.**

Iqtisodiy ta'lim **– o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.**

Yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik_xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" – "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida "yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi" mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kasb-hunar kolleji – o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha "ompensatio" o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Korrektsiya (yunoncha "correctiio" tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korrektsion (maxsus) pedagogika (defektologiya, yunoncha "defectus" nuqson, kamchilik, "logos" fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Korrektsion-pedagogik faoliyat – yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korrektsion-tarbiyaviy ishlar – shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko'nikma – olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

Ko'rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Litsey (kollejda) ma'ruza – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 minut), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya (yunoncha "logos" so'z, nazariya, ta'limot, "paideia" tarbiyalash) – nutqiy nuqsonlarni o'rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to'liq tuzatish masalalarini o'rganuvchi fan; korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat (lotincha "cultura" yaratish, rivojlanish, parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari – o'quv materiali mohiyatini ozg'aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Mafkura (arabcha "mafkura" naqtai nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklish, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari – muayyan mashqyordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat" ma'nolar majmui**)** – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod (yunoncha "usul, maqsadga erishish yo'li") – 1) tabiiy va ijtimoiy hodisalarni tadqiq qilish, bilish usuli; 2) pedagogik faoliyatni tashkil qilish usuli

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Nafosat didi – shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati – go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi – go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya, lotincha "estezio" go'zallikni his qilaman) – o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila – **kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.**

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya (yunoncha “olygos” kam, “phren” aql) – bu natal (tug’ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta’lim – o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo’nalishlari bo’yicha xalq xo’jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.

Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim – jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o’quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad’yunktura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’lim bosqichi.

Oraliq nazorat – o’quvchilar tomonidan o’quv materialining muayyan bob yoki bo’limlari bo’yicha o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Pedagogika (yunoncha “paidagogike”, “paidagogos” bola etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan.

Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda etakchi o’rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o’rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo’nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob’ektiv va sub’ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat – bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o’rganadi.

Pedagogik paradigma (yunoncha “paradeigma” misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko’rsatmalar to’plami; ta’limning kontseptual modeli.

Pedagogik talab – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o’quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo’lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.

Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi – o’qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatuvchi to’garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab – turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o’quvchi amal qilishi zarur bo’lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag’batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko’ngilini ko’tarish va uni qo’llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo’yicha baholash.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo’lgan, ma’lum o’quvchilar guruhi.

Surdopedagogika (yunoncha “surdus” kar) – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o’qitish va tarbiyalash jarayonini o’rganuvchi fan; korrektsion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tamoyil (yunoncha “principium”) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang’ich qoidasi; boshqaruvchi g’oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – o’qituvchi va o’quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo’naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni – shaxsning shakllanishiga qo’yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” yo’l) – tarbiya maqsadiga erishish yo’li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashhis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta’lim – o’quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub’ektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni – o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim menejeri – ta’lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta’lim metodlari – ta’lim jarayonidaqo’llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.

Ta’lim muassasi Ustavi – ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta’lim kontseptsiyalari (lotinchadan “conceptio” tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo’nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta’lim mazmuni – davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo’yicha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta’lim maqsadi (o’qish, bilim olish maqsadi) – ta’limning aniq yo’nalishini belgilab beruvchi etakchi g’oya.

Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli) – ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o’quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo’lga qo’yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o’rganadi.

Ta’limning sinf-dars tizimi – dars shaklida muayyan o’quvchilar guruhi bilan o’quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo’yicha olib boriladigan ta’lim jarayoni.

Ta’lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo’lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari majmui.

Ta’lim shakli – ta’lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) – o’zaro bog’langan ko’plab elementlar (tarkibiy qismlar) o’rtasidagi mustahkam birlik va o’zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika (yunoncha “typhlos” ko’r) – ko’rish qobiliyati buzilgan bolalarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o’rganuvchi fan; korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq – o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish – o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak **– o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.**

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim – o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Usul – muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat – shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish – uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat **– o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.**

Ekologik ong **– tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.**

Ekologik madaniyat **– o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.**

Ekologik tarbiya **– o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.**

Ekologik ta'lim – o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon.

Ekologik faoliyat **– ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.**

Estetik tarbiya – o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Estetik qiziqish – shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishi.

Estetik ehtiyoj – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omil (ichki intilish).

Estetik his-tuyg'u – insonning voqelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga nisbatan munosabati.

Estetik did – estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy me'yorlar yig'indisi orqali shakllanib, shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati.

Estetik ideal – sub'ekt bilan ob'ekt, inson bilan ijtimoiy butunlikning tarixan eng to'liq uzviy birligi bo'lib, bu birlik tub maqsadlar sifatida inson ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Estetik qarash – estetik ongning g'oyaviy negizi, tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimi.

Estetik ong – shaxsga nazariy tushunchalar asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baho baholay olish imkonini beruvchi his-tuyg'ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli.

Estetik faoliyat ko'nikmalari – estetik ehtiyojlarni qondirish yo'lida amalga oshiriladigan xatti-harakat ko'nikmalari.

E'tiqod **– dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.**

Yakuniy nazorat – ta'lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o'quv materiallari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O'z-o'zini baholash – mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari **– o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.**

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish – o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash **– shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.**

O'zlashtirish – ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'qish – ma'lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o'rganish jarayoni; o'quvchilar tomonidan o'quv faoliyati usullarini egallab olishga yo'naltirilgan faoliyat.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv rejasi – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

O'quvchilar jamoasi – ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o'quvchilar birlashmasi, guruhi.

O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi – o'quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O'quv qo'llanmasi – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong – muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya – shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim – o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy faoliyat – huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti–harakatlar majmui.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim.

Madaniyat (lotincha "cultura" yaratish, rivojlanish, parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Ma'rifat – *(arabcha - bilmoq)* ta'lim-tarbiya, kishi ongi, bilimining insonparvarlik, ezgulik g'oyalariga asoslangan madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat haqidagi tushuncha.

Metod – metod (yunoncha-aynan nimagadiryo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat.

Mahorat - shaxsining tajriba orqali orttirgan xususiyat. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida xosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarining yukori darajasi, kasbiy mohirlik.

Masofaviy ta'lim -masofaviy ta'lim uslublariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim xizmatlari majmuasi.

Ma'ruza-tadqiqot (MT) – bu umumiy muammo mavzuning asosiy yo'nalishlari bo'yicha xususiy biluv topshiriqlari yordamida aniklanishiga mo'ljallangan ma'ruza shaklidir.

ILOVALAR
Fan dasturi

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Ректор
_____
"_____" _____ 2020 йил

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлиги
_____
"29" август
2020 йил

Рўйхатга олинди. № БД-_____
2020 йил "29" август

УМУМИЙ ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ
ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси:
100000-Гуманитар соҳа
200000-Иқтисодий соҳа, иқтисод ва ҳуқуқ
300000-Аниқ ва табиий фанлар, математика ва экология соҳаси
400000-Қишлоқ ва сув хўжалиги
600000-Хизматлар соҳаси

Таълим соҳаси:
110000-Педагогика
120000- Гуманитар фанлар
130000- Математика
140000-Табиий фанлар
210000-Социология ва психология
330000- Компьютер технологиялари ва информатика
410000-Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги
610000 –Хизмат кўрсатиш соҳаси
630000-Атроф-муҳит муҳофазаси

Таълим йўналишлари:
5111400 – Хорижий тил ва адабиёти (инглиз тили)
5111600 - Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими
5112500 - Ўзга тилли гуруҳларда рус тили
5120100 - Филология ва тилларни ўқитиш(рус тили)
5120100 - Филология ва тилларни ўқитиш (роман-герман филологияси)
5120100 - Филология ва тилларни ўқитиш (ўзбек тили)
5120200 - Таржима назарияси ва амалиёти (тиллар бўйича)
5120300 - Тарих (маданиятлар ва йўналишлар бўйича)
5120400 – Археология
5120500 - Фалсафа
5121400 - Антропология ва этнология
5130100 - Математика
5130200 - Амалий математика
5130300 - Математик инженеринг (иқтисоб чиқариш соҳалари бўйича)
5140100 - Биология (турлари бўйича)
5140200 - Физика
5140300 - Механика ва математик моделлаштириш
5140400 - Астрономия
5140600 - География
5140500 - Кимё (турлар бўйича)
5140600 – Геология
5141500 - Тиббиёт физикаси
5220300 – Архившунослик
5230213 - Менежмент (спорт тадбирларини ташкил этиш ва бошқариш)
5330100 - Компьютер илмлари ва дастурлаш технологиялари (йўналишлар бўйича)
5330200 - Ахборот тизимлари ва технологиялари (тармоқлар ва соҳалар бўйича)
5330300 - Ахборот хавфсизлиги (соҳалар бўйича)
5410100 - Агрокимё ва агротупроқшунослик
5610518 - Спорт фаолияти (тхэквондо (WTF))
5610544 - Спорт фаолияти (регби)
5630100 - Экология ва атроф-муҳит муҳофазаси(тармоқлар ва соҳалар бўйича)

Тошкент – 2020

Фан/модуль коди	Ўқув йили	Семестр	ECTS – Кредитлар
UPPB308	2022-2023	5-6	8
Фан/модуль тури	**Таълим тили**		**Ҳафтадаги дарс соатлари**
Мажбурий	Ўзбек/рус		4

1.	Фаннинг номи	Аудитория машғулотлари (соат)	Мустақил таълим (соат)	Жами юклама (соат)
	Умумий педагогика ва психология	120	120	240

2. **I. Фаннинг мазмуни**

Фанни ўқитишдан мақсад – Талабаларга таълим ва тарбия жараёнларининг назарий ва амалий асосларини ўргатиш, педагогик фаолият мазмуни билан таништириш, умумпедагогик билимларни, педагогик маданиятни, касбий-педагогик компетентликни шакллантириш ва инновацион таълим жараёнига тайёрлаш орқали педагогик жараёнда муваффақиятга эришиш масалаларини ҳал қилишга ўргатиш.

Фаннинг қонуниятлари ва психологиянинг асосий тушунчалари, принципларини ҳамда психик жараёнларни назарий ва амалий томонларини ўрганишга йўналтирилган.

Шахс, фаолият, мулоқот, билиш жараёнларига ҳақидаги билим, кўникма малакаларни шакллантириш, психология фанининг замонавий илмий билимларни ўзлаштиришни ташкил қилиш.

Фаннинг вазифаси – Фаннинг илмий, амалий ва методологик асосларини ўргатиш, таълим жараёнини инновацион бошқариш, инклюзив таълим шароитида фаолият юритиш, педагогик маҳоратни эгаллаш йўллари, таълим муассасасининг иш ҳужжатларини тўғри юритиш, педагогик манбалар билан ишлай олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш.

Психология фанининг жамият ва шахс камолотидаги ўрнини тушуниши, инсон психикаси ҳақида умумий тушунчаларга эга бўлиши керак. Шахснинг индивидуал-психологик хусусиятлари ва уларнинг таълим-тарбия жараёнидаги аҳамияти хусусида умумий билимлари бўлиши керак.

II. Асосий назарий қисм (маъруза машғулотлари)

II.I. Фан таркибига қуйидаги мавзулар киради:

1-мавзу: Педагогика фаннинг предмети, тадқиқот методлари

Педагогика - ижтимоий фан сифатида. Педагогика фанининг жамият тараққиётида тутган ўрни. Педагогиканинг ривожланиш босқичлари. Педагогиканинг объекти, предмети, мақсад ва вазифалари. Педагогиканинг асосий категориялари ва тушунчалари.

Педагогик жараён. Педагогик фанлар тизими. Педагогиканинг бошқа фанлар билан алоқаси.

Педагогиканинг методологик асослари. Педагогик тадқиқот методларининг ўзига хослиги. Педагогика фанининг илмий-тадқиқот методлари ва уларнинг тавсифи. Педагогик тадқиқот натижаларини расмийлаштириш. Педагогик тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш ва тарғиб қилиш.

Ўзбекистонда педагогика фанининг ривожланиши. Педагогиканинг тараққиёт тенденциялари.

2-мавзу: Педагогик таълимотлар тарихи

Педагогик ғояларнинг ривожланиш босқичлари.

Ибтидоий жамиятда ташкил этилган тарбиянинг ўзига хос хусусиятлари. Халқ

оғзаки ижодида тарбияга оид масалаларнинг ифодаланиши. "Авесто" энг қадимги маърифий ёдгорлик. Қадимги Юнонистон ва Рим давлатларида тарбия ва мактаб.

Шарқ уйғониш даврида таълим-тарбия тараққиёти. Муҳаммад ал-Хоразмий, Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино илмий мероси ва дидактик қарашлари.

Темурийлар даврида илм-фан, таълим-тарбиянинг равнақ топиши. XVII аср ва XX аср бошларида мактаб ва маърифий фикрлар тараққиёти.

Ғарб Уйғониш даврида таълим-тарбия ва педагогик фикрлар тараққиёти. Ян Амос Коменскийнинг педагогик тизими.

Ўзбекистонда 1917-1990 йилларда таълим тизими ва педагогика.

Ривожланган хорижий мамлакатларда таълим тизими.

3-мавзу: Ўзбекистон Республикаси таълим тизимида модернизация жараёнлари

Ўзбекистон Республикаси таълим тизимидаги ислоҳотлар. Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги давлат сиёсати мазмуни ва уни акс эттирувчи ҳужжатлар. Ўзбекистон Республикасинин "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. Кадрлар тайёрлаш миллий модели.

Ўзбекистон Республикасида узлуксиз таълим тизими. Таълим соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий принциплари. Педагогик фаолият билан шуғулланиш ҳуқуқи.

Таълим турлари. Мактабгача таълим. Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим. Касбий таълим. Олий таълим. Олий таълимдан кейинги таълим.Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш. Мактабдан ташқари таълим. Таълим муассасаларининг функциялари.

Ўзбекистон Республикасида таълим муассасаларининг ўзаро интеграцияси ва истиқболлари.

4-мавзу: Педагогик жараёнда тарбиянинг мазмуни.

Педагогик жараёнда тарбиянинг моҳияти. Тарбиянинг мақсади ва вазифалари. Тарбия жараёни ва унинг ўзига хослиги. Тарбия жараёнининг асосий тушунчалари (ўз-ўзини тарбия, қайта тарбия). Тарбия жараёнида тарбиячи шахси.

Тарбия жараёни қонуниятлари. Тарбиянинг ижтимоий шароитларга боғлиқлиги қонуниятлари. Инсон табиати билан боғлиқлиги қонуниятлари. Тарбия, таълим ва шахс ривожланиш жараёнларининг ўзаро боғлиқлиги.

Тарбия жараёнининг мазмуни ва тарбияланганлик мезонлари.

Тарбия принциплари. Тарбия принципларига қўйиладиган талаблар. Тарбиянинг ижтимоий йўналганлиги ва яхлитлиги: тарбиянинг ижтимоий ҳаёт ва меҳнат билан бирлиги. Тарбиянинг инсонпарварлик принципи. Тарбияланувчига хусусий ёндашув. Тарбиянинг бир мақсадга қаратилганлиги принципи.

5-мавзу: Тарбия жараёнининг шакллари ва методлари

Тарбия методлари ҳақида тушунча. Тарбия методларининг тарбия жараёнидаги ўрни. Халқ педагогикасида тарбия методлари. Шарқ алломаларининг тарбия методлари ҳақидаги фикрлари.

Тарбия методлари классификацияси. Шахс онгини шакллантирувчи методлар. Шахс фаолиятини ташкил этиш методлари. Шахс фаолияти, хулқини рағбатлантириш ва жазо методлари. Ўз-ўзини тарбия методлари. Тарбия усуллари. Тарбия воситалари. Тарбия методларини танлаш асослари.

Жамоа ҳақида тушунча. Жамоанинг педагогик вазифалари. Жамоанинг турлари. Жамоанинг белгилари. Шахснинг жамоада қарор топиши.

Ўқувчилар жамоаси – педагогик жараённинг асосий шакли сифатида. Ўқувчилар жамоасининг асосий белгилари ва шаклланиш босқичлари. Ўқувчилар жамоасига педагогик раҳбарлик.

6-мавзу: Ижтимоий педагогика асослари.

Ижтимоий педагогиканинг предмети. Ижтимоий педагогика категориялари ва принциплари. Ижтимоий педагогик ғояларнинг Марказий Осиё, Россия ва Ғарбдаги тарихи.

Оила фукаролик жамияти институтининг асосий бўғини. Оила ва маҳалла - миллий ҳамда умуминсоний тарбиянинг муҳим институтлари сифатида. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш. Оила педагогикасининг методологик асослари. Оила - педагогик ўзаро муносабатлар ҳамда шахс тарбияси ва камолотининг субъекти сифатида. Оилавий ҳаёт соҳаси тарбия муҳити сифатида. Оиладаги тарбиявий вазифалар.

Оила ва болалар, ота-онасиз қолган болалар билан ижтимоий педагогик фаолият.Девиация ижтимоий педагогик муаммо сифатида. Алкоголизм, гиёҳвандлик-девиантлик ҳулқи вужудга келиш шакли сифатида. Жиноятчилик делинквентлик ҳулқи вужудга келиш шакли сифатида.

Соғлом турмуш тарзини шакллантириш

7-мавзу: Таълим жараёнининг моҳияти

"Дидактика" тушунчасининг моҳияти. Дидактика – педагогика фанининг таркибий қисми сифатида. Ян Амос Камньскийнинг "Буюк дидактика"асари, Дидактиканинг мақсади ва вазифалари Дидактиканинг асосий тушунчалари. Дидактик назариялар ва уларнинг фалсафий асослари. Таълим парадигмалари. Шахсга йўналтирилган таълим. Таълимнинг дидактик, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадлари, уларнинг боғлиқлиги.

Таълим жараёни моҳияти. Таълим жараёнининг қонуниятлари.

Таълим жараёнининг принциплари. Таълим принципларининг гуруҳланиши.

Таълим мазмунини белгилашнинг етакчи ғоялари. Таълим мазмунини шакллантириш принциплари. Таълим мазмунида миллий ва жаҳон тажрибаларини мувофиқлаштириш. Давлат таълим стандартлари. Умумий ўрта давлат таълим стандарти. Ўрта махсус ва касб-ҳунар давлат таълим стандарти. Ўқув режа, ўқув дастур ва дарсликлар тавсифи.

8-мавзу: Таълимнинг ташкилий шакллари ва методлари

Таълимни ташкил этиш шакллари ҳақида тушунча. Дарс – ўқитишнинг асосий ташкилий шакли. Дарсга қўйиладиган талаблар.

Дарс турлари ва тузилиши. Ҳозирги кунда дарсларни модернизациялаш йўллари. Дарсда ўқувчилар ўқув фаолиятини уйғунлаштириш. Ўқитувчининг дарсга тайёргарлиги. Дарснинг режа-конспекти. Дарснинг технологик картаси.

Таълимни ташкил этишнинг ноанъанавий шакллари.

"Таълим методлари" тушунчасининг моҳияти. Таълим методларининг таснифи. Анъанавий ўқитиш методлари классификацияси.

Таълимнинг замонавий воситалари. Таълимда кўргазмали воситалар. Таълимда техник воситалар. Техник воситаларга қўйиладиган дидактик талаблар. Таълим воситаларининг функциялари.

9-мавзу: Таълимда инновацион жараёнлар

"Инновацион метод" тушунчаси. Ўқув жараёнини ташкил этишда замонавий педагогик технологиялар. Интерактив таълим ва унинг ўзига хосликлари. Интерактив таълим методлари таснифи. Таълим стратегиялари. График органайзерлар.

Интерактив методларни тушунтириш. Фанларни ўқитишда интерактив методларидан фойдаланиш. Интерактив дарсни ташкил қилишга қўйиладиган талаблар. Интерактив дарс шакллари, методлари ва воситалари. Интерактив дарс ва ўқитувчи фаолияти. Таълим жараёнида интерактив методларни қўллаш методикаси.

Тарбия технологияси тушунчаси. Тарбия технологиясининг таркибий тузилиши. Тарбия технологияси мазмуни. Тарбия технологияларини моделлаштириш. Тарбиявий ишларни амалга ошириш босқичлари. Тарбия технологияларини қўллашда педагогик

4

воситалардан фойдаланиш. Ҳамкорлик педагогикаси. Инсонпарварлик технологияси. Тарбиявий технологиялар тренинги.

10-мавзу: Электрон педагогика асослари

Электрон педагогика – педагогиканинг замонавий тармоғи сифатида. Ахборот – коммуникация технологиялари ва уларни таълим жараёнида қўллашнинг дидактик имкониятлари. Ахборот тизимлари, шахснинг таълим, тарбияси ва ривожланишида замонавий ахборот технологиялари ва тизимлари.

Дастурий воситаларнинг дидактик имкониятлари, эксперт-ўргатувчи тизимлар, автоматлаштирилган ўргатувчи тизимлар, фойдаланувчи ва педагогик-дастурий воситаларнинг ўзаро ҳамкорлигини ташкил этиш методлари. Педагогик-дастурий воситалар яратиш принциплари.

Таълим порталлари. Масофавий таълим. Электрон дарслик. Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб мультимедиали ўқув курсларини яратиш. Медиакомпетентлик, педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини яратиш.

11-мавзу: Педагогик диагностика

Педагогик диагностика ва диагностикалаш. Педагогик диагностиканинг мазмуни. Педагогик диагностика ва унинг аҳамияти. Педагогик диагностиканинг предмети, моҳияти, асосий вазифа ва категориялари. Педагогик диагностиканинг мезонлари. Педагогик диагностиканинг асосий принциплари. Педагогик диагностика методлари ва босқичлари.

Педагогик диагностикада таълим олувчиларнинг шахсий хусусиятларини ўрганиш. Тарбияланганликни аниқлаш мезонлари. Шахс тарбияланганлигини педагогик таҳлил этиш. Тарбиявий ишлар ва тадбирларни ривожлантириш истиқболи. Тарбия жараёнининг ўқитиш жараёни билан боғлиқлиги.

Таълим олганликни ташхис қилиш. Таълим натижаларини назорат қилиш ва баҳолаш. Таълим натижаларини текшириш ва баҳолашга қўйиладиган талаблар. Назорат турлари, шакллари ва методлари. Билимларнинг натижаларини баҳолашда педагогик тестларнинг ўрни.

12-мавзу: Коррекцион педагогика ва инклюзив таълим асослари

Коррекцион педагогика - педагогика фанининг тармоғи сифатида. Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги Қонунда жисмоний ва руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болалар ва ўсмирларни ўқитиш. Коррекцион педагогиканинг таркибий қисмлари, тузилиши ва тизими. Коррекцион педагогиканинг асосий вазифалари, категориялари. Аномал болалар ва уларни классификациялаш. Аномал болалар билан олиб борилдиган коррекцион ишларнинг асосий йўналишлари.

Инклюзив таълим ва унинг ўзига хосликлари. Инклюзив таълимнинг тарихи ва ривожланиши. Инклюзив таълимни бошқаришнинг ҳуқуқий-меъёрий ва ахлоқий асослари. Инклюзив таълим принциплари. Инклюзив таълим методлари. Инклюзив таълимнинг категориялари. Инклюзив таълимда педагогнинг касбий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари. Педагогнинг касбий компетентлиги.

Замонавий жамиятда инклюзив таълимни ривожлантириш йўллари.

13-мавзу: Таълим менежменти асослари

Таълим менежменти тушунчаси. "Таълим тўғрисидаги Қонун"да таълим тизимини бошқариш масалалари. Таълим тизими менежменти вазифалари. Таълим тизимини бошқариш принциплари. Таълимни бошқаришда ваколатли давлат органлар ва уларнинг ҳуқуқлари. Таълим тизимида давлат-жамоат бошқаруви.

Умумий ўрта ва ўрта махсус, касбий таълимни бошқаришда маҳаллий ваколатли органлар. Таълим муассасаларининг Низоми. Ўзбекистон Республикасининг "Умумий ўрта таълим ҳақида"ги Низоми. Умумий ўрта таълим мактаби Устави.

Таълим сифатини ва таълим хизматларини мониторинги. Педагог кадрлар малакасини ошириш. Педагог кадрлар аттестацияси. Квалификация.

14-мавзу: Мактаб – педагогик тизим сифатида

Педагогик тизимни бошқаришнинг предмети, принциплари ва вазифалари. Мактаб – педагогик тизим ва бошқаришнинг объекти сифатида. Мактабнинг ички бошқаруви, унинг тузилиши ва вазифалари. Педагогик Кенгаш ва унинг вазифалари. Методик Кенгаш ва унинг вазифалари. Мактаб директорининг вазифалари. Раҳбар маданияти. Директор ўринбосарларининг вазифалари. Синф раҳбарининг вазифалари. Педагогик жамоанинг ўзига хослиги.

Педагогик диагностика ва мактаб фаолиятини таҳлил қилишнинг мазмун, мақсади, турлари ва вазифалари. Мактабда ички назорат ва педагогик фаолиятни ташкил қилиш. Мактабни ички назорат қилиш принциплари: тизимлилик, холислик, ҳаракатлилик, тўлдирувчилик.

15-мавзу: Педагогик компетентлик ва креативлик

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни ҳамда "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" асосида ўқитувчи фаолияти мазмунига қўйиладиган талаблар.

Педагогик маҳоратнинг таркибий қисмлари. Педагогик маҳоратни эгаллаш воситалари. Педагогик қобилият – педагогик маҳоратнинг асоси сифатида. Педагогик қобилият турлари. Педагогик қобилиятнинг таянч, етакчи ва ёрдамчи хусусиятлари. Коммуникатив қобилият – педагогик алоқа ўрнатишнинг асосий воситаси.

Педагогик техника ҳақида тушунча. Педагогик техника воситаси: вербал ва новербал. Педагогик техниканинг таркибий қисмлари. Педагогик деонтология. Педагогик муloқот услуби ва унинг тузилиши. Педагогик низолар, уларни бартараф этиш усуллари. Нутқ техникаси. Педагогик такт ва педагогик одоб.

Педагогик компетентлик. Касбий компетентлик сифатлари. Педагогик компетенция. Педагогик ижодкорлик ва рефлексия. Педагогнинг ўз устида ишлаши. "Креативлик" ва "педагогик креативлик" тушунчаларининг моҳияти. Креативлик сифатлари. Шахс креативлигини ифодаловчи хусусиятлари. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик креативликни шакллантириш.

II модул "УМУМИЙ ПСИХОЛОГИЯ"

1 – Мавзу. Умумий психология фани предмети, илмий тадқиқот методлари

Психологиянинг предмети ҳақидаги тасаввурлар ривожланишининг асосий босқичлари. Психологиянинг фалсафа доирасида ривожланиши. Жонли ва жонсиз табиатда акс эттириш шакллари. Психик акс эттириш. Онглилик ва онгсизлик.

Умумий психология, ижтимоий психология, ёш ва педагогик психология, меҳнат психологияси, психофизиология, зоопсихология, муҳандислик психологияси, тиббиёт психологияси, ҳарбий психология, спорт психологияси, махсус психология (олигофрения, тифло, сурдо), дифференциал психология, юридик психология. Интроспекциянинг психологик ҳолатини тадқиқ қилишга қодир эмаслиги. Психик жараёнларнинг шаклланиши ва ҳукм суришини текширишнинг объектив методлари. Кузатиш, суҳбат, инсон фаолияти маҳсулини таҳлил қилиш психологиянинг методлари сифатида.

2 - Мавзу. Инсон психикасини онтогенезда ривожланиши

Шахс ҳақида тушунча. Шахсни ўрганишга турлича ёндашувлар. З.Фрейд мактаби. З.Фрейд ғояларида шахс структураси. Шахс психологияси, кўп қирралиги. Индивид, шахс, индивидуаллик. Шахснинг турли фанлар нуқтаи назаридан ўрганилиши. Шахс муаммоси ва фаннинг методологик даражалари. Шахсга нисбатан эволюцион тарихий ва тизимли ёндашув. Шахснинг психик ривожланишини табақалаштириш схемаси (Д.Б.Эльконин). Инсон табиатини эволюцион жиҳатдан тадқиқ этиш. Муҳит, шахс ривожланиши. Психологиянинг турли йўналишларидаги ривожланиш ҳақидаги тасаввурлар. Ҳаёт тарзи, инсон индивидуал хусусиятлари,

хамкорлик фаолияти-шахс ривожланишининг асослари. С.Холлнинг болани тараққиёт концепцияси: рекапитуляция қонуни, шахс камолотида фазалари.

3 - Мавзу. Сезги ва идрокнинг психологик моҳияти, физиологияси

Тери туюшнинг уч компоненти (сезиш, ҳароратни сезиш, оғриқни сезиш). Тери туюшнинг мураккаб шакллари ва сезиш идроки. Сезиш ва ҳаракатни сезишни ўрни. Сезиш образининг пайдо бўлиш фазалари. Образларни билиш ва кўришда информацион кўринишлар. Сезишнинг физиологик механизмлари. Эшитишнинг физиологик ва нейрофизиологик асослари. Эшитиш идрокининг мураккаб формалари. Кўриш анализаторининг тузилиши. Кўриш анализаторининг йўллари. Кўриш анализаторининг марказий аппарати. Бирламчи ва иккиламчи кўриш пўстлоқлари. Сезгиларни сигналли акс эттириши. Адаптацияни вужудга келиши. Адаптациянинг периферик ва марказий механизмлари. Идрокнинг ассоциатив назарияси. Нативизм ва эмпиризм. Гештальт психологияда идрок. Гибсоннинг идрок назарияси. Хебнинг идрок назарияси. Пиаженинг идрок назарияси. Перцептив фаолият назарияси. Мутлақ эшитиш. Ҳар хил мусиқий оҳангларда товушларни идрок килишнинг кетма-кетлиги. Ранг синестезиясини физикаси ва нутқ товушларининг фонологияси. Сўзларни идрок килиш.

4 - Мавзу Диккат ва Хотира – психик жараён сифатида

Диккатнинг бошка психик ходиса ва жараёнлар билан таккослаш. Перцептив, интеллектуал ва ижро этувчи диккат. Диккатнинг психик ўрни хакидаги бахслар ва унинг табиати. Диккатнинг мустакил фаолият эканлиги ёки бу бошка психик фаолият учун хам хослиги. Диккатнинг хажми. Диккат хажмининг индивидуал хусусиятлари. Диккатнинг тўпланиши. Диккатнинг баркарорлиги. Диккатнинг тебраниши. Диккатнинг кўчиши ва тақсимланиши. Материал характерига, фаолият турлари кўра дизкатнинг баркарорлиги. Диккатни бўлинишини белгиловчи омиллар. Таъсирларга чидамлилигини баҳолаш усуллари. Диккатнинг кўчиши ва тақсимланиши. Ҳар хил харакатларга диккатнинг тақсимланиш кобилиятини белгиловчи омиллар. Хотира хакида умумий тушунча. Хотира – ўтмиш тажрибаларни эсга олиб колиш, эсга сақлаш ва унутишдан ибора жараён сифатида. Хотира билан боғлиқ ходисалар. Феноменал хотира. Хотира ва ўрганиш. Диккат ва хотира. Хотира ва шахс. Асаб тизимида хотира изларини сақланиши. Қиска ва узоқ муддатли хотиранинг физиологик механизмлари. Хотирани таъминловчи мия тизимлари. Ихтиёрсиз, ихтиёрий хотира. Образли хотира.

5 - Мавзу. Тафаккур ва нуткнинг психологик тавсифи

Тафаккур билиш жараёнлари тизимида. Тафаккур ва онг. Тафаккур ва мулоқот. Тафаккур психологияси соҳасида ишларнинг назарий ва амалий аҳамияти. Тафаккур турлари: кўргазмали-образли, кўргазмали-харакат ва сўз-мантиқ тафаккурлари. Конкрет ва абстракт тафаккур (Гольдштейн бўйича). Эмпирик ва назарий тафаккур (В.В.Давидов бўйича). Амалий ва назарий тафаккурни киёслаш (Б.М.Теплов бўйича). Продуктив ва репродуктив тафаккур. Ижодий ва танкидий тафаккур.

6 - Мавзу. Мотив ва мотивация ва хиссиётнинг намоён бўлиши

Инсон фаоллиги, унинг шакллари ва детерминантлари. Эҳтиёж, мотив ва мотивацияларни аниклаш. А.Н.Леонтьевнинг концепциясида эҳтиёжлар ва мотивлар.Турли психология мактабида мотивация муаммосини ўрганилиши. Мотивация моделлари. Мотивларнинг эволюцион назария (инстинктлар назарияси), драйвларни кискартириш назарияси, фаоллаштириш назарияси,

Эмоционал холатлар. Стресс тушунчаси ва психик зўриқиш, стрессниг тавсифи. Стрессни бошкариш. Кайфиятнинг умумий тавсифи ва унинг тузилиши. Фрустрация ва безовталик эмоционал холат сифатида.Ихтиёрий реакцияларнинг келиб чиқиши. Иродавий хулк-атворнинг онтогенетик хусусиятлари. Шахснинг иродавий сифатларини ривожланиши. Ҳиссиёт назариялари. Ҳиссиётлар эмоционал муносабатлар сифатида ва уларнинг бузилиши. Эмоция психик холат ва жараёнлар сифатида. Инсон эмоционал холатларининг умумий турлари. Кайфият, стресс ва

саломатлик, нисбий барқарор хиссиёт ва уларнинг классификацияси.

7 - Мавзу. Темперамент - шахс тузулмаси сифатида

Темперамент хакида тушунча. Темперамент типлари ва уларнинг тавсифи. Психологияда характер муаммоси. Шахс ва характер. Характернинг тузилиши. Характерга турлича ёндошувлар. Қобилиятлар хакида тушунча. Умумий ва махсус кобилиятлар. Қобилият турлари. Педагогик кобилиятлар.

8 – Мавзу. Характер, кобилият ва харакат инсон фаолиятнинг бирлиги сифатида.

Психологияда характер муаммоси. Характер шаклланиши. Характер акцентуацияси. Жинсий диморфизм ва индивиднинг психологик тавсифи. Жинсий фарқланишнинг психологик муаммолари.

Шахснинг инструментал даражалари: кобилиятлар хакида тушунча. Махсус ва умумий кобилиятларни аникловчи тестлар.

9 – мавзу Педагогик психология: предмет, тузилма, муоммолари

Таълим ва тарбия кўпгина фанларнинг предмети сифатида. Педагогик фаолият психологияси таълим ва тарбиянинг психологик жабҳалари. Таълим ва тарбиянинг амалий йнгиндиси. Тарбиянинг таълим олдидаги устунлиги. Педагогик психология тузилмаси. Педагогик психологиянинг асосий муаммолари. Ривожланишда сенситив давр муаммолари. Боланинг психик ривожланиши ва педагогик таъсирнинг ўзаро алокадорлиги муаммоси. Генотипик ва мухитда шартланганлик муаммоси. Педагогик ортда колиш муаммоси. Ижтимоий адаптация ва реабилитация муаммоси.

10 – мавзу Педагогик психологиянинг юзага келиш тарихи

Педагогик психологиянинг умумпсихологик контексти. Психология назариялари ва унинг педагогик психология ривожланишига таъсири. Фанга "Педагогик психология" терминининг киритилиши. Педагогик психология фанининг ривожланиш боскичлари.

11 – мавзу Педагогик психология методлари

Умумий ва махсус методлар. Педагогик психологияда эксперимент. Тестлар ва бошка психодиагностик методларни кўллаш. Тадкикот, консультация ва психологик-педагогик коррекция методлари.

12 – мавзу Турли ёш даврларида ўзлаштириш хусусиятлари

Болалик ва эрта давр. Мактабгача давр. Кичик мактаб даврида ўзитиш. Ўсмирлик ва ўспиринлик даврларида ўкитиш ва ўзлаштириш.

13 – мавзу Тарбия психологияси: максади, воситалари ва методлари

Тарбиянинг назарий масалалари. Тарбиянинг максади. Восита ва методлар: тўғридан-тўғри, воситали, англанган ва англанмаган, эмоционал ва кулкий, уларнинг кусусиятлари ва камчиликлари. Тарбия институтлари. Тарбиянинг психологик назарияси. Тарбиянинг биоген назарияси. Тарбиянинг социоген назарияси. Компромисс ёндашув. Характер, мотивлар, шахс сифатлари ва кулк-атвор кўринишларини тарбиялаш масалалари.

Тарбиянинг ижтимоий-психологик жабҳалари. Мулокот ва тарбия. Шахснинг алохида сифатлари шаклланиши учун мулокотнинг турлари. Болаларда мулокотнинг шаклланиши. Шахслараро мулокот эталонларининг шаклланиши. Жамоа ва шахс ривожланиши. В.М. Бехтерев ва М.В. Ланге тадкикотлари.

Оила ва тарбия. Оила ичидаги муносабатларнинг турлари. Оилада бола тарбиясига таъсир кўрсатувчи психологик омилларнинг бирлиги ва уларни бошкариш йўллари. Рағбатлантириш ва жазолашни кўллаш. Нотўлик оила. Оила бузилишининг ижтимоий-психологик окибатлари. Ака ва сингиллар роллари. Болаларни тарбиялаш ва ота-она кулк-атвори маромн.

Турли ёш даврларида тарбиялаш. Болалик ва эрта давр. Кичик мактаб даврида тарбиялаш. Ўсмирлик ва ўспиринлик даврларида тарбиялаш.

14 – мавзу Педагог психологияси

Педагог шахсига қўйиладиган психологик талаблар. Педагогларнинг ижтимоий-махсус сифатларини аниқлаш методи. Педагогнинг умумий ва махсус хусусиятлари. Коммуникатив қобилиятлар тузилмаси ва педагогда уни ривожлантириш усул хамда воситалари. Педагогик мулоқот. Педагог фаолиятининг индивидуал услуби. Педагогнинг индивидуал услуби оркали бола индивидуаллигини шакллантириш. Педагогда ўзини ўзи ривожлантириш ва шакллантириш. Педагогик ўзини ўзи бошкариш психологияси.

15 – мавзу Таълим жараёнига технологик ёндашув

Таълим жараёнига нисбатан технологик ёндашув. "Педагогик технология" тушунчаси, унинг синонимлари ва эволюцияси. Педагогик технологияларнинг икки манбаи. Анъанавий дидактикадан ажралиб турувчи ўкитишнинг асосий технологиялари, уларнинг умумий характердаги белгилари.

Таълимнинг диагностик максадларини ўрнатиш технологиялари. Билиш қобиғида диагностик мақсадлар таксономияси (Э. Саитбаева бўйича). Технологик ташкилланган ўқув жараёнининг белгилари. Диагностик мақсадларни илгари суриш. Ўқувчиларнинг кузатилувчи харакатлари кўринишидаги исталган эталонларни белгилаш асосида таълимни режалаштириш. Ўқувчиларни олдиндан тест синовларидан ўтказиш ва ўқувчиларнинг реал имкониятларини хисобга олган ҳолда ўқув мақсадларини конкретлаштириш. Қайта алоқа оркали таълимни мақсадга йўналтириш ва таълимнинг боришини коррекциялаш. Таълимни алохида таълим циклларига бўлиш. Таълим жараёнини тўлик бошкариш. Сўнгги натижанинг кафолатланганлиги.

Психология курсида ўқув вазифалари тизими. Ўқув вазифалари таксономияси ва таълим жадаллигини бошкариш. Д.Толлингероваинг ўқув вазифалари таксономияси. Таксономияни кенгайтириш ва психологияни ўқитиш мақсадига хамда предметли таранбига адекват бўлган вазифаларни киритиш. Психология курсида билиш фаолияти шаклланишини бошкаришдаги дидактик стратегиялар.

III. Семинар машғулотлари бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотлари учун қуйидаги мавзулар тавсия этилади:

Умумий педагогика бўйича

1. "Педагогика"нинг ижтимоий фан сифатида жамият тараққиётидаги ўрни
2. Педагогик фикрлар тараққиёти ва тарихийлиги
3. Таълим – Ўзбекистон Республикаси ривожланишининг устувор йўналиши сифатида
4. Тарбиянинг мазмуни ва асосий йўналишлари
5. Замонавий педагогикада тарбия методлари ва шакллари
6. Ўқувчилар жамоаси – педагогик жараённинг асосий шакли
7. Дидактик назариялар ва таълим парадигмалари
8. Таълим методлари ва шаклларини амалиётида кўлланилиши
9. Илғор педагогик технологиялар
10. Таълимда АКТ ва интерактив технологиялардан фойдаланиш
11. Педагогик назорат ва таълим сифатини баҳолаш
12. Инклюзив таълим моделлари
13. Таълим муассасасини бошкариш асослари
14. Мактабда бошкарув органлари ва уларнинг вазифалари
15. Педагогик компетентлик ва креативликни шакллантириш

Умумий психология бўйича

1. Умумий психология фани предмети, илмий тадқиқот методлари
2. Инсон психикасини онтогенезда ривожланиши
3. Сезги ва идрокнинг психологик моҳияти, физиологияси

	4.Диккат ва Хотира – психик жараён сифатида 5.Тафаккур ва нуткнинг психологик тавсифи 6.Мотив ва мотивация ва хиссиётнинг намоён бўлиши 7.Темперамент - шахс тузулмаси сифатида 8.Характер, қобилият ва характ инсон фаолиятнинг бирлиги сифатида. 9.Педагогик психология: предмет, тузилма, муоммолари 10. Педагоик психологиянинг юзага келиш тарихи 11. Педагогик психологиянинг методлари 12. Турлий ёш даврларида шаклаштириш хусусиятлари 13. Тарбия психологияси: мақсади, воситалари ва методлари 14. Педагогик психология 15. Таълим жараёнига технологик ёндашув Семинар машғулотлар мультимедиа қурулмалари билан жиҳозланган аудиторияда бир академик гурухга бир профессор-ўқитувчи томонидан ўтказилиши зарур. Машғулотлар фаол ва интерфактив усуллар ёрдамида ўтилиши, мос равишда муносиб педагогик ва ахборот технологиялар қўлланилиши мақсадга мувофик. **IV. Мустақил таълим ва мустақил ишлар** Мустақил ишлаш учун талабаларга экологияга оид маълумотлар мавжуд бўлган турли адабиётлар тавсия этилади. Бакалавр талабаларга мустақил ишни Барқарор ривожланиш асослари фани хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиб тайёрлаши тавсия этилади: Мустакил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар: **Умумий педагогика бўйича** 1.Таълимни ташкил этишнинг ноанъанавий шакллари. 2.Ўқитишда интерфаол методлар. 3.Ўзбекистон Республикасида жисмоний ва руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болалар ва ўсмирларнинг ижтимоий ҳимояси. 4.Ўқитувчининг педагогик маҳорати. 5.Таълим муассасаси раҳбарининг шахсий сифатлари 6.Иктисодий ривожланган давлатларда таълим тизими **Умумий психология бўйича** 1. Умумий психология фани предмети, илмий тадқиқот методлари 2. Сезги ва идроknинг психологик моҳияти, физиологияси 3. Диккат ва Хотира – психик жараён сифатида 4. Тафаккур ва нуткнинг психологик тавсифи 5. Мотив ва мотивация ва хиссиётнинг намоён бўлиши 6. Темперамент - шахс тузулмаси сифатида 7. Характер, кобилият ва характ инсон фаолиятнинг бирлиги сифатида. 8. Педагоик психологиянинг юзага келиш тарихи Мустакил ўзлаштириладиган мавзулар бўйича талабалар томонидан рефератлар тайёрлаш ва уни тақдимот килиш тавсия этилади. Мустакил ўзлаштириладиган мавзулар бўйича талабалар томонидан рефератлар тайёрлаш ва уни тақдимот килиш тавсия этилади.
3.	**V. Фан ўқитилишининг натижалари (шаклланадиган компетенциялар)** Фанни ўзлаштириш натижасида талаба: • педагогик жараённинг моҳиятини тушунади, таълим ва тарбиянинг методларини билади, таълим тизимини бошкариш, таълим ва тарбия жараёнларини педагогик диагностикаси, педагогик фаолият, психиканинг эволюцион тараккиёти, шахс психологияси, ички регуляция, сезги ва идрок, диккат ва хотира, тафаккур ва нутк хакида *тасаввурга эга бўлиши;* • педагогик жараённи яхлит тизим сифатида ташкил килиш, таълим ва тарбия

	методларидан, педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш, ўқув режа, ўқув дастур ва услубий ва ўқув қўлланмаларни ишлаб чиқиш, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятларини диагностика қилиш, психологик жараёнларни ноёгга келиш механизмларини билиш, шахс камолоти йўлида таълим-тарбия ишларини ташкил қилиш *кўникмасига эга бўлиши;* • таълим жараёнини инновацион бошқариш, инклюзив таълим шароитида фаолият юритиш, ўқувчиларни билим олганлик ва тарбияланганлигини ташхис қилиш, педагогик маҳоратни эгаллаш йўллари, таълим муассасасининг иш ҳужжатларини тўғри юритиш, педагогик манбалар билан ишлай олиш, илғор тажрибаларни ўрганиш ва ўз фаолиятига сингдириш *малакаларига эга бўлиши керак.*
4.	**VI. Таълим технологиялари ва методлари:** • фаоллаштирувчи маърузалар; • интерфаол методлар; • семинар-конференция, • семинар-мунозара; • гуруҳларда ишлаш; • индивидуал ва жамоавий лойиҳалар; • кейс-стадилар.
5.	**VII. Кредитларни олиш учун талаблар:** Фанга оид назарий ва услубий тушунчаларни тўла ўзлаштириш, таҳлил натижаларини тўғри акс эттира олиш, ўрганилаётган жараёнлар ҳақида мустақил мушоҳада юритиши, жорий, оралиқ назорат шаклларида берилган вазифа ва топшириқларни бажариши, якуний назорат бўйича ёзма ишни топшириши керак.
6.	**Асосий адабиётлар:** 1. Абдуллаева Ш., Аскаров А. Умумий педагогика. Нопедагогик олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. -Т: Фан ва ахборот технологиялари, 2019. -280 б. 2. Ходжаев Б.Х., Умумий педагогика. Дарслик.–Тошкент, "Sano-standart", 2017 й.434 б. 3. Мавлонова Р. ва бошқалар. Умумий педагогика//дарслик. –Т.: 2016 й. - 538 б. 4. Умарова М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. – Т.: "Издательско-полиграфичкский дом имени Чулпана", 2018 г., -348 б. 5. Мухамедова Д.Ғ., Муллабоева Н.М., Расулов А.И., Умумий психология. Дарслик,-Тошкент, "Мумтоз сўз" 2018.-287 б. 6. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2016. – 320 с. **Қўшимча адабиётлар:** 1. "2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси". –Т.: "Адолат", 2017 й. 2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: "Ўзбекистон", 2017 й. – 491 б. 3. 2019- 2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ривожлантириш чора- тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. ПҚ – 4358 – сон. 2019 йил 17 июнь. 4. Атаева Н. ва бошқалар. Умумий Педагогика. Дарслик//-Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013 й., -862 б. 5. Ғозиев Э.Ғ. Психология. -Т., ЎзМУ «Университет», 2013. 6. Сластенин В. и другие. Педагогика. Учебное пособие. –М.: Издательский центр "Академия". 2013г. – 576 стр.
7.	Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиклаштирувчи Кенгашнинг 2020 йил 30 июндаги 4-сонли баённомаси билан маъқулланган. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил

	29 августдаги 452-сонли буйруғи билан маъқулланган фан дастурларини таянч олий таълим муассасаси томонидан тасдиқлашга розилик берилган.
8.	**Фан/модуль учун маъсулар:** А.Д.Аскаров –ЎзМУ, Ижтимоий фанлар факультети декани, доцент, PhD (педагогика) У.Ж.Содиков–ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси катта ўқитувчиси, PhD (педагогика) Ш.О.Садикова-ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси катта ўқитувчиси Г.Қ.Тўлаганова-ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси доценти (психология) Қ. Абдуракимов -ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси доценти в.б., PhD (психология) Ф.А.Чориев -ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси катта ўқитувчиси,
9.	**Такризчилар:** Х.Ж.Худайкулов – ЎзМУ, "Педагогика ва умумий психология" кафедраси профессор в.б., п.ф.д. Ў.Б.Шамсиев – ЎзМУ, "Психология" кафедраси доценти, психология фанлари доктори. М.Э.Хайдаров – ТДПУ, "Умумий педагогика" кафедраси профессори, п.ф.д.

Ishchi o’quv dasturi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____J.X.Karshibayev
2022 yil “___”_____

№_____

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta’lim yo’nalishi:	5140500 – Kimyo

O’quv soatlari hajmi:	240 soat
Ma’ruza	60 (5-semestr 30 s., 6-semestr 30 s.)
Seminar	60 (5-semestr 30 s., 6-semestr 30 s.)
Mustaqil ta’lim	120 (5-semestr 60 s., 6-semestr 60 s.)

Guliston-2022

Mazkur fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 29-avgustdagi 452-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy pedagogika va psixologiya" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Mazkur ishchi fan dasturi "Pedagogika" fakulteti Kengashining 2022 yil "___" _____dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (_____-sonli bayonnoma).

Mazkur ishchi fan dasturi "Pedagogika" kafedrasining 2022 yil "___" _____dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (_____-sonli bayonnoma).

Tuzuvchi:

M.Q.Xidirova GulDU "Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

H. Abdukarimov GulDU "Pedagogika" kafedrasi professori v.b, pedagogika fanlari nomzodi

M.X.Xolnazarova GulDU "Psixologiya" kafedrasi professori v.b, psixologiya fanlari nomzodi

"Pedagogika" kafedrasi mudiri:_____D.E.Toshtemirov

Pedagogika fakulteti dekani: _____J.K.Komilov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i _____I.Xudoyberdiyev

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
UPPB308	2022-2023	5-6	8
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O’zbek/rus		4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Umumiy pedagogika va psixologiya	120	120	240

I. Fanning mazmuni

Fanni o’qitishdan maqsad – Talabalarga ta’lim va tarbiya jarayonlarining nazariy va amaliy asoslarini o’rgatish, pedagogik faoliyat mazmuni bilan tanishtirish, umumpedagogik bilimlarni, pedagogik madaniyatni, kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish va innovatsion ta’lim jarayoniga tayyorlash orqali pedagogik jarayonda muvaffaqiyatga erishish masalalarini hal qilishga o’rgatish.

Fanning qonuniyatlari va psixologiyaning asosiy tushunchalari, printsiplarini hamda psixik jarayonlarni nazariy va amaliy tomonlarini o’rganishga yo’naltirilgan.

Shaxs, faoliyat, muloqot, bilish jarayonlariga haqidagi bilim, ko’nikma malakalarni shakllantirish, psixologiya fanining zamonaviy ilmiy bilimlarni o’zlashtirishni tashkil qilish.

Fanning vazifasi – Fanning ilmiy, amaliy va metodologik asoslarini o’rgatish, ta’lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta’lim sharoitida faoliyat yuritish, pedagogik mahoratni egallash yo’llari, ta’lim muassasasining ish hujjatlarini to’g’ri yuritish, pedagogik manbalar bilan ishlay olish ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

Psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o’rnini tushunishi, inson psixikasi haqida umumiy tushunchalarga ega bo’lishi kerak. Shaxsning individualpsixologik xususiyatlari va ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati xususida umumiy bilimlari bo’lishi kerak.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Pedagogika fanining predmeti, tadqiqot metodlari

Pedagogika - ijtimoiy fan sifatida. Pedagogika fanining jamiyat taraqqiyotida tutgan o’rni. Pedagogikaning rivojlanish bosqichlari. Pedagogikaning ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Pedagogik jarayon. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogikaning metodologik asoslari. Pedagogik tadqiqot metodlarining o’ziga xosligi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Pedagogik tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish. Pedagogik tajribalarni o’rganish, umumlashtirish va targ’ib qilish.

O’zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishi. Pedagogikaning taraqqiyot tendentsiyalari.

2-mavzu: Pedagogik ta’limotlar tarixi

Pedagogik g’oyalarning rivojlanish bosqichlari.

Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o’ziga xos xususiyatlari. Xalq og’zaki ijodida tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi. “Avesto” eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida tarbiya va maktab.

Sharq uyg’onish davrida ta’lim-tarbiya taraqqiyoti. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi va didaktik qarashlari.

Temuriylar davrida ilm-fan, ta’lim-tarbiyaning ravnaq topishi. XVII asr va XX asr boshlarida maktab va ma’rifiy fikrlar taraqqièti.

G’arb Uyg’onish davrida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi.

O’zbekistonda 1917-1990 yillarda ta’lim tizimi va pedagogika.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta’lim tizimi.

3-mavzu: O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari

O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar. O’zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati mazmuni va uni aks ettiruvchi hujjatlar. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O’zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

O’zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari. Pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqi.

Ta’lim turlari. Maktabgacha ta’lim. Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim. Kasbiy ta’lim. Oliy ta’lim. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim.Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayèrlash. Maktabdan tashqari ta’lim. Ta’lim muassasalarining funktsiyalari.

O’zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalarining o’zaro integratsiyasi va istiqbollari.

4-mavzu: Pedagogik jarayonda tarbiyaning mazmuni.

Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Tarbiya jarayoni va uning o’ziga xosligi. Tarbiya jarayonining asosiy tushunchalari (o’z-o’zini tarbiya, qayta tarbiya). Tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi.

Tarbiya jarayoni qonuniyatlari. Tarbiyaning ijtimoiy sharoitlarga bog’liqligi qonuniyati. Inson tabiati bilan bog’liqligi qonuniyati. Tarbiya, ta’lim va shaxs rivojlanish jarayonlarining o’zaro bog’liqligi.

Tarbiya jarayonining mazmuni va tarbiyalanganlik mezonlari.

Tarbiya printsiplari. Tarbiya printsiplariga qo’yiladigan talablar. Tarbiyaning ijtimoiy yo’nalganligi va yaxlitligi: tarbiyaning ijtimoiy hayot va mehnat bilan birligi. Tarbiyaning insonparvarlik printsipi. Tarbiyalanuvchiga xususiy yondashuv.

Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi printsipi.

5-mavzu: Tarbiya jarayonining shakllari va metodlari

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining tarbiya jarayonidagi o’rni. Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Sharq allomalarining tarbiya metodlari haqidagi fikrlari.

Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar. Shaxs faoliyatini tashkil etish metodlari. Shaxs faoliyati, xulqini rag’batlantirish va jazo metodlari. O’z-o’zini tarbiya metodlari. Tarbiya usullari. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlarini tanlash asoslari.

Jamoa haqida tushuncha. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Jamoaning belgilari. Shaxsning jamoada qaror topishi.

O’quvchilar jamoasi – pedagogik jarayonning asosiy shakli sifatida. O’quvchilar jamoasining asosiy belgilari va shakllanish bosqichlari. O’quvchilar jamoasiga pedagogik rahbarlik.

6-mavzu: Ijtimoiy pedagogika asoslari.

Ijtimoiy pedagogikaning predmeti. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari va printsiplari. Ijtimoiy pedagogik g’oyalarning Markaziy Osiyo, Rossiya va G’arbdagi tarixi.

Oila fuqarolik jamiyati institutining asosiy bo’g’ini. Oila va mahalla - milliy hamda umuminsoniy tarbiyaning muhim instiutlari sifatida. Yoshlarni oilaviy haètga tayèrlash. Oila pedagogikasining metodologik asoslari. Oila - pedagogik o’zaro munosabatlar hamda shaxs tarbiyasi va kamolotining sub’ekti sifatida. Oilaviy hayot sohasi tarbiya muhiti sifatida. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.

Oila va bolalar, ota-onasiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat. Deviatsiya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida. Alkogolizm, giyohvandlik- deviantlik xulqi vujudga kelish shakli sifatida. Jinoyatchilik delinkventlik hulqi vujudga kelish shakli sifatida.

7-mavzu: Ta'lim jarayonining mohiyati

"Didaktika" tushunchasining mohiyati. Didaktika – pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida. Yan Amos Kamenskiyning "Buyuk didaktika"asari, Didaktikaning maqsadi va vazifalari Didaktikaning asosiy tushunchalari. Didaktik nazariyalar va ularning falsafiy asoslari. Ta'lim paradigmalari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Ta'limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, ularning bog'liqligi.

Ta'lim jarayoni mohiyati. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari.

Ta'lim jarayonining printsiplari. Ta'lim printsiplarining guruhlanishi.

Ta'lim mazmunini belgilashning yetakchi g'oyalari. Ta'lim mazmunini shakllantirish printsiplari. Ta'lim mazmunida milliy va jahon tajribalarini muvofiqlashtirish. Davlat ta'lim standartlari. Umumiy o'rta davlat ta'lim standarti. O'rta maxsus va kasb-hunar davlat ta'lim standarti. O'quv reja, o'quv dastur va darsliklar tavsifi.

8-mavzu: Ta'limning tashkiliy shakllari va metodlari

Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha. Dars – o'qitishning asosiy tashkiliy shakli. Darsga qo'yiladigan talablar.

Dars turlari va tuzilishi. Hozirgi kunda darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini uyg'unlashtirish. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning reja-konspekti. Darsning texnologik kartasi.

Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari.

"Ta'lim metodlari" tushunchasining mohiyati. Ta'lim metodlarining tasnifi. An'anaviy o'qitish metodlari klassifikatsiyasi.

Ta'limning zamonaviy vositalari. Ta'limda ko'rgazmali vositalar. Ta'limda texnik vositalar. Texnik vositalarga qo'yiladigan didaktik talablar. Ta'lim vositalarining funktsiyalari.

9-mavzu: Ta'limda innovatsion jarayonlar

"Innovatsion metod" tushunchasi. O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Interaktiv ta'lim va uning o'ziga xosliklari. Interaktiv ta'lim metodlari tasnifi. Ta'lim strategiyalari. Grafik organayzerlar.

Interaktiv metodlarni turkumlash. Fanlarni o'qitishda interaktiv metodlaridan foydalanish. Interaktiv darsni tashkil qilishga qo'yiladigan talablar. Interaktiv dars shakllari, metodlari va vositalari. Interaktiv dars va o'qituvchi faoliyati. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash metodikasi.

Tarbiya texnologiyasi tushunchasi. Tarbiya texnologiyasining tarkibiy tuzilishi. Tarbiya texnologiyasi mazmuni. Tarbiya texnologiyalarini modellashtirish. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bosqichlari. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish. Hamkorlik pedagogikasi. Insonparvarlik texnologiyasi. Tarbiyaviy texnologiyalar treningi.

10-mavzu: Elektron pedagogika asoslari

Elektron pedagogika – pedagogikaning zamonaviy tarmog'i sifatida. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlari. Axborot tizimlari, shaxsning ta'lim, tarbiyasi va rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlari.

Dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish printsiplari.

Ta'lim portallari. Masofaviy ta'lim. Elektron darslik. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanib multimediali o'quv kurslarini yaratish. Mediakompetentlik, pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini yaratish.

11-mavzu: Pedagogik diagnostika

Pedagogik diagnostika va diagnostikalash. Pedagogik diagnostikaning mazmuni. Pedagogik diagnostika va uning ahamiyati. Pedagogik diagnostikaning predmeti, mohiyati, asosiy vazifa va

kategoriyalari. Pedagogik diagnostikaning mezonlari. Pedagogik diagnostikaning asosiy printsiplari. Pedagogik diagnostika metodlari va bosqichlari.

Pedagogik diagnostikada ta'lim oluvchilarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish. Tarbiyalanganlikni aniqlash mezonlari. Shaxs tarbiyalanganligini pedagogik tahlil etish. Tarbiyaviy ishlar va tadbirlarni rivojlantirish istiqboli. Tarbiya jaraènining o'qitish jaraèni bilan bog'liqligi.

Ta'lim olganlikni tashxis qilish. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan talablar. Nazorat turlari, shakllari va metodlari. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning o'rni.

12-mavzu: Korrektsion pedagogika va inklyuziv ta'lim asoslari

Korrektsion pedagogika - pedagogika fanining tarmog'i sifatida. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish. Korrektsion pedagogikaning tarkibiy qismlari, tuzilishi va tizimi. Korrektsion pedagogikaning asosiy vazifalari, kategoriyalari. Anomal bolalar va ularni klassifikatsiyalash. Anomal bolalar bilan olib boriladigan korrektsion ishlarning asosiy yo'nalishlari.

Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari. Inklyuziv ta'limning tarixi va rivojlanishi. Inklyuziv ta'limni boshqarishning huquqiy-me'yoriy va axloqiy asoslari. Inklyuziv ta'lim printsiplari. Inklyuziv ta'lim metodlari. Inklyuziv ta'limning kategoriyalari. Inklyuziv ta'limda pedagogning kasbiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

Zamonaviy jamiyatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'llari.

13-mavzu: Ta'lim menejmenti asoslari

Ta'lim menejmenti tushunchasi. "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"da ta'lim tizimini boshqarish masalalari. Ta'lim tizimi menejmenti vazifalari. Ta'lim tizimini boshqarish printsiplari. Ta'limni boshqarishda vakolatli davlat organlar va ularning huquqlari. Ta'lim tizimida davlat-jamoat boshqaruvi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy ta'limni boshqarishda mahalliy vakolatli organlar. Ta'lim muassasalarining Nizomi. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy o'rta ta'lim haqida"gi Nizomi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi Ustavi.

Ta'lim sifatini va ta'lim xizmatlarini monitoringi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish. Pedagog kadrlar attestatsiyasi. Kvalifikatsiya.

14-mavzu: Maktab – pedagogik tizim sifatida

Pedagogik tizimni boshqarishning predmeti, printsiplari va vazifalari. Maktab – pedagogik tizim va boshqarishning ob'ekti sifatida. Maktabning ichki boshqaruvi, uning tuzilishi va vazifalari. Pedagogik Kengash va uning vazifalari. Metodik Kengash va uning vazifalari. Maktab direktorining vazifalari. Rahbar madaniyati. Direktor o'rinbosarlarining vazifalari. Sinf rahbarining vazifalari. Pedagogik jamoaning o'ziga xosligi.

Pedagogik diagnostika va maktab faoliyatini tahlil qilishning mazmun, maqsadi, turlari va vazifalari. Maktabda ichki nazorat va pedagogik faoliyatni tashkil qilish. Maktabni ichki nazorat qilish printsiplari: tizimlilik, xolislik, harakatlilik, to'ldiruvchilik.

15-mavzu: Pedagogik kompetentlik va kreativlik

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida o'qituvchi faoliyati mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari. Pedagogik mahoratni egallash vositalari. Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi sifatida. Pedagogik qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyat – pedagogik aloqa o'rnatishning asosiy vositasi.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnika vositasi: verbal va noverbal. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Pedagogik deontologiya. Pedagogik muloqot uslubi va uning tuzilishi. Pedagogik nizolar, ularni bartaraf etish usullari. Nutq texnikasi. Pedagogik takt va pedagogik odob.

Pedagogik kompetentlik. Kasbiy kompetentlik sifatlari. Pedagogik kompetentsiya. Pedagogik ijodkorlik va refleksiya. Pedagogning o'z ustida ishlashi. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati. Kreativlik sifatlari. Shaxs kreativligini ifodalovchi xususiyatlari. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kreativlikni shakllantirish.

II modul "UMUMIY PSIXOLOGIYA"

1– mavzu: Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari

Psixologiyaning predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari. Psixologiyaning falsafa doirasida rivojlanishi. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirish shakllari. Psixik aks ettirish. Onglilik va ongsizlik.

Umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, psixofiziologiya, zoopsixologiya, muhandislik psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, harbiy psixologiya, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya (oligofreniya, tiflo, surdo), differentsial psixologiya, yuridik psixologiya. Introspektsiyaning psixologik holatini tadqiq qilishga qodir emasligi. Psixik jarayonlarning shakllanishi va hukm surishini tekshirishning ob'ektiv metodlari. Kuzatish, suhbat, inson faoliyati mahsulini tahlil qilish psixologiyaning metodlari sifatida.

2- mavzu: Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi

Shaxs haqida tushuncha. Shaxsni o'rganishga turlicha yondashuvlar. Z.Freyd maktabi. Z.Freyd g'oyalarida shaxs strukturasi. Shaxs psixologiyasi, ko'p qirraligi. Individ, shaxs, individuallik. Shaxsning turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganilishi. Shaxs muammosi va fanning metodologik darajalari. Shaxsga nisbatan evolyutsion tarixiy va tizimli yondashuv. Shaxsning psixik rivojlanishini tabaqalashtirish sxemasi (D.B.Elkonin). Inson tabiatini evolyutsion jihatdan tadqiq etish. Muhit, shaxs rivojlanishi. Psixologiyaning turli yo'nalishlaridagi rivojlanish haqidagi tasavvurlar. Hayot tarzi, inson individual xususiyatlari,
hamkorlik faoliyati-shaxs rivojlanishining asoslari. S.Xollning bolani taraqqiyot kontseptsiyasi: rekapitulyatsiya qonuni, shaxs kamolotida fazalari.

3 – mavzu: Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi

Teri tuyushning uch komponenti (sezish, haroratni sezish, og'riqni sezish). Teri tuyushning murakkab shakllari va sezish idroki. Sezish va harakatni sezishni o'rni. Sezish obrazining paydo bo'lish fazalari. Obrazlarni bilish va qurishda informatsion ko'rinishlar. Sezishning fiziologik mexanizmlari. Eshitishning fiziologik va neyrofiziologik asoslari. Eshitish idrokining murakkab formalari. Ko'rish analizatorining tuzilishi. Ko'rish analizatorining yo'llari. Ko'rish analizatorining markaziy apparati. Birlamchi va ikkilamchi ko'rish po'stloqlari. Sezgilarni signalli aks ettirishi. Adaptatsiyani vujudga kelishi. Adaptatsiyaning periferik va markaziy mexanizmlari. Idrokning assotsiativ nazariyasi. Nativizm va empirizm. Geshtalt psixologiyada idrok. Gibsonning idrok nazariyasi. Xebning idrok nazariyasi. Piajening idrok nazariyasi. Perseptiv faoliyat nazariyasi. Mutlaq eshitish. Har xil musiqiy ohanglarda tovushlarni idrok qilishning ketma-ketligi. Rang sinesteziyasini fizikasi va nutq tovushlarining fonologiyasi. So'zlarni idrok qilish.

4 – mavzu: Diqqat va Xotira – psixik jarayon sifatida

Diqqatning boshqa psixik hodisa va jarayonlar bilan taqqoslash. Perseptiv, intellektual va ijro etuvchi diqqat. Diqqatning psixik o'rni haqidagi bahslar va uning tabiati. Diqqatning mustaqil faoliyat ekanligi yoki bu boshqa psixik faoliyat uchun ham xosligi. Diqqatning hajmi. Diqqat hajmining individual xususiyatlari. Diqqatning to'planishi. Diqqatning barqarorligi. Diqqatning tebranishi. Diqqatning ko'chishi va taqsimlanishi. Material xarakteriga, faoliyat turlari ko'ra diqqatning barqarorligi. Diqqatni bo'linishini belgilovchi omillar. Ta'sirlarga chidamliligini baholash usullari. Diqqatning ko'chishi va taqsimlanishi. Har xil harakatlarga diqqatning taqsimlanish qobiliyatini belgilovchi omillar. Xotira haqida umumiy tushuncha. Xotira – o'tmish tajribalarni esga olib qolish, esga saqlash va unutishdan ibora jarayon sifatida. Xotira bilan bog'liq hodisalar. Fenomenal xotira. Xotira va o'rganish. Diqqat va xotira. Xotira va shaxs. Asab tizimida xotira izlarini saqlanishi. Qisqa va uzoq muddatli xotiraning fiziologik mexanizmlari. Xotirani ta'minlovchi miya tizimlari. Ixtièrsiz, ixtiyoriy xotira. Obrazli xotira.

5 – mavzu: Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi

Tafakkur bilish jarayonlari tizimida. Tafakkur va ong. Tafakkur va muloqot. Tafakkur psixologiyasi sohasida ishlarning nazariy va amaliy ahamiyati. Tafakkur turlari: ko‘rgazmali-obrazli, ko‘rgazmali-harakat va so‘z-mantiq tafakkurlari. Konkret va abstrakt tafakkur (Goldshteyn bo‘yicha). Empirik va nazariy tafakkur (V.V.Davidov bo‘yicha). Amaliy va nazariy tafakkurni qièslash (B.M.Teplov bo‘yicha). Produktiv va reproduktiv tafakkur. Ijodiy va tanqidiy tafakkur

6 – mavzu: Motiv va motivatsiya va hissiyotning namoyon bo‘lishi

Inson faolligi, uning shakllari va determinantlari. Ehtiyoj, motiv va motivatsiyalarni aniqlash. A.N.Leontevning konsepsiyasida ehtiyojlar va motivlar.Turli psixologiya maktabida motivatsiya muammosini o‘rganilishi. Motivatsiya modellari. Motivlarning evolyusion nazariya (instiktlar nazariyasi), drayvlarni qisqartirish nazariyasi, faollashtirish nazariyasi,

Emotsional holatlar. Stress tushunchasi va psixik zo‘riqish, stressning tavsifi. Stressni boshqarish. Kayfiyatning umumiy tavsifi va uning tuzilishi. Frustratsiya va bezovtalik emotsioanal holat sifatida.Ixtiyoriy reaksiyalarning kelib chiqishi. Irodaviy xulq-atvorning ontogenetik xususiyatlari. Shaxsning irodaviy sifatlarini rivojlanishi. Hissiyot nazariyalari. Hissiyotlar emotsional munosabatlar sifatida va ularning buzilishi. Emotsiya psixik holat va jarayonlar sifatida. Inson emotsional holatlarining umumiy turlari. Kayfiyat, stress va salomatlik, nisbiy barqaror hissiyot va ularning klassifikatsiyasi.

7 – mavzu: Temperament - shaxs tuzulmasi sifatida

Temperament haqida tushuncha. Temperament tiplari va ularning tavsifi. Psixologiyada xarakter muammosi. Shaxs va xarakter. Xarakterning tuzilishi. Xarakterga turlicha yondoshuvlar. Qobiliyatlar haqida tushuncha. Umumiy va maxsus qobiliyatlar. Qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatlar.

8 – mavzu: Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatning birligi sifatida.

Psixologiyada xarakter muammosi. Xarakter shakllanishi. Xarakter aksentuatsiyasi. Jinsiy dimorfizm va individning psixologik tavsifi. Jinsiy farqlanishning psixologik muammolari. Shaxsning instrumental darajalari: qobiliyatlar haqida tushuncha. Maxsus va umumiy qobiliyatlarni aniqlovchi testlar.

9 – mavzu: Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muommolari

Ta’lim va tarbiya ko‘pgina fanlarning predmeti sifatida. Pedagogik faoliyat psixologiyasi ta’lim va tarbiyaning psixologik jabxalari. Ta’lim va tarbiyaning amaliy yig‘indisi. Tarbiyaning ta’lim oldidagi ustunligi. Pedagogik psixologiya tuzilmasi. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari. Rivojlanishda senzitiv davr muammolari. Bolaning psixik rivojlanishi va pedagogik ta’sirning o‘zaro aloqadorligi muammosi. Genotipik va muhitda shartlanganlik muammosi. Pedagogik ortda qolish muammosi. Ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya muammosi.

10 – mavzu: Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi

Pedagogik psixologiyaning umumpsixologik konteksti. Psixologiya nazariyalari va uning pedagogik psixologiya rivojlanishiga ta’siri. Fanga “Pedagogik psixologiya” terminining kiritilishi. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.

11 – mavzu: Pedagogik psixologiya metodlari

Umumiy va maxsus metodlar. Pedagogik psixologiyada eksperiment. Testlar va boshqa psixodiagnostik metodlarni qo‘llash. Tadqiqot, konsultatsiya va psixologik-pedagogik korreksiya metodlari.

12 – mavzu: Turli yosh davrlarida o‘zlashtirish xususiyatlari

Bolalik va erta davr. Maktabgacha davr. Kichik maktab davrida o‘qitish. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida o‘qitish va o‘zlashtirish.

13 – mavzu: Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari

Tarbiyaning nazariy masalalari. Tarbiyaning maqsadi. Vosita va metodlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri, vositali, anglangan va anglanmagan, emotsional va xulqiy, ularning xususiyatlari va kamchiliklari. Tarbiya institutlari. Tarbiyaning psixologik nazariyasi. Tarbiyaning biogen nazariyasi. Tarbiyaning

sotsiogen nazariyasi. Kompromiss yondashuv. Xarakter, motivlar, shaxs sifatlari va xulq-atvor ko‘rinishlarini tarbiyalash masalalari.

Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jabhalari. Muloqot va tarbiya. Shaxsning alohida sifatlari shakllanishi uchun muloqotning turlari. Bolalarda muloqotning shakllanishi. Shaxslararo muloqot etalonlarining shakllanishi. Jamoa va shaxs rivojlanishi. V.M. Bexterev va M.V. Lange tadqiqotlari.

Oila va tarbiya. Oila ichidagi munosabatlarning turlari. Oilada bola tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillarning birligi va ularni boshqarish yo‘llari. Rag‘batlantirish va jazolashni qo‘llash. Noto‘liq oila. Oila buzilishining ijtimoiy-psixologik oqibatlari. Aka va singillar rollari. Bolalarni tarbiyalash va ota-ona xulq-atvori maromi.

Turli yosh davrlarida tarbiyalash. Bolalik va erta davr. Kichik maktab davrida tarbiyalash. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida tarbiyalash.

14 – mavzu: Pedagog psixologiyasi

Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan psixologik talablar. Pedagoglarning ijtimoiy-maxsus sifatlarini aniqlash metodi. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari. Kommunikativ qobiliyatlar tuzilmasi va pedagogda uni rivojlantirish usul hamda vositalari. Pedagogik muloqot. Pedagog faoliyatining individual uslubi. Pedagogning individual uslubi orqali bola individualligini shakllantirish. Pedagogda o‘zini o‘zi rivojlantirish va shakllantirish. Pedagogik o‘zini o‘zi boshqarish psixologiyasi.

15 – mavzu: Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv

Ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi, uning sinonimlari va evolyusiyasi. Pedagogik texnologiyalarning ikki manbai. An’anaviy didaktikadan ajralib turuvchi o‘qitishning asosiy texnologiyalari, ularning umumiy xarakterdagi belgilari.

Ta’limning diagnostik maqsadlarini o‘rnatish texnologiyalari. Bilish qobig‘ida diagnostik maqsadlar taksonomiyasi (E. Saitbaeva bo‘yicha). Texnologik tashkillashgan o‘quv jarayonining belgilari. Diagnostik maqsadlarni ilgari surish. O‘quvchilarning kuzatiluvchi harakatlari ko‘rinishidagi istalgan etalonlarni belgilash asosida ta’limni rejalashtirish. O‘quvchilarni oldindan test sinovlaridan o‘tkazish va o‘quvchilarning real imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv maqsadlarini konkretlashtirish. Qayta aloqa orqali ta’limni maqsadga yo‘naltirish va ta’limning borishini korreksiyalash. Ta’limni alohida ta’lim sikllariga bo‘lish. Ta’lim jarayonini to‘liq boshqarish. So‘nggi natijaning kafolatlanganligi.

Psixologiya kursida o‘quv vazifalari tizimi. O‘quv vazifalari taksonomiyasi va ta’lim jadalligini boshqarish. D.Tollingerovaning o‘quv vazifalari taksonomiyasi. Taksonomiyani kengaytirish va psixologiyani o‘qitish maqsadiga hamda predmetli tarkibiga adekvat bo‘lgan vazifalarni kiritish. Psixologiya kursida bilish faoliyati shakllanishini boshqarishdagi didaktik strategiyalar.

Ma’ruza mashg’ulotining soatlarda taqsimlanishi

1 -jadval

T/r	Ma’ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
	1-qism (5-semestr). Pedagogika	
16.	Pedagogika fanining predmeti, tadqiqot metodlari	2
17.	Pedagogik ta’limotlar tarixi	2
18.	O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida modernizatsiya jarayonlari	2
19.	Pedagogik jarayonda tarbiyaning mazmuni.	2
20.	Tarbiya jarayonining shakllari va metodlari	2
21.	Ijtimoiy pedagogika asoslari.	2
22.	Ta’lim jarayonining mohiyati	2
23.	Ta’limning tashkiliy shakllari va metodlari	2
24.	Ta’limda innovatsion jarayonlar “Innovatsion metod” tushunchasi.	2
25.	Elektron pedagogika asoslari	2
26.	Pedagogik diagnostika	2

27.	Korreksion pedagogika va inklyuziv ta’lim asoslari	2
28.	Ta’lim menejmenti asoslari	2
29.	Maktab – pedagogik tizim sifatida	2
30.	Pedagogik kompetentlik va kreativlik	2
	Jami	**30**
	2-qism (6-semestr). Psixologiya	
16	Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari	2
17.	Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi	2
18.	Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi	2
19.	Diqqat va Xotira – psixik jarayon sifatida	2
20.	Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi	2
21.	Motiv va motivatsiya va hissiyotning namoyon bo‘lishi	2
22.	Temperament - shaxs tuzulmasi sifatida	2
23.	Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatning birligi sifatida.	2
24.	Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muommolari	2
25.	Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi	2
26.	Pedagogik psixologiya metodlari	2
27.	Turli yosh davrlarida o‘zlashtirish xususiyatlari	2
28.	Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari	2
29.	Pedagog psixologiyasi	2
30.	Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv	2
	Jami	**30**

III. Seminar mashg’ulotlar bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg’ulotlarida talabalarda nazariy o’zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalari hosil qilinadi.

Seminar mashg’ulotining soatlarda taqsimlanishi

2-jadval

T/r	**Seminar mashg’ulot mavzulari**	**Soatlar hajmi**
	1-qism (5-semestr). Pedagogika	
16.	“Pedagogika”ning ijtimoiy fan sifatida jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni	2
17.	Pedagogik fikrlar taraqqiyoti va tarixiyligi	2
18.	Ta’lim – O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi sifatida	2
19.	Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari	2
20.	Zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari va shakllari	2
21.	O‘quvchilar jamoasi – pedagogik jarayonning asosiy shakli	2
22.	Didaktik nazariyalar va ta’lim paradigmalari	2
23.	Ta’lim metodlari va shakllarini amaliyotida qo‘llanilishi	2
24.	Ilg‘or pedagogik texnologiyalar	2
25.	Ta’limda AKT va interaktiv texnologiyalardan foydalanish	2
26.	Pedagogik nazorat va ta’lim sifatini baholash	2
27.	Inklyuziv ta’lim modellari	2
28.	Ta’lim muassasasini boshqarish asoslari	2
29.	Maktabda boshqaruv organlari va ularning vazifalari	2
30.	Pedagogik kompetentlik va kreativlikni shakllantirish	2
	Jami	**30**

2-qism (6-semestr).Psixologiya		
11.	Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari	2
12.	Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi	2
13.	Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi	2
14.	Diqqat va Xotira – psixik jarayon sifatida	2
15.	Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi	2
16.	Motiv va motivatsiya va hissiyotning namoyon bo‘lishi	2
17.	Temperament - shaxs tuzulmasi sifatida	2
18.	Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatning birligi sifatida	2
19.	Pedagogik psixologiya: predmet, tuzilma, muommolari	2
20.	Pedagoik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi	2
21.	Pedagogik psixologiyaning metodlari	2
22.	Turli yosh davrlarida o'zlashtirish xususiyatlar	2
23.	Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari	2
24.	Pedagogik psixologiya	2
25.	Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv	2
	Jami	**30**

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ishlash uchun talabalarga pedagogika va psixologiyaga oid ma’lumotlar mavjud bo’lgan turli adabiyotlar tavsiya etiladi. Bakalavr talabalarga mustaqil ishni barqaror rivojlanish asoslari fani xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-darslik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha mavzularni konspektlashtirish;
-adabiyotlar asosida referat yozish;
-kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
-Internet tarmog’idan axborotlar izlash va tahlil etish;

Mustaqil ta’limning soatlarda taqsimlanishi

3-jadval

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Soat hajmi
1-qism (5-semestr). Pedagogika		
1	Ta’limni tashkil etishning noan’anaviy shakllari.	10
2	O‘qitishda interfaol metodlar.	10
3	O‘zbekiston Respublikasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy himoyasi.	10
4	O‘qituvchining pedagogik mahorati.	10
5	Ta’lim muassasasi rahbarining shaxsiy sifatlari	10
6	Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi	10
	Jami	**60**
2-qism (6-semestr). Psixologiya		
1	Umumiy psixologiya fani predmeti, ilmiy tadqiqot metodlari	8
2	Sezgi va idrokning psixologik mohiyati, fiziologiyasi	8
3	Diqqat va Xotira – psixik jarayon sifatida	8
4	Tafakkur va nutqning psixologik tavsifi	8
5	Motiv va motivatsiya va hissiyotning namoyon bo‘lishi	6
6	Temperament - shaxs tuzulmasi sifatida	8

7	Xarakter, qobiliyat va harakat inson faoliyatning birligi sifatida.	8
8	Pedagogik psixologiyaning yuzaga kelish tarixi	6
	Jami	**60**

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- pedagogik jarayonning mohiyatini tushunadi, ta'lim va tarbiyaning metodlarini biladi, ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini pedagogik diagnostikasi, pedagogik faoliyat, psixikaning evolyutsion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyatsiya, sezgi va idrok, diqqat va xotira, tafakkur va nutq haqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;
- pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tashkil qilish, ta'lim va tarbiya metodlaridan, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, o'quv reja, o'quv dastur va uslubiy va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish, psixologik jarayonlarni yuzaga kelish mexanizmlarini bilish, shaxs kamoloti yo'lida ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi;***
- ta'lim jarayonini innovatsion boshqarish, inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat yuritish, o'quvchilarni bilim olganlik va tarbiyalanganligini tashxis qilish, pedagogik mahoratni egallash yo'llari, ta'lim muassasasining ish hujjatlarini to'g'ri yuritish, pedagogik manbalar bilan ishlay olish, ilg'or tajribalarni o'rganish va o'z faoliyatiga singdirish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- faollashtiruvchi ma'ruzalar;
- interfaol metodlar;
- seminar-konferentsiya,
- seminar-munozara;
- guruhlarda ishlash;
- individual va jamoaviy loyihalar;
- keys-stadilar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi kerak.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh., Asqarov A. Umumiy pedagogika. Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv qo'llanma. -T: Fan va axborot texnologiyalari, 2019. -280 b.
2. Xodjayev B.X., Umumiy pedagogika. Darslik.–Toshkent, "Sano-standart", 2017 y.434 .
3. Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika//darslik. –T.: 2016 y. - 538 b.
4. Umarova M. Teoriya i istoriya pedagogiki. Uchebnoe posobie. – T.: "Izdatelsko-poligrafichkskiy dom imeni Chulpana", 2018 g., -348 b.
5. Muxamedova D.G'., Mullaboyeva N.M., Rasulov A.I., Umumiy psixologiya. Darslik,-Toshkent, "Mumtoz so'z" 2018.-287 b.
6. Luriya A.R. Lektsii po obhey psixologii. – SPb.: Piter, 2016. – 320 s.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatalar strategiyasi". –T.: "Adolat", 2017 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017 y. – 491 b.
3. 2019- 2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining qarori. PQ – 4358 – son. 2019 yil 17 iyun.
4. Atayeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y., -862 b.
5. G'oziyev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2013.
6. Slastenin V. i drugie. Pedagogika. Uchebnoe posobie. –M.: Izdatelskiy tsentr "Akademiya". 2013g. – 576 str.
7.Xidirova M.Q. "Umumiy pedagogika" o'quv-uslubiy qo'llanma 2022-yil
8.Xidirova M.Q. "Pedagogika. Psixologiya" o'quv-uslubiy qo'llanma 2021-yil.

Talaba bilimini baholash

Talaba bilimini baholash kredit-modul tizimiga muvofiq ishlab chiqilgan Nizom asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turi	1-OB	2-OB	YaB
O'tkazilish vaqti	8- hafta	16-hafta	17-18 hafta
Nazorat shakli	Yozma*	Yozma*	Yozma

Oraliq baholash: fanning ma'ruza qismiga tegishli teng yarmi o'tib bo'lingandan so'ng so'ng OB olinadi. Bunda o'tilgan mavzularga doir 3 ta nazariy yozma savollari varianti tarqatiladi. Oldindan tuzilgan 3 ta yozma variantlarini to'la echgan talabaga xar bir to'g'ri javob uchun maksimal 5 baho beriladi.

Yakuniy baholash o'tilgan barcha mavzular bo'yicha tuzilgan variantlari asosida o'tkaziladi. Bunda xar bir talabaga semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha 3 ta nazariy va 1 tadan laboratoriya ishi bo'yicha og'zaki savol variantlari tarqatiladi. Talaba og'zaki javobning xar biridan maksimal 5 baho to'plash imkoniyatiga ega. Umumiy baxo o'rtacha arifmetika asosida chiqariladi.

Izoh. Nazoratlardagi har bir savol va topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo'yicha baholanadi.

Talabalar bilimini baholash mezonlari

a) **"5" (a'lo)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Hulosa va qaror qabul qilish;
- Ijodiy fikrlay olish;
- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

b) **"4" (yaxshi)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mustaqil mushohada yurita olish;
- Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

v) **"3" (qoniqarli)** baho uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- Mohiyatini tushunish;
- Bilish, aytib berish;
- Tasavvurga ega bo'lish;

g) talabaning bilim darajasi **"2" (qoniqarsiz)** deb quyidagi hollarda baholanadi:

- Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- Javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
- Bilmaslik.

TARQATMA MATERIALLAR

1. “Blits-so’rov” (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo’nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko’ra o’qituvchi o’rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va talabalarning e’tiborlariga havola etadi. Talabalar berilgan savolga qisqa muddatda, qisqa va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to’ldirishlari mumkin. Biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo’llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g’oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og’zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

2. “Suhbat” metodi mashg’ulot jarayonida o’qituvchi va talabalar o’rtasida savol va javob shaklida tashkil etiladigan dialogik ta’lim metodi bo’lib, jonli muloqotga asoslanadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo’shimcha savollar berish hamda talabaning fikrlashga undash imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o’qituvchi va talabalar o’rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi. Mazkur metodni qo’llashda quyidagi tartibda ish ko’riladi: 1) o’qituvchi mavzu yuzasidan talabalar o’zlashtirishlari lozim bo’lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi; 2) talabalar savollar bilan tanishtiriladi; 3) ular savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masalaning mohiyatini yuritishga kirishadilar; 4) agarda talabalarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; 5) bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o’qituvchi talabaga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo’shimcha savol beradi; 6) o’rganilayotgan masalaning mohiyati to’la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi.

3. “Klaster” (“klaster” – g’uncha, to’plam, bog’lam) metodi puxta o’ylangan strategiya bo’lib, undan o’quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotlarda o’quvchilar tomonidan bildirilayotgan g’oyalarning majmui tarzida namoyon bo’ladi. Bu esa ilgari surilgan g’oyalarni umumlashtirish va ular o’rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o’ylangan bo’lsangiz, shuni qog’ozga yozing. Fikringizning sifati to’g’risida o’ylab o’tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.

3. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmagunicha, yozishdan to’xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g’oyani o’ylay olmasangiz, u holda qog’ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g’oya tug’ilguniga qadar davom ettiring.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko’proq yangi g’oyalarni ilgari surish hamda mazkur g’oyalar o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik va bog’liqlikni ko’rsatishga harakat qiling. G’oyalar yig’indisining sifati va ular o’rtasidagi aloqalarni ko’rsatishni cheklamang.

Ushbu metod yordamida talabalar topshiriq yuzasidan fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida ifodalaydilar. Masalan,



4. “Test” (inglizcha “sinov”, “tekshirish”) texnologiyasi shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyat, ko’nikma va malakalarini tekshirishga xizmat qiladi. Ushbu metod talabalar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o’zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi. “Test” texnologiyasi quyidagicha qo’llaniladi: 1)

5. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o’zida 36 nafar o’quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo’lgan 6 ta guruh o’qituvchi tomonidan o’rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o’qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo’ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o’z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) echimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur echimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Mazkur metod metodi yordamida mashg’ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:
1. O’qituvchi mashg’ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo’yib chiqadi.

2. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning echimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq echimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

6. "Ijodiy ish" metodi talabalarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida talabalarning erkinigi ta'minlanadi, mustaqil fikrlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ular mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradilar. Yagona talab talabalar mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarini dalillar bilan isbotlay bilishlari lozim.

7. "Debat" (frantsuzcha "debattere" so'zidan olingan bo'lib, "debats" – "bahslashmoq") texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi: 1) o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi zarur bo'lgan muammo tanlanadi; 2) bahslashish uchun ikki nafar talaba (yoki guruh, juftliklar)ning e'tiborlariga tanlangan muammo havola etiladi; 3) talaba (guruh yoki juftliklar)ning muammo yuzasidan fikrlari tinglanadi; 4) ekspertlarning fikrlari o'rganiladi; 5) debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi; 5) debat yakunlanadi.

8. "Muammoli vaziyat" metodi talabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini o'rganish va echimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar jarayonida "Muammoli vaziyat" metodini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish; 2) muammoli vaziyat mazmuni bilan talabalarni tanishtirish; 3) talabalarni kichik guruh yoki juftliklarga ajratish; 4) guruh yoki juftliklarning muammoli vaziyat echimini topish bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil etishlari; 5) guruh yoki juftliklar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o'z echimlarini bayon qilishlari; 6) guruhlar yoki juftliklarning echim borasidagi fikrlarini umumlashtirish; 7) guruhlar yoki juftliklar tomonidan taqdim etilgan echimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish yoki ekspertlar muhokamasidan o'tkazish); 8) eng to'g'ri, maqbul echimni aniqlash.

9. "T-jadval" texnologiyasi o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 1) talabalar e'tiboriga o'rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi; 2) talabalar "T-jadval" metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladilar; 3) talabalr guruhlar yoki juftliklarga biriktiriladilar; 4) ajratilgan vaqt oralig'ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya'ni jadvalning chap va o'ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar; 5) guruhlar (juftliklar) tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi; 6) masalaning echimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi yoki yagona "T-jadval" shakllantiriladi.

"T-jadval" metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

10. "Tavsiyanoma" texnologiyasi talabalarda muayyan yo'nalishda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash yuzasidan muayyan tavsiyalarni ilgari surish ko'nikmasini shakllantiradi. Ilgari surilayotgan tavsiyalar mazmunan masalaning echimini topishga yordam berishi, ilmiy jihatdan pedagogik amaliyotga mos kelishi talab etiladi. Metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'riladi: 1) o'qituvchi tavsiyanoma tayyorlash talab etilgan masalani aniqlashtiradi; 2) talabalarga bu haqida e'lon qiladi; 3) talabalar fikr yuritish asosida masalaning echimini topishga harakat qiladilar; 4) masalaning umumiy mohiyatini qayta yodga olish orqali uning muhim jihatlarini belgilab olinadi; 5) belgilangan muhim jihatlarga tayangan holda muayyan tavsiyalar ishlab chiqiladi; 6) ilgari surilayotgan tavsiyalar va ularning samaradorligi muhokama qilinadi; 7) yakuniy xulosaga kelinadi.

Texnologiyani qo'llashda talabalar guruh yoki juftliklarga birikkan holda yoki alohida faoliyat yuritishlari mumkin. Mashg'ulot jarayonida talabalar tomonidan ilgari surilgan barcha tavsiyalar umumlashtiriladi.

11. "Ven diagrammasi" strategiyasi talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondoshuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

"Ven diagrammasi" strategiyani qo'llash bosqichlari: 1) sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linadi; 2) yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi; 3) har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi; 4) topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi; 5) liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradilar

Strategiyasini qo'llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzudagi topshiriqni bajaradi. Talabalar uchun quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

12. "Zig-zag" metodi o'quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1) o'quvchilarda jamoa (yoki guruh) bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

2) mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

"Zig-zag" metodini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) sinf o'quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhga bo'linadi;

2) yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi;

3) har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn, ... va hokazolar) beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi;

4) belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar;

5) vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar;

6) liderlarning fikri guruh a'zolaridan tomonidan to'ldirilishi mumkin;

7) barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi;

8) bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi;

9) shu tahlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

13. "Aqliy hujum" metodi talabalarda mavzu (masala, muammo) xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal echimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metod tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1) talabalarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish g'oyalarni yozish borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish;

2) muammo (yoki mavzu)ni aniqlash;

3) mashg'ulot jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash;

4) bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish qog'oz varaqlari g'oya (yoki fikr)lar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish;

5) bildirilgan fikrlarni yangi g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi;

6) boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayyan xulosalarga kelish kabi harakatlarning talaba tomonidan sodir etilishiga erishiladi;

7) talaba tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi;

8) talabalarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi;

9) g'oyalar bilan boyitish asosida ularni quvvatlash;

10) boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g'oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;

11) yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

Mashg'ulot jarayonida ushbu metoddan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. Talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish.

2. Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi-yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir talaba o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi.

Ularning fikrlari baholanib borilsa, talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi. Metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutgan holda ularning faoliyatini baholab borishdan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

14. “Qanday” metodi talabalarda o’rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi. Metodni qo’llash chog’ida talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko’nikmalari shakllanadi.

1) o’qituvchi tanlangan mavzu, masalani e’lon qiladi;
2) talabalarni mavzu va metod bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiradi;
3) talabalar guruhlarga biriktiriladilar;
4) guruhlarga topshiriq beriladi;
5) guruhlarni topshiriqni bajaradilar;
6) guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlar bilan jamoa tanishtiriladi;
7) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Muammoning yechimi “buni qanday qilish kerak?”, “qanday?” savollariga javob topish asosida ham qilinadi. Muammoni echishda “nima qilish kerak”ligi to’g’risida o’ylanib qolmaslik lozim. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega. Metodni qo’llashda muammoni echish imkoniyatlarigina izlanmay, ularni qo’llash yo’llari ham tadqiq qilinadi.

Metodni qo’llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi: 1) o’ylangan barcha g’oyalar tahlil qilinmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezda qayd etilishi kerak;

2) shakllanayotgan diagramma tugallangan bo’lmay, unga yangi g’oyalarni kiritish mumkin bo’lsin;

3) agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatib, u muammoning asosiy echimi bo’lishi mumkin;

4) yangi g’oyalar grafik, klaster yoki tasvir ko’rinishida bo’lishidan qat’iy nazar yuqoridan pastga yoki chapdan o’ngda qayd qilib boriladi va buni talabalarning o’zlari hal etadilar;

5) agar talabalar savollarni qo’g’ri qo’ysadar va masalaning rivojlanish yo’nalishini ob’ektiv belgilay olsalar, u holda echim to’g’ri topiladi.

15. “Keys-stadi” (ingliz tilida “case” majmua, aniq vaziyat, “stadi” – ta’lim) texnologiyasi talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan vaziyatning muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o’rganish va tahlil qilishga o’rgatadi.

Ushbu texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usullari va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to’plash va ularni o’rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o’qituvchi va talaba o’rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o’quv natijalari.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasini quyidagicha ifodalash mumkin:



“Keys-stadi” texnologiyasining samaradorligi o’quv jarayonini quyidagi texnologik bosqichlarda tashkil etilishiga bog’liq:

1) keys echimini topish bo’yicha individual ishlash;

2) keys echimini topishda jamoaviy hamkorlikka erishish.

Mazkur texnologiyani qo’llashda individual ishlashda quyidagi tartibda ish ko’riladi:

1) talabaning keys-stadi texnologiyasi mohiyati va undan foydalanish shartlari bilan tanish ishi;

2) talaba tomonidan taqdim etilgan muammoning o’rganilishi;

3) muammo yuzasidan asosiy va ikkinchi darajali masalalarni ajratish, shakllantirish va asoslash;

4) tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish;

5) taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o’rganish;

6) berilgan muammoni echishning usul va vositalarini aniqlash;

7) taqdim etilgan echimni ta’lim amaliyotiga tadbiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Keys-stadi bo’yicha jamoaviy hamkorlikda ishlashda quyidagi tartibda ish ko’riladi:

1) muammo va uning echimlari yuzasidan jamoa (guruh) a’zolari o’zaro fikr almashadilar;

2) masalaning echimi bo’yicha taqdim etilgan variantlar muhokama qilinadi va ularning maqbullik darajasi baholanadi;

3) muammoli vaziyatning echimini ta’minlaydigan aniq dastur ishlab chiqiladi;

4) masalaning echim to’g’risida ma’lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi hamda unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

16. “Baliq sekleti” metodi talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Metodni qo’llash chog’ida talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish va ularni tahlil qilish ko’nikmalari rivojlanadi.

1) o’qituvchi metodni qo’llash sharti bilan talabalarni tanishtiradi;

2) talabalar guruhlarga biriktiriladilar;

3) guruhlar topshiriqlarni bajaradilar;

4) guruhlar o’z echimlarini jamoaga taqdim etadilar;

5) jamoa guruhlarning echimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradiar:



TEST SAVOLLARI

1.1918 yil yozida Samarqanda “musilmon o’qituvchilar uchun” qanday kurslar ochildi?
A)ijtimoiy-iqtisodiy kurslar
B)pedagogik kurslar
C) tabiiy- matematika kurslar
D)amaliyotchi xodimlarni tayyorlash kurslar

2.1918 yil 13 may kuni Turkiston hududida “Xalq dorulfununi”ochildi, unga rektor etib kimni sayladi?
A) Fitrat B)Burxon Xabib C)Munavvar Qori D)Iso To’xtaboyev

3……. noma’qul xatti harakatlarning oldini olish uchun qo’llaniladi?
A)Tanbeh berish B)uyaltirish C)xayifsan D)ogohlantirish

4……. –bu tarbiyalanuvchining xatti- harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.
A)Baholash B)qo’llab quvvatlash C)Jazolash D)Rag’batlantirish

5……. tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi o’quv kitobi.
A)darslik B) o’quv vositasi C)o’quv rejasi D)DTS

6.Didaktika pedagogikaning qanday qismi?
A) pedagogikada tarbiya qonuniyatlarini o’rganuvchi qismi.
B)pedagogikada ta’lim jarayoning umumiy qonuniyatlarini o’rganuvchi qismdir.
C)ta’lim jarayonida maxsus pedagogikani o’rganuvchi qismi.
D)pedagogikaning namuna qismi.

7.Didaktika necha qismga bo’linadi?
A)2 B)4 C)3 D)5

8……..- sezish a’zolari orqali ongga ta’sir etib turgan narsa va hodisalarning ongda yaxlitligicha aks etish jarayonidir.
A) Diqqat B)Sezgi C)Idrok D)Tasavvur

9.Ma’lum bir o’qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo’lgan yordamchi o’quv materiallari?
A) asbob—uskuna B)metod C)vosita D)qo’llanma

10.Pedagogikaning asosiy tushunchalari qaysilar ?
A)rivojlantirish, shakllantirish, ta’lim va tarbiya, ma’lumot
B) o’qitish, o’rgatish, namuna ko’rsatish, ibrat bo’la olish
C)shakllanish, tarbiya, tafakkur, idrok va sezish
D)sezish, bilish, anglash, tushunish, xotira, bilim, malaka, ko’nikma

11.Bilimga chanqoq, iste’dodli yoshlarni topib, ularni vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir. Ushbu fikr muallifi kim?
A)Amir Temur B)I.A.Karimov C)K.D.Ushenskiy D)J.Nerru

12…….- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o’zaro ta’sir ko’rsatish usullaridir.
A)Ta’lim B)Tarbiya C) Bilim D) Ko’nikma

13.Yoshi va bilimi jihatdan bir xil bo’lgan ma’lum miqdordagi o’quvchilar guruhiga ……. deb ataladi.
A)sinf B)dars C) guruh D)seminar

14……..deb bevosita o’quvchilarning rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg’ulotiga aytiladi.
A)Tarbiya jarayoni B)Guruh C)Dars D)Sinf

15.Sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan masg’ulot turini ayting?
A) Seminar B)Aralash C)Ma’ruza D)Amaliy tajriba

16.Darsning o’z strukturasiga barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya’ni umumiy yoki aralsh darsni kim tavsiya etgan?
A)T.A.Ilina B)A.Avloniy C)Y.A.Komenskiy D)Munavvar Qori

17.Darsning ichki xususiyati nimadan iborat?

A)Reja,ishlanmalar,jadval
B)Maqsadi, mantiqiy logikasi, mazmunini his qilish va tushunish
C)Sinf, o'quv vositasi, jadval
D)Sinf xonasi, o'quvchilar guruhi, dars maqsadi.

18.O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qachon amalga kiritilgan?
A)Erkak xuquqlari ustivorligi
B)O'zaro teng xuquqlik
C)Ayol xuquqlari ustivorligi
D)Erkak ma'suliyati ustivorligi

19.Vijdon, burch,sadoqat, vafo,ibo,hayo,or-nomus,o'zaro ishonch va o'zaro yordam, odamiylik kabi ushbu tushunchalar qanday kategoriya bo'lib hisoblanadi?
A)Axloqiy B)Aqliy C) Diniy D)Xuquqiy

20.Suhbat, hikoya, namuna kabi tushunchalar tarbiya metodining qaysi guruhiga tegishli?
A)O'z-o'zini tarbiyalash
B)rag'batlantirish va jazolash
C)Faoliyat jarayonidagi ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish
D)Ijtimoiy ongni shakllantirish

21.Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlarini aniqlang?
A)Sezish va idrok qilsh, Bilimlarni tushunish va umumlashtirish, bilimlarni mustahkamlash va amaliyotda sinab ko'rish.
B)Idrok qilish,tasavvur qilish, xulosalash C)Sezish,o'qish,tahlil qilsh,xulosalash
D)o'rganish,o'qish,tahlil,mustahkam fikrlash.

22.«Pedagogika» so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.
A)Lotincha «Paydagogos» so'zidan olingan bo'lib, «bola yetaklash», "bola yetaklayman", degan ma'noni anglatadi
B)«Didaskos» so'zidan olingan bo'lib, o'qitaman, o'rgataman ma'nosini bildiradi.
C)«Pedagogika» so'zidan olingan bo'lib, o'zgartiraman ma'nosini bildiradi.
D)«Pedagogika» so'zidan olingan bo'lib, tarbiya bera man ma'nosini bildiradi.

23.Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar?
A) biologik, ijtimoiy muxit, ta'lim — tarbiya, faoliyat. B)rivojlanish, shakllanish, tarbiya
C)ta'lim, tarbiya, ma'lumot D)bilimdonlik, tarbiya, ta'lim olish, shakllanish.

24.«Didaktika» so'zining lug'aviy ma'nosini bilasizmi?
A) lotincha «didaskol» so'zidan olingan bo'lib «O'qitaman», B)«O'rgataman», ma'nolarini bildiradididaktika faoliyat orkali tarbiyalashdir
C)didaktika —yunoncha o'rgatish, tushuntirish ma'nosini bildiradi
D)didaktika — ta'lim va bilim berish holatini bildiradi

25.Bolaning bog'cha davri qaysi qatorda ko'rsatilgan?
A)1-7yosh B)1-5yosh C)1-4yosh D)1-3 yosh

26.O'zbekistonda ta'lim tizimi turlari qaysilar?
A)boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, liey, yuridik kollejlar, oliy ta'lim
B)maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va kayta tayyorlash, maktabdan tashkari ta'lim
C)umumiy o'rta ta'lim, akademik liey va kasb hunar kollejlari, bakalavriyat va magistraturaboshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim,
D) oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim

27.**Pedagogika fanining «nimaga o'qitish» «nimani o'qitish», kabi savollariga javob beruvchi qismi**
A)tarbiya nazariyasi yoki «Didaskol»
B)ta'lim — tarbiya nazariyasi yoki «Pedalogiya»
C)maktabshunoslik yoki pedagogik — psixologiya deb ataladi.
D)ta'lim nazariyasi yoki Didaktika

28.Ta'limning mazmuni:
A)o'quv dasturida, tegishli qonunlarda

B)darslik va o’quv qo’llanmalarda
C) davlat ta’lim standartlarida, o’quv rejasi, o’quv dasturi va darsliklarda
D)darsda, laboratoriya ishlarida ifodalanadi
29.O’quv rejasi kim tomonidan tasdiklanadi?
A)Tegishli ta’lim vazirligi tomonidan B)Vazirlar Maxkamasi tomonidan
C)Oliy o’quv yurti tomonidan D)Fan doktori — professor tomonidan
30.O’quv dasturi qaysi hujjatga asosan tuziladi?
A)DTS va o’quv rejasiga asosan B)Darslikka asosan
C)«Ta’lim to’g’risida»gi qonunga asosan D)Muassasa rahbari buyrug’iga asosan
31.O’qitish jarayonining sifatini orttirish, o’quvchilarning bilim olishini osonlashtiruvchi ta’lim qoidasini:
A)ta’limning ilmiy bo’lishi B)ta’limda onglilik va faollik
C)ta’limda ko’rsatmalilik D)ta’limning o’quvchilarga mos bo’lishi qoidasi deb aytiladi
32.O’qitish usuli deganda:
A)ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilarning maqsadga erishishga karatilgan birgalikdagi faoliyati.
B)har bir o’qituvchiga xos uslub
C)og’zaki va yozma bayon qilish usulini o’rganish D)o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi munosabat
33.Ta’limning tashkiliy shakliga kim tomonidan asos solingan?
A)Ya.A.KomenskiyA B) A.Avloniy C) D. Didro D) A. Navoiy
39.Bir akademik soat necha minutdan iborat?
A)80 minut B)100 minut C)45 minut D)60 minut
34.Yangi pedagogik texnologiya bu— ?
A)yangi pedagogik mahorat, uslub, san’at va hunar yaratish.
B)yangi tasviriy ko’rgazmalar C)yangi texnik qurollar
D)audio, vidio apparaturalar, kompyuterlar
35.Sinf-dars tizimining asoschisi kim?
A)Ya. A. Komenskiy B)A. Avloniy C)Ushinskiy D)U. Kaykovus
36.Bevosita o’qituvchi rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg’ulotiga:
A)tarbiya B)dars deyiladi C)ta’lim D)seminar
37.Shaxs estetik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari?
A)ehtiyoj qiziqish, munosabat B)estetik did, idrok, tuyg’u
C)estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlar D)tashabbuskorlik, talant, xis — tuyg’u
38.Maktab ta’limining rivojlanishi bo’yicha 2004—2009 yillariga mo’ljallangan umummilliy milliy dasturi qachon qabul qilingan?
A)2004 y 8-noyabr B)2004 y 31- avgust C)2004 y- yanvar D2004 y 24- may
39.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi necha bosqichdan iborat?
A)3 B)5 C)7 D)8
40.Umumiy o’rta ta’lim maktablari Davlat ta’lim standarti qachon qabul qilingan?
A)1998 y 16-yanvar B)1998 y 5-avgust C)1999 y 30 may D)1999 y 16 yanvar
41.Dastlabki maktablar qaysi davlatda va qachon paydo bo’ldi?
A)milloddan avvalgi 5—asrda, qadimgi Yunonistonda
B)milloddan avvalgi 3 — asrda, Germaniyada C)1—asrda, Markaziy Osiyoda
D)7—asrda, G’arbiy Arabistonda
42.O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari Prezidentimiz I.A.Karimovning qaysi asarida o’z aksini topgan?
A)«Yo’limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo’li» (1994).
B)«Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang» (1996).
C)«O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li» (1992).
D)«O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari»(1999).
43.Necha yoshdan e’tiboran yasli davri hisoblanadi?

A)Tug'ilgandan 2 yoshgacha B)1 yoshdan 5 yoshgacha. C)1yoshdan 6yoshgacha.
D)1 yoshdan 3 yoshgacha

44.Maktabgacha tarbiya yoshini aniqlang?

A)2 yoshdan 5 yoshgacha. B)1 yoshdan 7 yoshgacha
C)3 yoshdan 6-7 yoshgacha. D)6yoshdan 7 yoshgacha.

45.Pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar

A)Buyuk didaktika B)Saodotnoma C)Ritorika D)Turkiy guliston yohud axloq

46.Ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy xuquqlaridan biridir. Ushbu fikr qayerdan olingan

A)O'zbekiston konstituttsiyasi B)Turkiy guliston yoxud axloq
C)Hadis D)«Ta'lim to'g'risida»gi qonun

47.Quldorlik jamiyatdagi maktablar?

A)Xalq maktabi B)Zarautsoy maktabi,
C)Sparta Afina maktabi D)Koxinlar maktabi

48.I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi IX sessiyasida (1997) so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida tarbiyaning maqsadi qanday ifodalanadi?

A)Barkamol, Erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash B)Umuminsoniy va milliy tarbiya.
C)Tadbirkor shaxsni tarbiyalash. D)Mehnatsevar inson tarbiyasi.

49.Qadimgi Yunonistonda o'qituvchilarni nima deyishgan?

A)Ta'lim beruvchi B)Pedagog C)O'qituvchi D)Didaskal

50.Magistratura qanday ta'lim turi, necha yil davom etadi?

A)Bakalavr negizida kamida 2 yil davom etadi. B)Bakalavr negizida kamida 3 yil davom etadi.
C)Bakalvrga aloqasi yo'q. D)Magistraturaga bog'liq.

57.O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim qanday ta'lim turi va necha yil davom etadi?

A)Ixtiyoriy-majburiy ta'lim 3 yil davom etadi. B)Majburiy ta'lim 2 yil davom etadi.
C)Ixtiyoriy ta'lim 2 yil davom etadi. D)Majburiy-ixtiyoriy ta'lim 2 yil davom etadi.

58.O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish metodlari qaysi metodlar guruhiga kiradi?

A)O'qitishning ko'rgazamlilik metodlari.
B)O'qitishni og'zaki bayon qilish metodi
C)O'qitishni amaliy metodlari.
D)Mustaqil ish metodlari.

59.O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning intellektual rivojlanishi, chuqur sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan o'rta maxsus ta'lim beruvchi ta'lim muassasasini ayting.

A)Kasb-hunar kolleji B)Oliy ta'lim C)Akademik litsey D)Maxsus internat

60.O'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir necha ixtisoslikni egallash imkonini beruvchi ta'lim muassasasini belgilang.

A)Maxsus internat
B)Oliy ta'lim
C)Kasb-hunar kolleji
D)Akademik lisey

61.Quyidagi javoblardan milliy pedagogikaga berilgan aniq, to'liq va to'g'ri javobni toping

A)Har tomonlama barkamol rivojlangan sog'lom o'qitish, tarbiyalash ma'lumotli qilishva uning qonunyatlarini o'rganadigan fan
B)Jamiyatdagi yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan
C)Jamiyatdagi salomat avlodni tarbiyalash haqidagi fan
D)Sog'lom avlodni tarbiyalashning qonununiyatlarini o'rganadigan fan

62.O'qitish qonuniyati bilan o'qitish printsipi orasidagi bog'liqlikni ko'rsating

A)Ukiish qonuniyati bilan o'qitish printsiplari xech qanday bog'liqligi yuk
B)'qitish qonuniyatidan o'qitish printsipi kelib chiqadi, shuning uchun olar o'zaro bog'liq
C)O'qitish printsiplaridan o'qitish qonunuiyati kelibchiqadi, shuning uchun ular o'zaro bog'liq

D)O’qitish printsiplari, o’qitish, ukuv, dars berish, didaktikaning asosiy tushunchalari , ular bir-biri bilan bog’liq

63.Ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan, behato bajariladigan harakat bu-

A)Bilim B)Ta’lim C)Malaka D)Dars

64.O’quvchi faoliyatining asosiy turi qaysi javobda to’g’riko’rsatilgan?

A)mehnat, o’yin B)o’qish, mehnat C)o’yin, o’qish D)Muomala, mehnat

65.Malaka bu ...

A)Mehnat qilish jarayonida hosil bo’lgan ko’nikmalar natijasi hisoblanadi

B)Bilimlarni amalda bir necha bor qo’llanilishi orqali sodir bo’ladi

C)Insonning uzoq yillar davomida o’zlashtira olgan bilimlar majmuasi

D)Ongli hatti-harakatning avtomatlashtirilgan, behato bajariladigan harakati

66.O’quv dasturida nimalar ko’rsatilgan

A)Har bir o’quv predmetining (fanning) mazmuni, o’quv yillari bo’yicha programma materiallarining (fanning) mazmuni va mavzularining taxminiy soatlari

B)o’quv shaxsini tarbiyalash maqsadi va vazifalar

C)o’quv predmetiga (fanga) ajratilgan haftalik soatlar (dars-lar) miqdori

D)o’quv yilining strukturasi

67.DTSning vazifalari:

A)Ta’lim mazmuniga qo’yiladigan majburiy minimal darajani belgilash

B)Ta’lim muassasalarni tashkil etish

C)Ta’lim muassasalari boshqarish

D)Ta’lim tizimini amalga oshirish

68.Islom Karimovning: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim va tarbiyasini ko’rgan shaxslar kerak», - degan iborasi qayd etilgan asarni aniqlang.

A)«Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyoti poydevori»

B)«Barkamol avlod orzusi»

C)«Buyuk maqsad yo’lida og’ishmaylik»

D)«O’zbekiston - kelajagi buyuk davlat»

69.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan va necha bob, bo’lim, moddadan iborat?

A)1992-yil 8-dekabrda. XXVI bob, 6-bo’lim, 128-moddadan

B)1992-yil 2-iyulda. XXVI bob, 5-bo’lim, 127-moddadan.

C)1992-yil 18-noyabrda. XXVI bob, 4-bo’lim, 125-moddadan.

D)1991-yil 31-avgustda, XXV bob, 6-bo’lim, 125-moddadan.

70.«Har kim bilim olish huquqiga ega» degan ibora Konstitutsiyaning nechanchi bob va moddasida yozilgan?

A)IX bob, 41-modda. C)X bob. 31-modda

B)IX bob. 40-modda. D)X bob, 43-modda.

71.Pedagogik texnologiya nima?

A)ta’limot texnologiyasi B)ish texnologiyasi C)bilim texnologiyasi D)ta’lim texnologiyasi

72.Axborotli texnologiya nima?

A)nazorat turlari (joriy, oraliq, yakuniy)

B)pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi

C)o’zaro ta’sirlar D)pedagogikada monitoring

73.Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi nimalardan iborat?

A)O’quv jarayonini uzluksiz, uzoq vaqt muttassil kuzatish va uni boshqarishdan

B)o’quvchiga qo’yib borilgan baholarni predmet bo’yicha umumiy bahoga birlashtirish qoidalaridan

C)o’quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdan

D)takomillashtirish yoki o’quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdan

74.Pedagogik texnologiyaning asosiy vazifasi nima?

A)o’quv jarayonini tashkil qilish

B)o’quv jarayonini vaqt doirasida olib boorish

C)o’quv jarayonini mazmunli amalga oshirish

D)darslarni to’g’ri tashkil qilish
75.Pedagogik texnologiyani bugungi kundagi ahamiyati qanday?
A)ta’limning baholash shkalasida
B)o’quv jarayonini uzluksizligida
C)sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi
D)pedagogikada monitoringda
76.Pedagogik faoliyatda demokratik muloqotning asosiy shakli.
A)Iltimos, maslahat, axborot ma’ruzada
B)O’qituvchi faollik ko’rsatmaydi, turli tasrlarga tez beriladi
C)Buyruq, ko’rgazma, instruksiya tarzida
D)O’quvchilar fikrini hisobga olmasdan diktator sifatida
77.An’anaviy yondashuvning asosiy xususiyati nimada?
A)gapirib berish, tushuntirish, talaba esa bu axborotni xotirada saqlaydi
B)nazorat turlari (joriy, oraliq, yakuniy) C)ijodiy yondashuv
D)o’zaro ta’sirlar
78.Reproduktiv darajasi uchun pedagogik texnologiya usulida ta’lim - qanaqa jarayon sifatida tashkil etiladi?
A)harakatning yangi usullarini topish jarayoni
B)mustaqil o’zlashtirish jarayoni
C)ijodiy yondashuv jarayoni
D) takror ishlab chiqiladigan konveyerli jarayon
79.Ta’lim jarayoni nimalardan iborat?
A)harakatlarni tekshirish B)xatoni tuzatish, baholash C)maqsad, xatoni tuzatish
D)maqsad, nazorat, baholash, natija, ta’lim metodlari
80Pedagogik texnologiyalarning aspektlari qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?
A)harakatlarni, shakllar va chizuvlar B)reproduktiv, evristik, produktiv
C)ilmiy, tavsifiy, amaliy D)ishchi fazo, yordamchi vositalar paneli
81.Pedagogik texnologiya usulining umumiy tuzilmasi nimalardan iborat?
A) predmet bo’yicha maqsad hamda vazifalar tizimini ishlab chiqish, ta’lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish o’zaro ta’sirlar,
B)baho shkalasi o’quvchiga qo’yib borilgan baholarni predmet bo’yicha umumiy bahoga birlashtirish qoidalari
C)o’quvchiga qo’yib borilgan baholarni predmet bo’yicha umumiy bahoga birlashtirish koidalari
D)pedagogikada monitoring
82.Qayta ishlab chiqmoq, yozib qo’ymoq, mahlumot bermoq deb aytmoq, yozmoq, tasvirlamoq, ajratmoq, tanimoq, gapirib bermoq, takrorlamoq qaysi tushunchaga kiradi?
A)analiz B)baholash C)sintez D)bilish
83.Joriy etmoq, hisoblab chiqmoq, namoyish etmoq, foydalanmoq, o’rgatmok, belgilash, joriy etish, aniqlamoq, ruyobga chiqarish, yechmoq qaysi tushunchaga kiradi?
A)qo’llash B)Baholash C)Tushunish D)Bilish
84.Chiqarmoq, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, oldindan aytish, bo’lib chiqmoq, taqsimlash tekshirmoq
A)analiz B)bilish C)sintez D)baholash
85.«Texnologiya» so’zi haqida tushuncha?
A)«texne» - mehnat, san’at, «logos» - tushuncha bilim
B)«texne» - mahorat, san’at, «logos» - tushuncha ta’limot
C)«texne» - qobiliyat, san’at, «logos» - tushuncha ta’lim
D)«texne» - san’at, «logos» – tushuncha o’qitish
86.Blum taksonomiyasida ta’lim maqsadlarining asosiy tushunchalari nechta?
A)7 ta B)8 ta C)6 ta D)5 ta
87.“Muammoli o’qitish – rivojlanayotgan ta’limning shunday turiki, unda o’quvchilarning muntazam mustaqil izlanuvchi faoliyati ular tomonidan fanning tayyor xulosalarini o’zlashtirish bilan birga uyg’unlashadi” – bu tahrif kimga tegishli.

A)Ya.A.Komenskiy B)Saidaxmedov N.S C)Mahmudov M.I D)M.A.Danilov
88.Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari?
A) o'qituvchi-kommunikatsiya-o'quvchi B)o'quvchi-o'qituvchi-kommunikatsiya
C)kommunikatsiya- o'qituvchi-o'quvchi D)o'qituvchi-o'quvchi-kommunikatsiya
89.Masofadan o'qitish uslubiy materiallari?
A)darslik, udio va video darsliklar, on-layn darslar (Internet saxifa), elektron kutubxona, testlar, mulg'timedia- elektron darslik va albatta axborot texnologiya
B)mul'timediya o'qitish, innovatsion o'qitish, testlar
C)masofadan o'qitish, elektor o'qitish, innovatsion o'qitish vositalari
D)innovatsion o'qitish, lektor o'qkitish, elektron kutubxona
90.Masofadan o'qitishning tashkiliy-iqtisodiy afzalligi nimadan iborat?
A)talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas
B)moliyaviy harajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash uchun maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi
C)elektron kutubxona, testlar, mul'timediya o'qitish
D)innovatsion o'qitish, elektor o'qitish, testlar
91.Masofadan o'qitishning tashkiliy-iqtisodiy afzalligi nimadan iborat?
A)talabalar uchun auditoriyalar, yotoqxonalar zarur emas
B)moliyaviy harajatlar asosan o'quv-uslubiy materiallar tayyorlash uchun maxsus auditoriyalar uchun sarflanadi
C)elektron kutubxona, testlar, mul'timediya o'qitish
D)innovatsion o'qitish, elektor o'qitish, testlar
92.Innovatsiya faoliyatidagi «kreativlik» deganda siz nimani tushunasiz?
A)O'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvi
B)Ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglab olish
C)Shaxs o'zini namoyon qila olish va o'zining muayyan ishlarini amalga oshirish.
D)Individning yangi tushuncha yaratish va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyatini bildiradi
93.Mahorat bu –
A)Yuqori darajadagi va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat.
B)Tug'ma talant yoki nasldan naslga o'tuvchi xususiyat.
C)O'qituvchilar uchun standart ish usuli
D)Pedagogik mehnat samarasi
94.O'qituvchi faoliyatining qirralari -
A)Bilimdonlik, rivojlantiruvchanlik
B)Ko'nikma, malaka
C)safarbarlik, bilim
D)ta'lim berish
95.Didaktik qobiliyat bu-
A)O'qituvchining o'z ish rejasini rejalashtira olish qobilyati..
B)Bilimni egallash va uni o'zlashtirishni taminlaydi.
C)Psixologik moslashuvni ta'minlaydigan qobilyat
D)O'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogika qonuniyati va uslublarini o'rganadi
96.O'qituvchining bilish qobilyati
A)O'qituvchining o'z ishini rejalashtira olish qobilyati
B)Bilish qobilyati
C)O'qituvchiga xos bo'lgan bilimlarini, o'qitish va tarbiya usullarini yangi pedagigik sharoitda ham o'tkaza olish qobilyati.
D)O'quvchi shaxsi bilan muloqotni yaxshilaydigan va hamkorlikdagi faoliyatda psixologik qovishishini ta'minlaydigan qobilyat
97.Pedagogik mahorat bu-
A)Tarbiya jarayonini tashkil etish.
B)Pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamolati maqsadlari tomon yo'naltirish.

C)Tarbiya beruvchilarda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish
D)Darslarni to'gri tashkil etish, o'quvchilarni baholash

98.O'qituvchi nutq qobilyati

A)To'g'ri muloqot maromlarini egallash qobiliyati
B)Verbal qobiliyati
C)Paralingvistik ta'sir o'tkazish qobilyati
D)Nutq yordamida o'z fikr va tuyg'ularini aniq ifodalash qobilyati.

99.O'qituvchining tashkilotchilik qobilyati-

A)Bolalarga yaqinlasha olish qobilyati.
B)Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish qobilyati.
C)O'qivchilar jamoasini uyushtirsh, jipslashtirish, muhum vaifalarni hal etishga ruhlantirish qobilyati
D)Guruhiy faoliyatni shakllantirish qobilyati.

100.O'qituvchining kuzatuvchanlik qobilyati-

A)Guruhiy faoliyatni shakllantirish qobilyati.
B)Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish qobilyati
C)o'quvchining ichki dunyosiga kira bilish, o'quvchi shaxsini va uning ruhiy holatini tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixalogik kuzatuvchanlik qobilyati.
D)Bolalarga yaqinlasha olish qobilyati.

101.O'quvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish tog'risida fikr bildirgan evropa olimlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan

A) Ya.A.Komenskiy, D.Lokk, G. Pestalotsi,
B) A.Destverg,D.Ushinskiy
C) Ya.A.Komenskiy, Demosfen
D) Platon, Sitseron D.Lokk, D.Ushiniskiy

102.O'qituvchini o'quvchilar bilan muloqot jarayonida paydo bo'ladigan turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish uchun

A) avvalo o'z iqtidoriga, pedogogik va psixologik mahoratiga tayanish lozim
B) o'zi ishlayotgan o;quv muassasi rahbariyatiga yordam so'rab murojat qilish kerak
C) darhol tartibsiz o'quvchining tolib o'rta nisbatan tarbiyaviy jazo metodini qo'lash shart
D) Ota-onasini o'quv muasasasiga chaqirtirishi va suxbat o'tkazish ogohlantirish kerak.

103.Pedagogik tasir ko'rsatishning asosy usulari

A) talab istiqbol rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri
B) rag'batlantirish, jazolash
C) Pedagogik tajriba
D) Ishontirish va maqulash

104.Pedagogik muamolar muvoffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillar

A) Pedagogik qobilyatning mavjudligi va pedagogik nazokat
B) O'qituvchining talabchanligi prensipialligi
C) O'qituvchining notiqlik sa'nati
D) so'z boyligi notiqligi

105.Muomalada verbal tasir

A) So'zlar orqali ta'sir etish
B) nutqsiz tasir etish
C) xati harakatlar oqali tasir etish
D) ko'z qarashlari va xisiy ifoda

106.Pedagogik faoliyatda demokratik muloqotning asosiy shakli.

A)O'qituvchi faollik ko'rsatmaydi, turli tasrlarga tez beriladi
B)Iltimos, maslahat, axborot ma'ruzada
C)Buyruq, ko'rgazma, instruksiya tarzida
D)O'quvchilar fikrini hisobga olmasdan diktator sifatida

107.Qobiliyat bu –

A)nasldan naslga o'tuvchi alohida xususiyat
B)voqelikni aks ettirishi jarayoni

C)atrofdagi odamlarga va hayot sharoitiga munosabatda ifodalanadigan individual hususiyat
D)Shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning kasbini muvoffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart sharoitlarini ifodalovchi individual psihik xususiyati.

108.Ko'nikma va malaka

A)ma'lumot B)bilim C)o'qish; D)mehnat asosida hosil bo'ladi.

109.Pedagogika fanlari tizimi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A)sport pedagogikasi, oila pedagogikasi, kar — soqovlar pedagogikasi, akliy zaiflar uchun pedagogikaumumiy pedagogika, psixologiya, pedagogika tarixi, metodika
B)maktabgachata'lim pedagogikasi, umumiy ta'lim pedagogikasi, o'rta—maxsus, kasb—hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, ishlab chikarish pedagogikasi, pedagogik menejment, davolash pedagogikasi, gerontopedagogika, maxsus pedagogika.
C)maktabgacha tarbiya pedagogikasi, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, oila pedagogikasi,
D)maxsus pedagogika, xususiy fanlar metodikasi

111.Ta'lim va bilim so'zining farqli tomonlari bormi?

A)ta'lim va bilim turdosh tushuncha
B)ta'lim umumiylikka, bilim individuallikka xos tushuncha
C)farqli jihati yo'q
D)ta'lim oluvchida bilim ham bo'ladi, ikkovi bir tushuncha

112.Bolaning bog'cha davri qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A)1-4yosh B)1-5yosh C)1-3 yosh D)1-7yosh

113.Pedagogik tadkikot usullarini aniqlang.

A)kuzatish, suhbat, bolalar ijodini o'rganish, test surovnomalar, maktab hujjatlarini taxlil qilish, tajriba—sinov, statistika ma'lumotlarini taxlil qilish, matematika, kibernetika usullari.
B)sinov — tajriba, suhbat, surov — anketa, o'rganish
C)kuzatish, suhbat, surov — anketa, tajriba sinov, taxlil, munozara usullari.
D)o'quvchilarni o'rganish, bilimlarni baholash, reyting—test, og'zaki bayon qilish, mashq kildirish usullari

114.Ta'lim jarayonining ikki tomonlama xususiyatini aniqlang?

A)o'qitish o'rgatish, o'qish—o'rganish
B)o'qituvchi va o'quvchi faoliyati
C)rag'batlantirish, baholash, amaliyotda sinab ko'rish
D)hamma javoblar to'g'ri

115.Ta'lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari kuyidagilardan iborat

A)1—sezish va idrok qilish. 2— bilimlarni tushunish va umumlashtirish, 3 — bilimlarni mustaxkamlash 4—amaliyotda kullash
B)1 — idrok qilish, 2 —tasavvur qilish,"3—o'rganish
C)1—sezish, 2—o'qish, 3 —taxlil qilish 4— xulosalash
D)1—o'rganish, 2—o'qish, 3 —taxlil 4—mustaxkam fikrlash

116.O'qitishning og'zaki usullari 3 turga ajratiladi bular:

A)suhbat, hikoya, amaliy mashqlar
B)hikoya, suhbat, maktab ma'ruzasi
C)hikoya, tushuntirish, yakunlash
D)savol —javob, suhbat, hikoya

117.O'quv materialining mazmuni, hajmi, harakteri, sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi, imkoniyatlariga loyik bo'lishi ta'limning?

A)izchilligi va tizimligi qoidasi
B)ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish qoidasi
C)ilmiylik qoidasi
D)yosh va o'ziga xos xususiyatlarni xisobga olish qoidasi deb aytiladi

118.Ta'limni integraiyalash nima ?

A)tushuntirish, izoxlash
B)boshkarish, izoxlash
C)yo'naltirish, bog'lash

D)moslashtirish, to’ldirish

119.O’qitiladigan fanlar, o’qitish uchun ajratilgan soatlar va o’quv yilining tizimini belgilab beruvchi davlat hujjatiga - ?

A)o’quv reja
B)darslik
C)dastur
D)jadval deyiladi.

120.O’quv rejasi asosida ishlab chiqilgan har bir o’quv fanining o’qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g’oyaviy-siyosiy yo’nalishini aniqlab beradigan davlat hujjati-?

A)dastur
B)Darslik
C)Jurnal
D)Kitob

121.Ma’lum bir o’qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo’lgan yordamchi o’quv materiallari?

A) vosita
B) metod
C) asbob—uskuna
D) qo’llanma

122.Didaktikada o’qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma’ruzasidan iborat o’qitish usuli?

A) dars o’tish usullari
B) ta’lim usullari
C) o’qitishning og’zaki usullari
D) suhbat usuli deb nomlanadi.

123.O’rganilayotgan narsa va xodisalarni xissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushoxoda qilishga o’quvchini undash mantikiy va nazariy elemantlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nazariy bilimlarini amaliyotga qo’llay olishga o’rgatish usuli.

A) ta’limning ko’rgazmalilik usuli
B) o’qitishning amaliy usullari
C) ta’limning og’zaki usullari
D) ekskursiya usuli deb nomlanadi

124.Ta’limning ko’rgazmalilik usuli guruhi qaysi qatorda to’g’ri ifoda etilgan?

A) kinofilm, illyustratsiya, fotosuratlar
B) namoyish qilish, illyustratsiya, ekskursiya
C) diofilm, kinofilm, xaritalar
D) tasviriy ko’rgazmalar, suratlar, muzeylar

125.Muayyan fandan biror o’quv dasturi va reja asosida tinglovchilar saviyasi, tarkibi, yoshi, qabul kila olish darajalarini inobatga olgan holda tashkil qilingan mashg’ulotlar turini:

A) seminar mashg’uloti
B) ma’ruza
C) dars
D) ta’lim deb aytamiiz

126.Ta’limning noan’anaviy shakli qaysi qatorda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) baxs munozara, davra suhbati
B) ekskursiya, laboratoriya
C) sinf—dars
D) seminar, misol yechish, mashq ishlash

127.Sinf —dars shaklidagi dars turlari qaysilar?

A) yangi bilimlarni bayon qilish, o’tilgan materiallarni mustaxkamlash, o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarini tekshirish va baholash, takroriy umumlashtiruvchi va kirish darsi, aralash darsi.
B) uyga vazifani so’rash, yangi mavzu uyga topshiriq berish
C) o’quvchilarni bilimini baholash, yangi mavzuni bayoni, takrorlash

D) o’tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzu, o’quvchilarni baholash, uyga vazifa berish

128.Yoshi va bilimi darajasi bir xil bo’lgan o’quvchilar guruhiga nima deyiladi?

A) dars
B) sinf
C) guruh
D) jamoat

129.O’qituvchi dars jarayonini tashkil qilaetganda qanday 3 ta maqsadni amalga oshiradi?

A) bilim berish, baholash, uyga topshiriq berish
B) ilmiy, amaliy, mantiqiy
C) ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantirish
D) savodxonlik, bilimdonlik, xozir javoblik

130.Pedagogikaning fan sifatidagi vazifasi nima?

A) o’rganadi.
B) O’rgatadi
C) Ta’lim - tarbiya tizimi.
D) Ta’lim-tarbiya obekti

131.Ta’limiy maqsad nima?

A) Bilim, ko’nikma, va malakalarni shaklantrish
B) Ijtimoiy siyosiy ilmiy soxadagi yangiliklarni yaratish
C) O’quvchilarda ma’lum siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy dunyoqarashni shaklantirish.
D) Yoshlarga zamonaviy bilim berish

132.Pedagogika so’zi nimani anglatadi?

A) Bola yetaklamoq
B) O’qitaman, o’rgataman
C) Ta’lim tarbiya
D) Tarbiyachi

133.Dars - bu:

A) Aniq maqsadni ko’zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o’quvchi, yoshlar bilan o’kituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg’ulot
B) O’quvchilarga tarbiya berish
C) O’quvchilarga bilim berish
D) O’quvchilarni ma’lum kasb - hunarga yo’naltira olish

134.Bolaga ota-onadan va yaqin ajdodlaridan ya’ni nasldan-naslga o’tadigan biologik xususiyatlar va o’xshashliklar fanda qanday nomlanadi?

A) shaxsiyat
B) irsiyat
C) xususiyat
D) qobiliyat

135.Magistratura qanday ta’lim turi, necha yil davom etadi?

A) Bakalavr negizida kamida 3 yil davom etadi.
B) Bakalvrga aloqasi yo’q
C) Magistraturaga bog’liq.
D) Bakalavr negizida kamida 2 yil davom etadi

136.Oliy ta’lim necha bosqichdan iborat?

A) Bakalavr, Magistratura.
B) Bakalavr.
C) Magistratura, aspirantura
D) Bakalavr, aspirantura

137.«Ta’lim to’g’risida»gi Qonunning asosiy maqsadini aniqlang.

A) O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish.
B) Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish.
C) Barkamol avlodni shakllantirish

D) Milliy kadrlarni tayyorlash

138.Pedagogik faoliyat deganda nimani tushuniladi?

A) Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida davlat oldida javob beradigan, ta'lim - tarbiya berishda maxsus tayyorlangan odamlarining mehnat faoliyati.
B) Bolalar va o'smirlar orasida ta'lim tarbiya ishiga ma'sul kishilarning faoliyati.
C) Pedagogik jarayon - inson shaxsini shakllantirishning qaratilgan jarayon.
D) Bolalarga ta'lim -tarbiya berishga maxsus tayyorlangan shaxslar.

139.O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishiga qaysilar kiradi?

A) akademik litsey, kasb-hunar kolleji
B) kasb-hunar kolleji.
C) akademik litsey.
D) institut, universitetlar.

140.Savol-javob usuli keltirilgan qaysi ta'lim metodida ko'proq qo'llaniladi?

A) Ma'ruza.
B) Suhbat.
C) Seminar.
D) Hikoya.

141.Metod tushunchasi nimani ifodalaydi?

A) Tadqiq qilish yoki bilish yo'li
B) Ta'lim berish usullari va shakllari
C) Pedagogik qonuniyatlarini ta'limda ifodalanishi
D) Talabalarga bilim berish va baholash jarayoni

142.Yangi bilim berish darsida asosiy o'rinni nima belgilaydi?

A) yangi mavzu bayoni
B) Laboratoriya
C) mustaqil ish.
D) takrorlash.

143.Darsning tashkiliy qismi necha minutdan iborat bo'ladi?

A) 3-5 minut
B) 20-25 minut
C) 10-15 minut
D) 2-6 minut.

144.Kalendar-mavzuli reja kim tomonidan tasdiqlanadi?

A) maktab direktori.
B) fan o'qituvchisi
C) ta'lim vazirligi.
D) o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini

145.Berilgan tushunchalarni shakllantirish ketma-ketligi qaysida javobda to'g'ri ifodalangan?

A) Ko'nikma-bilim-malaka-tushuncha
B) Malaka-ko'nikma-bilim-tushuncha
C) Ko'nikma-bilim-tushuncha-malaka
D) Tushuncha-bilim-ko'nikma-malaka

146.O'quv rejasi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan

A) Barcha fanlarni soatlari, o'quv haftalari va mashg'ulot shakllariga ko'ra o'tilishiga oid ko'rsatmalar majmuasi
B) O'quv jarayoni grafigi, o'quv predmetilarining hajmi va ro'yxati, ularning o'quv davri bo'yicha taqsimoti, mazmuni va o'tish tartibi berilgan davlat hujjati
C) Har bir mutaxassislik uchun kasb klassifikatori asosida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjat
D) Xalq ta'limi va Oliy ta'lim Vazirliklarining ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish borasida hamkorlikdagi shartnoma hujjati

"Умумий педагогика" фанидан (жами: 120 соат - 4 кредит)

БАҲОЛАШ МЕЗОНИ

№	Баҳолаш тури	Топшириқлар тури	Топшириқлар сони	Ҳар-бир топшириқ учун ажратилган балл	Жами балл	Оралиқ ва якуний баҳолаш учун жами балл	Оралиқ ва якуний баҳолаш учун саралаш бали	
							балл	баҳо
1	1-Оралиқ баҳолаш	Маъруза, амалий ва семинар машғулотлардаги фаоллиги	10	2	20	40	0-23	2
							24-28	3
		Мустақил иш топшириқларини бажариш	5	3	15		29-36	4
		Ёзма иш (тест)	1	5	5		37-40	5
2	2-Оралиқ баҳолаш	Маъруза, амалий ва семинар машғулотлардаги фаоллиги	10	2	20	40	0-23	2
		Мустақил иш топшириқларини бажариш	5	3	15		24-28	3
							29-36	4
		Ёзма иш (тест)	1	5	5		37-40	5
	Жами				80	80		
3	Якуний баҳолаш	Ёзма иш ёки тест шаклида ўтказилади	Ёзма иш бўлса 4 та савол	5	20	20	0-11	2
							12-14	3
							15-18	4
							19-20	5
	Жами				100	100		

Изоҳ: Оралиқ баҳолашга 80 ажратилган бўлса (100 баллик тизимда) ундан 60% яъни 48 ва ундан паст (2 баҳо) олган талаба якуний баҳолашга киритилмайди.